

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“JAXON ARXEOLIGIYASI ”
MODULI BO‘YICHA
O‘QUV-U SLUBI Y MAJMU A**

Toшкент – 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: R. Suleymanov, O‘zMU Arxeologiya kafedrasining professori
SH.Shonazarov O‘zMU Arxeologiya kafedrasining katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: A. Sagdullayev, O‘zMU Arxeologiya kafedrasining akademiki
F. Ochildiyev, O‘zMU Arxeologiya kafedrasining dotsenti

O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2020 yil 24 dekabrda №3 -sonli ba’ennomasi)

МУНДАРИЖА:

I. ИШЧИ ДАСТУР	3
II. МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТРЕФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ	14
III. НАЗАРИЙ МАШҒУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ	17
IV. АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ.....	63
V. ГЛОССАРИЙ	103
VI. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ	120

I. ISHCHI DASTUR Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: –“Jaxon arxeologiyasi” fani to‘g‘risida tinglovchiga zamonaviy bosqichga oid chuqur tarixiy bilimlar, yangi ilmiy qarashlar va nazariyalar haqida axborot berish, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash

va malaka oshirish, mazkur fan haqidagi tinglovchilar bilimlarini takomillashtirish, bu boradagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash, ilg'or tajribalarni o'rganish va amalda qo'llash, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- Tinglovchilarga jaxon arxeologiyasi masalalari bo'yicha ilg'or ta'lim innovatsiyalar, konseptual zamonaviy muammolar va yondashuvlar asoslari to'g'risida ma'lumotlar berish, zamonaviy modulli texnologiyalaridan foydalanib tinglovchilarni mazkur yo'nalishda malakasini oshirishga ko'maklashish;

- Jaxon arxeologiyasining tarix fanida tutgan o'rni, ahamiyati va rivojlanish hususiyatlari haqidagi bilimlarni boyitish;

- Yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash borasidagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida ilg'or xorij tajribasini o'rganish, ulardan samarali foydalanish mahoratni oshirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- pleystotsen davrida yer yuzining iqlimining o'zgarib borishi ni;
- Afrika paleoliti, Yaqin va O'rta Sharq paleoliti, Yevropa paleoliti, MDH Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo paleoliti, Uzoq Sharq paleolitini;
- mezolit davri iqlim o'zgarishlari, paleolit davri san'ati va uning xo'jalik xususiyatlari, diniy qarashlarni, mezolit davri iqlim o'zgarishlarini, mezolit davri xo'jalik va moddiy madaniyat sohalarini mezolit davri madaniyatlari va asosiy arxeologik yodgorliklarini;
- neolit davri ilk dehqonchilik markazlarini, eneolit davri xususiyatlarini, eneolit davri madaniyatlari va ularning asosiy arxeologik yodgorliklarini, ortiqcha iste'mol mahsulotlarning jamlanishini, mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqlanish vujudga kelishini;
- ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo'lishini, ilk shahar markazlarining paydo bo'lishini, Kichik Osiyo va Sharqiy O'rta Yer dengizi hududining eneolit bronza davri xususiyatlarini;
- Janubiy, Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyo hududlarida ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va taraqqiyoti xususiyatlarini, Yevropaning eneolit-bronza davri arxeologiyasini, Tripolye-Kukuteni, Yamniy, Afanasyev, Andronovo va boshqa madaniyatlarini;
- arxeologiya fanlarining rivojlanish tendensiyasi, istiqbolli ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini;
- arxeologiya fani rivojining yangi bosqichini *bilishi* kerak.

□ arxeologiya fanlarini o‘qitish jarayonini tashkil qilish; mezolit davri xo‘jalik va moddiy madaniyat sohalaridagi yutuqlarini tahlil qilish; □ Mesopotamiyaning eneolit davri madaniyatlari va ularning asosiy arxeologik yodgorliklarining amaliy ahamiyatini anglash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

□ arxeologiya fanlarining ustuvor yo‘nalishlarini farqlay olish;

□ MDH xududlaridagi paleolit davri yodgorliklarining amaliy ahamiyatini anglash;

□ tabiatning inson tomonidan o‘zlashtirilish muammosining sabablarini aniqlash;

□ sivilizatsiyalar dinamikasining insoniyat jamiyati tarixi va jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti xususiyatlarini o‘rganishda tutgan o‘rni va ahamiyatini anglash;

□ ibodatxonalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi mavqeining ortib borishi sabablarini aniqlash;

□ arxeologiya fani sohasida zamonaviy talablar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish;

□ arxeologiya sohasida zamonaviy fan texnologiyalarini joriy etish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim. **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborotkommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, o‘tkaziladigan amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Jaxon arxeologiyasi” kursi o‘quv rejadagi Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi, Tarixiy rekonstruksiya masalalari kabi mutaxassislik fanlarining sohaları bilan o‘zviy bog‘langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg‘or tajribani o‘rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir yangi bilimlarga ega bo‘lishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Жами	jumladan		
			Назарий	Амай машғуло	Кўчма машғуло
1.	Jahon arxeologiyasi fanini o‘rganishning ahamiyati	2	2		
2.	Paleolit	4	2	2	
3	Ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi	2		2	
4	Ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo‘lishi	4	2	2	
5	Ixtisoslashgan ishlab chiqarishning chuqurlashuvi	2		2	
6	Xalqaro aloqalarning kuchayishi	2		2	
7	Yevropaning eneolit-bronza davri arxeologiyasi	4	2	2	
	Jami:	20	8	12	

1-mavzu. Jahon arxeologiyasi fanini o‘rganishning ahamiyati (2 soat).

- 1.1. Arxeologiya fani rivojining yangi bosqichi.
- 1.2. Pleystotsen davrida yer yuzi iqlimining o‘zgarib borishini zamonaviy tadqiqotlari.

2-mavzu. Paleolit (2 soat).

- 1.1. Paleolit davrining umumiy tasnifi. Xronologiya masalalari.
- 1.2. Paleolit davri arxeologiyasining dolzarb muammolari.

3-mavzu. Ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo‘lishi (2 soat).

- 1.1. Ilk shahar markazlarining paydo bo‘lish omillari.
- 1.2. Ilk shahar markazlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi mavqeining ortib borishi.

4-mavzu. Yevropaning eneolit-bronza davri arxeologiyasi (2 soat).

- 1.1. Eneolit va bronza davri xronoliyasi muammolari. Yangi tadqiqotlar va xulosalar
- 1.2. Eneolit va bronza davri arxeologiyasining dolzarb muammolari

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Afrika paleoliti, Yaqin va O‘rta Sharq paleoliti, Yevropa paleoliti, MDH xududlaridagi paleolit davri yodgorliklari, Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo paleoliti, Uzoq Sharq paleoliti (2 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Suniy sug‘orishning paydo bo‘lishi, ortiqcha iste‘mol mahsulotlarning jamlanishi, mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish vujudga kelishi (2soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo‘lishi, Uruk madaniyati, Xalaf madaniyati (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo‘lishi, ilk shahar markazlarining paydo bo‘lishi, ibodatxonalarining jamiyat ma‘naviy hayotidagi mavqeining ortib borishi (2 soat).

5-amaliy mashg‘ulot. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanishining chuqurlashuvi, siyosiy va diniy hokimiyatlarning jamiyatni boshqaruvchi kuchga aylanib borishi, silindr muhrlar, yozuv (2 soat).

6-amaliy mashg‘ulot. Suza majmuasi va uning ilk sivilizatsiya tizimida tutgan o‘rni. Janubiy, Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyo hududlarida ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va taraqqiyoti xususiyatlari. Xarappa madaniyati (2 soat).

7-amaliy mashg‘ulot. Tripolye-Kukuteni, Yamniy, Afanasyev, Andronovo va boshqa madaniyatlar (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi: - ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI.

“Keys-stadi” metodi «Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil

uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nimanatija (What).

Keys. Afrika qit‘asida dastlabki ibtidoiy odamlar paydo bo‘ldi. Ular asta-sekinlik bilan yer yuzining boshqa xududalriga tarqala boshladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Dastlabki ibtidoiy odamlarning Afrika qat‘asidan migratsiya qilishi yer yuzida tarqalashining sabablari nimalardan iborat.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ➤ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ➤ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ➤ axborotni umumlashtirish; ➤ axborot tahlili; ➤ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ➤ individual va guruhda ishlash; ➤ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ➤ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ➤ individual va guruhda ishlash; ➤ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ➤ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ➤ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ➤ yakka va guruhda ishlash; ➤ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ➤ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ➤ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Blits – so‘rov” usuli

“Blits–so‘rov” usulidan foydalanishning maqsadi: Talabalarda mantiqiy fikrlash, fan yuzasidan berilgan ma’lumotlar orasidan kerakligini ajrata olish qobiliyatini shakllantirish, o‘zgal fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish, boshqalar bilan hamfikir bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni, tarixiy jarayon ketma–ketligini aniqlash orqali shakllantirish.

O‘tkazish texnologiyasi:

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1. O‘qituvchi talabalarga ushbu mashg‘ulot, bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi va undan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ogohlantiradi. Tarqatma materiallar tarqatib, talabalarga uni sinchiklab o‘rganish zarurligini aytadi.
2. Talabalar dastlab tarqatma materialdagi “Yakka baho” bo‘limiga o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma–ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi. Unga 5 minut ajratiladi.
3. Talabalarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o‘qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tuzishini so‘raydi. Ular hamfikrlikda tarqatma materialdagi “Guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Unga 5 minut ajratiladi.
4. Barcha kichik guruhlarda ishlar tugagach, o‘qituvchi harakatlar ketmaketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi va talabalar “To‘g‘ri javob” bo‘limiga raqamlarni yozib chiqadilar.
5. O‘qituvchi “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlar bilan “Yakka baho” va “Guruh bahosi” bo‘limidagi raqamlarni solishtirib, katta– kichikligini ayirib, farqini chiqarib, “Yakka xato” va “Guruh xatosi” bo‘limlariga yozishlarini so‘raydi.
6. O‘qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo‘yicha tushuncha beradi va ularni alohida sharhlaydi.
7. Talabalar tarqatma materialda berilgan ballar asosida o‘z bahosini chiqaradilar va ular jurnalga qayd qilinadi.
8. Mashg‘ulot yakunlangach, o‘qituvchi mashg‘ulotni o‘tkazish jarayonida talabalarning va guruhlarining faoliyati to‘g‘risida o‘z fikrini bildiradi.

Arxeologik davrlashtirish (“blits-so‘rov” uslubi)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Davrlar nomi
					Mezolit
					Ilk temir davri
					Bronza
					O‘rta asrlar

					Neolit
					Eneolit
					Antik
					Ashel
					Arxaik
					Olduvay

6-5 to'g'ri javob "qoniqarli"

8-7 to'g'ri javob "yaxshi"

9-10 to'g'ri javob "a'lo"

Charxpalak texnologiyasi.

1-misol. Maqsad tinglovchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, o'zlarini baholash hamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatish.

O'tkazish texnologiyasi:

1. Tinglovchilar (sharoitga qarab) guruhlariga ajratiladi.
2. O'qituvchi mashg'ulotni o'tkazish qoidalarini tanishtiradi.
3. Tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
4. Dastlab guruh a'zolari yakka tartibda berilgan vazifani ishlab chiqishadi va tarqatma materialning o'ng tomoniga o'z belgisini yoki ismi familiyasini yozadi. Talaba to'g'ri deb bilgan javobini + belgisi bilan ruchkada belgilab chiqadi. 10 minut ajratiladi.
5. Bajarilgan vazifa boshqa guruh a'zolari bilan almashtiriladi. Ular ham tarqatma materialning chap tomoniga o'zining belgisi yoki ismini yozib, qaytadan x belgisi bilan to'g'ri javobini belgilaydilar. Unga 5 minut ajratiladi.
6. Tuzatilgan, o'zgartirilgan materiallarni yana bir marta guruhlar bo'yicha almashtirish mumkin.(guruhlar soniga qarab)
7. Oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'latgan materialni tanlab oladilar va unda belgilangan javoblar taqqoslanadi va tahlil qiladilar.
8. O'qituvchi tarqatma materialda berilgan to'g'ri javobni o'qiydi va talabalar ularni o'z javoblari bilan solishtirib boradilar.
9. Har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, to'plagan balini xisoblab, o'zini o'zi baholaydi.

№	Manzilgohlarning nomi	Ilk paleolit	O'rta paleolit	So'nggi paleolit	Ilk mezolit	So'nggi mezolit
1	Selo'ngir					
2	Qo'tirbuloq					
3	Siyobcha					
4	Xo'jamazgil					
5	Teshiktosh					

6	So‘x					
7	Obiraxmat					
8	Uchtut					
9	Machay					
10	Ittakqal’a					
11	Obishir					
12	Xo‘jakent					
13	SHo‘rko‘l					
14	Qayla					
15	Ko‘shilish					
16	Machay					
17	Bo‘zsuv					
18	Zarautsoy					
19	Takalisoy					
20	Samarqand					

9-12 to‘g‘ri javob "qoniqarli"

13-16 to‘g‘ri javob "yaxshi"

17-20 to‘g‘ri javob "a‘lo"

Charxpalak texnologiyasi.

2-misol. Maqsad: talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, o‘zlarini baholash hamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga xurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o‘rgatish.

O‘tkazish texnologiyasi:

1. Talabalar (sharoitga qarab) guruhlariga ajratiladi.
2. O‘qituvchi mashg‘ulotni o‘tkazish qoidalarini tanishtiradi.
3. Tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi.
4. Dastlab guruh a‘zolari yakka tartibda berilgan vazifani ishlab chiqishadi va tarqatma materialning o‘ng tomoniga o‘z belgisini yoki ismi familiyasini yozadi. Talaba to‘g‘ri deb bilgan javobini + belgisi bilan ruchkada belgilab chiqadi. 10 minut ajratiladi.
5. Bajarilgan vazifa boshqa guruh a‘zolari bilan almashtiriladi. Ular ham tarqatma materialning chap tomoniga o‘zining belgisi yoki ismini yozib, noto‘g‘ri deb bilgan javoblarni x belgisi bilan to‘g‘ri javobini belgilaydilar. Unga 5 minut ajratiladi.
6. Tuzatilgan, o‘zgartirilgan materiallarni yana bir marta guruhlar bo‘yicha almashtirish mumkin.(guruhlar soniga qarab)
7. Oxirgi almashishdan so‘ng har bir guruh a‘zosi o‘zlari ilk bor to‘latgan materialni tanlab oladilar va unda belgilangan javoblar taqqoslanadi va taxlil qilidilar.

8. O'qituvchi tarqatma materialda berilgan to'g'ri javobni o'qiydi va talabalar ularni o'z javoblari bilan solishtirib boradilar.
9. Har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, to'plagan ballini hisoblab, o'zini o'zi baholaydi.
10. Talabalarning baholari sinf jurnaligi qayd qilinadi va mashg'ulot to'g'risida o'qituvchi o'z fikr va mulohazalarini bildiradi. **Ibtidoiy davr xususiyatlarini aniqlang.**

(Charxpalak texnologiyasi.)

№	Davr xususiyatlari	Paleolit	mezolit	neolit	eneolit	Bronza
1	Dehqonchilik vujudga kelgan					
2	O'q-yoy ixtiro qilingan					
3	Muzlik davri hukmron bo'lgan					
4	Sun'iy olov ixtiro qilingan					
5	Sopol ixtiro qilingan					
6	Odamlar g'orlarda yashagan					
7	Chorvachilik vujudga kelgan					
8	Odamlar ko'chmanchi hayot kechirishgan					
9	Neandertal odam yashagan					
10	Ijtimoiy tengsizlik vujudga kelgan					
11	Mikrolit qurollar ishlab chaqarilgan					
12	Sug'orma dehqonchilik vujudga kelgan					
13	Bug'ular ovlangan					
14	Ilk shaharlar vujudga kelgan					
15	Mis ixtiro qilingan					

16	Makrolit qurollar ishlangan					
17	Nukleuslar ishlangan					
18	Mustahkamlangan qishloqlar v/k					
19	Patriarxat davri boshlangan					
20	Qoya tosh suratlar ko'p ishlangan					

9-12 to'g'ri javob "qoniqarli"

13-16 to'g'ri javob "yaxshi"

17-20 to'g'ri javob "a'lo"

2. "Assesment" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin. Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

Test	Qiyosiy taxlil
1. Arxeologiya atamasi ilk bora kim tomonidan qo'llanilgan? A. Aflotun B. Geradot C. Gipparx D. Arrian	Arxeologiya va Antiquaries atamalarini qiyosiy taxlil qiling

Tushuncha tahlili Arxeologiya atamasini izoxlang.....	Amaliy ko'nikma Arxeologik yodgorliklar turlarini tasniflashni o'rganing
---	--

3. "Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ✓ ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ✓ o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar
- ✓ nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ✓ o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday
- ✓ holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- ✓ belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning
- ✓ tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- ✓ har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy
- ✓ munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini
- ✓ tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Arxeologiyada tayanch tushunchalar tahlili"

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi	Qo'shimcha ma'lumot
Arxeologiya	Arxayos-qadim va logos-fan ya'ni o'tmish xaqidagi fan degan ma'nolarni anglatadi	
Antiquitates	Rimlik mualliflar yunoncha arxeologiya termini o'rnida antiquitates-qadimiyot terminini qo'llashgan.	
Antiquaries	Rimlik mualliflar yunoncha antiquitates-qadimiyot sohasi vakillarini esa «antiquaries» - antikvari, ya'ni qadimiy topilmalar xavaskorlari deya atashgan.	
Olduvay, ashel, mustye va so'nggi paleolit	Arxeologik davr xisoblanmish paleolit ya'ni qadimgi tosh davri bosqichlari	

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-мавзу: Жаҳон археологияси фанини ўрганишнинг аҳамияти

Режа:

- 1.1. Археология фани ривожининг янги босқичи.
- 1.2. Плейстоцен даврида ер юзи иқлимининг ўзгариб боришини замонавий тадқиқотлари

Tayanch iboralar: Arxeologiya, ibtidoiy madaniyat, Antrogenez, diniy karash, dunyoviy karash, Sharqiy Afrika, Olduvay, Zinjanthrop, Sinantrop, Neandertallar, Germaniya, Keniya va Tanzaniya, Pitekanthrop.

Odamning kelib chikishi. Odamning kelib chikishi masalasi ustida olimlar bir necha yuz yillardan beri tadqiqot olib boradilar, bu masala buyicha turli nutai-nazarlar mavjud bulib, lekin ularning ba'zilari uz isbotini xali topganicha yuk. Odamning kelib chikish va rivojlanishi jarayoni tarix fanida Antropogenez-yunoncha "antropos"-odam, "genezis"- rivojlanish deb yuritiladi.

Odamning kelib chikishi, kishilik jamiyatining paydo bulishi, uning rivojlanishi va tarakkiyoti tugrisida fanga turli xil yondoshuvlar, karashlar mavjud. Biz ularni 2 ga bulib urganamiz.

1. Diniy karash.
2. Dunyoviy karashdir.

Biz yashab turgan moddiy dunyo azaldan bulganmi? Yerda xayot kachon paydo bulgan, odam paydo bulgan kabi masalalarda diniy va ilmiy adabiyot birbirini inkor etuvchi xulosalar bilan yondoshadi.

Shunday ekan dunyoviy bilim ham diniy bilimlar ham o'z nuktainazarlarini ilgari suradilar. Diniy ta'limot karashlarini xurmat kilgan xolda fanda odamning paydo bulishi xakida evolyusion ta'limot mavjudligini aytib o'tmoqchiman.

Ayniqsa hozirgi vaqtda antropogenez mavzusi ko'pdan-ko'p yangi fikr muloxazalar bilan boglangan.

Insoniyatning dastlabki vakillarining qazilma qoldiqlari 1959 yilda Amerikalik olimlar tomonidan Sharqiy Afrikadagi Olduvay daryosida topilgan¹.

Bu odam koldiklari Tanzaniyaning Zinj nomli qishlog'idan tonilgani uchun uni shu nom bilan Zinjan Trop odami deb ataladi.

Bu yerda odam suyaklari bilan birga har xil hayvonlarning antiqa suyaklari va tosh qurollar ham topiladi. Zinjanthrop topilgan biologik qatlamning sanasi 1,5 – 2 million yil deb taxmin qilinmoqda. Indoneziyadagi Yava orolida 1890 yil eng kadimgi odam suyagining qoldiqlari topilgan bo'lib, uni ptekanthrop deb nomlaganlar. Yunoncha maymun odam demakdir.

¹ Denbow J. The Archaeology and Ethnography of Central Africa Published: Cambridge University Press. 2013

Xitoyning Pekin shahri yaqinida topilgan odam suyagi qoldiqlari joy nomi bilan atalib, sinomtrop Xitoy odami deb nomlangan. Sinatroplar oʻtkir qirrali tosh qirollardan va tabiiy olovdan foydalanganlar.

“Ishbilarmon odam” larning vakillari boʻlgan zinjanthrop va avstrolopitek (lotincha janub odami) bundan 3-2 million yillar oldin yashaganlar. Ptiokantrop miloddan 700-600 million yillar, snantrop esa 600-500 million yillar ilgari yashagan. Ular ilk paleolit davri odamlari deb hisoblanadi².

Kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishga intilish qadimgi dunyodayoq er. avv. I asrda yashagan Rim faylasufi Lukretsiy Kar oʻzining «Narsalarning tabiati» nomli poemasida odamzod madaniyatining rivojlanish manzarasini, tosh qurollarning mis qurollar bilan, undan soʻng temir qurollar bilan almasha borganini dastlab tasvirlab bergan. Lekin bu fikr tezda unutilib yuborilgan.

Shotlandiya filosofi A.Fergyson kishilik tarixini uch davrga: yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiyaga boʻlib oʻrganishni tavsiya qilgan. Arxeologlar ibtidoiy davr kishilaridan qolgan moddiy va madaniy buyumlarni oʻrganish asosida kishilikning ibtidoiy tarixini uch davrga: tosh, bronza (jez) va temir asrlariga boʻladilar.

Tosh asri esa oʻz oʻrnida yana qadimgi va yangi tosh davrlariga boʻlinadi. Qadimgi tosh asri qazilma odamlarning yashagan davri hisoblanadi. U vaqtda Yerning iqlimi, oʻsimliklar va hayvonot dunyosi hozirgidan farq qilar edi. Qadimgi tosh asri kishilari silliqlangan tosh qurollar va sopol idishlarni bilmaganlar. Ular yogʻochdan tayyorlangan soʻyil va oddiy tosh qurollardan foydalanganlar.

Qadimgi tosh asri kishilari ovchilik va termachilik bilan shugʻullanganlar, baliqchilik esa endi shakllana boshlagan boʻlib, ular dehqonchilik va chorvachilikdan mutlaqo xabarsiz edilar. Kishilik jamiyati tarixining juda katta davrini oʻz ichiga qamrab olgan tosh davri ikki bosqichga: eng qadimgi (quyi, ilk) va keyingi (yuqori) tosh asrlariga boʻlinadi.

Eng qadimgi tosh asri olduvay, (Ashelgacha), qadimgi ashel, keyingi va oʻrta ashel hamda mustye davrlariga boʻlinadi. Uning eng quyi sanasi 3,5-3 mln. yuqorisi esa 100-35 ming yilga kelib taqaladi.

Soʻnggi paleolit esa orinyak, solyutriy va madlen davrlariga boʻlinib 40-35 ming yilliklardan 15-12 ming yilliklargacha boʻlgan tarixiy davrni oʻz ichiga oladi.

Soʻnggi tosh asridan soʻng esa oʻrta tosh-mezolit asri boshlanib, 12-15 ming yilliklar orasidagi davrni qamrab oladi.

Mezolitdan soʻng tosh asrining soʻnggi bosqichi neolit-yangi tosh asri boshlanib Yevropaning markazi, gʻarbi, sharqi va janubiy oʻlkalarida, Osiyoda uning sanasi 5-3 ming yilliklarga mansubdir.

Ayni vaqtda mazkur arxeologik davrlar Yer tarixining geologik bosqichlari bilan zamondosh boʻlishi ham mumkin.

Odamning paydo boʻlishi zaminimiz tarixining toʻrtlamchi bosqichiga toʻgʻri keladi.

² Suzanne Richard. *Near Eastern Archaeology: A Reader*. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003

Geologik jihatdan to'rtlamchi davr to'rt: neogen, eopleystotsen, pleystotsen va golotsen bosqichlariga bo'linadi.

Mazkur davrda Shimoliy Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning ko'p joylarini vaqti-vaqti bilan Dunay, Gyuns, Mindel, Riss va Vyurm deb ataluvchi muzlik qoplab turgan. Lekin golotsenga kelib mazkur joylardagi muzlar erib u yerlarning tabiati o'zgarib ketdi. Arxeologik nuqtai nazaridan neogen va eopleystotsen qadimgi tosh asrining Olduvay (shellgacha) pleystotsen qadimgi shell, O'rta va so'nggi ashel, mushye va so'nggi paleolit davrlariga to'g'ri keladi. Golotsen esa mezolit va neolit asrlariga mos tushadi. Kishilikning ibtidoiy bosqichini to'g'ri davrlashtirish uchun arxeologiya, geologiya, klimatologiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarni joriy qilish ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab chiqarish kuchlarini to'laroq o'rganish uchun imkon beradi.

Zinjanthrop avstrolopiteklar oilasining eng kadimgi vakili hisoblanadi, olimlar unga "Xomaxabilis" ishbilarmon odam deb nom berilgan va u eng sodda mexnat kurollari yasay olgan.

Zinjanthrop, pitekanthrop va sinantropilar ilk toshlari ildiz utgan eng kadimgi odamlar rivojlanishini boskichlari xisoblanadi.

Ular kaddini tik tutib yurganlar. Mexnat kurollarini yasab ishlata olganlar. Bu xol ularni xayvonot dunyosidan ajratib turgan. Sinantropilar pitekanthropilarga karaganda murakkabroq mexnat kuroli yasay bilganlar. Buning ustiga tabiiy oatdan xam foydalanganlar. Ming yillar davomida odamning tashki kiyofasi, miya xajmi uzgargan.

Xindistonning shimoli, Sharqiy Afrika topilmalari asosida fanga ma'lum bo'lgan ramapiteklarni keltirib o'tishadi. Driopiteklarning eng rivojlanib borgan vakillaridan Ramapiteklar kelib chiqqan. Ularga oid dastlabki topilmalar Xindistonning uchlamchi davr qatlamlariga oid Sivali tog' tizmalaridan topilgan. Ramapitek boshqa odamsimon maymunlardan shunisi bilan farq qilganki, uning oldingi qoziq tishlari bo'rtib chiqmagan va uning tashqi ko'rinishi odamga yaqin bo'lgan. Antropoidlarning keyingi taraqqiy etishi shu narsaga olib kelganki, ular orqa oyoqlaridan harakat qila boshlaydi. Keyinchalik tosh va daraxt shoxlaridan o'ziga qurollar yasay boshlaydi. Uchinchi gurux olimlar esa insoniyat eng yaqin ajdod sifatida avstrolopiteklarni keltirib o'tishadi. Avstrolopiteklarga tegishli dastlabki topilma 1924 yilda JAR xududida R. Dart tomonidan topilgan. Bundan tashqari avstralopiteklarga oid topilmalar sharqiy Afrika; Tanzaniya, Keniya, Efiopiya xududlaridan ham qayd etilgan. 1935-1965 yillar oralig'ida avstralopiteklarga oid 30 dan ortiq topilmalar qayd etilgan. Ularning miya suyagining xajmi 600-700 kub smni tashkil etgan, ular orqa oyoqlarida harakat qilgan, go'sht istemol qilganlar. Aynan ularning go'sht istemol qilishi ularda boshqa odamsimon maymunlarga nisbatan miyani kerakli ozuqalar bilan ta'minlash va keyinchalik miya xajmining o'sishiga olib kelgan. Hozirgi kunda ko'plab avstrolopiteklarga oid topilmalar qayd etilgan bo'lib, ularning aniq davri ham o'rnatilgan³. Bundan 1.5 mln yil avval Zinjanthrop yashgan. (Zinj bu Sharqiy Afrikaning qadimgi arabcha nomi). Unga

³ Martin Hall, Stephen W. Silliman. Historical archaeology. UK. 2006.

tegishli dastlabki topilma Tanzaniyaning Olduvay darasidagi ilk to'rtlamchi davr qatlamlarida qayd etilgan. 1960 yilda esa ingliz paleontologi L. Liki aynan shu yerdan Xomo Xabilisga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan. Uning miya suyagining xajmi 630-680 kub smni tashkil etgan. Umurtqasi va tishlarining tuzilishiga ko'ra, u odamzodga yaqin bo'lgan. U zinjantropga nisbatan avvalroq ya'ni bundan 1 mln 750 ming yil burun yashagan. Aynan Xomo Xabilis dastlab tosh qurollar yasashni ixtiro etgan. Albatta, bu xolat odamzod uchun xos hisoblanadi. XX asrning 60-yillarida shunday bir ixtiro amalga oshirildiki, bu esa o'z navbatida evolyusion nazariyaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Aniqlandiki yerdagi barcha tirik jonlar, ya'ni bakteriyadan tortib toki insongacha bitta umumiy genetik kodga ega. Yerdagi hayotning paydo bo'lishi va taraqqiy etishini biz Darvin ta'limoti asosida talqin etadigan bo'lsak, u holda bir organizmning genakodi ikkinchisidan farq qiladi. Shunda ybo'lib chiqayaptiki, inson bitta yagona onadan kelib chiqqan. Shunday bir savol tug'iladi, yerdagi hayot o'zga sayyora probirkasida vujudga kelganmi ?

XIX asr oxirida olimlar tomonidan avstrolopitekklarga nisbatan rivojlangan ibtidoiy odamlar qoldiqlarini topishgan muvaffaq bo'lishdi. Noto ergaster—Noto erectus bundan 2-1,5 million yil avval Afrika xududini tashlab uzining dastlabki Afrikadan Yevroosiyoga migratsiyasini boshlaydi. Aynan mana shu davrdan boshlab yer sharining ibtidoiy ajdodlarimiz tomomnidan o'zlashtirilishi boshlanadi. Shuni alohida qayd etishimiz kerakki ajdodimizning Afrikadan yer sharining boshqa qismlariga migratsiyasi ma'lum bir qonunlarga asoslangan emas edi. Bu jarayon tabiiy xolatda yuz bergan. Pliotsena va neopleystotsenning ilk bosqichida Afrika Yevroosiyoga qit'asi va Arabiston yarim oroli bilan bog'langan bo'lgan. Bu davrda sharqiy Afrika, Yevroosiyoning g'arbiy rayonlari, Yaqin Shaq va Arabiston yarim oroli birbiriga yaqin bo'lgan tabiiy shart-sharoitlarga ega bo'lgan.

Dastlabki ajdodlarimizning Afrika xududidan chiqib Yevroosiyoga xududiga migratsiya qilish jarayoni juda sekin kechgan. Biroq hozirda Arabiston yarim oroli va Yaqin Sharq xududida ibtidoiy ajdodlarimizning dastlabki migratsiyasi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar aniqlanmagan. Yaqin Sharq xududida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli bo'lgan dastlabki paleolit davri yodgorliklari Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning davriy sanasi 1,4 va 0,9 million yillar bilan belgilangan. Yaqin Sharq xududidagi Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari ibtidoiy ajdodlarimizning Afrika xududidan Yevroosiyoga ikkinchi migratsiyasi davriga tegishli yodgorliklar hisoblanadi. Bu davrda Yevroosiyoda ashel tosh industriyasi tarqala boshlagan jarayonni kuzatishimiz mumkin. Ubeydiya yodgorligining quyi qatlamlaridan ikki tomonlama ishlov berilgan tosh qurollar namunalari kuzatishimiz mumkin. Ashel davriga qadar mavjud bo'lgan qatlamlar 1983-2000 yillar davomida Al-Guza, Sharxabil, Al-Amir, Djidfir, Al-Gabr VI g'or makonlarida qayd etilgan⁴. Bola suyagining qoldiqlari atrofida tog' echkisining to'rt juft shoxi tartib bilan terib qo'yilgan bo'lgan. Qabr olov qoldiqlarining izlari ham aniqlangan. Ko'rinishidan

⁴ Robert J. Muckle. *Introducing Archaeology: Second Edition*. University of Toronto Press. 2014

teshiktoshliklarda vafot etganlarni dafn qilish odatlari mavjud bo'lib, diniy tasavvurlar shakllangan.

Teshiktoshdan ko'plab yovvoyi hayvon suyaklari topilgan. Ular tog' echkisi, bug'u, ot, yo'lbars, ayiq, tulki, 20 dan ortiq qush suyaklaridan iborat. Omonqo'ton makonida muflon suyaklar ko'plab topilgan. Teshiktoshga nisbatan esa bu yerdan bug'u, ayiq ancha kam. Bu yerdan Teshiktoshda uchramaydigan Sibir kiyigi va cho'l toshbaqasi suyaklari ham mavjud. Og'zichikdan topilgan hayvon suyaklarining 14 tasi Omonqo'ton va 6 tasi Teshiktoshlardagi hayvon suyaklari bilan bir xil. Umumiy suyaklarning ko'pchiligini cho'l toshbaqasi suyaklari tashkil etadi. Bundan tashqari yovvoyi qo'chqor va echkilar, ot, eshak, bug'i xatto jundor nosorog suyaklari ham topilgan.

Obirahmat g'oridan topilgan suyaklarning yarmidan ko'prog'ini yovvoyi echki tashkil etadi. Bug'u, qo'y, yovvoyi cho'chqa suyaklari ham mavjud. Obirahmat, Omonqo'ton va Teshiktosh makonlari topilmalarida unchalik farq katta emas. Bular mustye davrining O'rta tog' variantiga mansub bo'lib, asosan tog' echkisiga ov qilishgan. G'or-makonlar ichida Qo'tirbuloq topilmalari boshqalardan ancha farq qiladi. Undagi topilgan suyaklarning deyarli yarmi otniki, keyingi o'rinda filniki. Tur (yovvoyi buqa), buxoro bug'usi suyaklari esa kamchilikni tashkil etadi. Umuman, O'rta Osiyoning mustye davri makonlari ma'lum hudud tabiiy sharoitlariga mos ixtisoslashgan ovchilikning mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda.

So'nggi paleolit davri bir necha million yil davom etgan Qadimgi tosh asrining so'nggi bosqichi bo'lib, o'zidan oldingi mustye davriga nisbatan yaxshi o'rganilmagan, ochilgan joy-makonlar soni ham kamchilikni tashkil etadi. O'rta Osiyoda yuqori pleystotsenning ikkinchi yarmida noqulay ob-havo sharoitiga moslashgan turar joylar bo'lganligidan dalolat beruvchi moddiy topilmalar uchramaydi. Bu davr kishilari faqat g'orlardagina yashamasdan, vodiylar va daryo bo'ylariga ham tushib kelganlar va shu yerlarda istiqomat qilganlar. Shuning uchun ularning makonlari tabiat injiqliklari natijasida nobud bo'lgan va keyinchalik yerlarning o'zlashtirilishi tufayli madaniy qatlamlar yo'q bo'lib, hozirgi paytda saqlanib qolmagan. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davri mil. av. 34ming yillikdan 10 ming yillik (mil. av. 8300 yil atrofi)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. So'nggi paleolit davriga oid kam sonli makonlar davrlarga bo'lish imkoniyatini qiyinlashtirsada, ularning topilmalarini u yoki bu darajada aniqlash mumkin.

V. A. Ranov tomonidan so'nggi paleolit davrining quyidagi to'rtta varianti ajratib ko'rsatiladi: Qorakamar, Xo'jag'or, Samarqand, Ko'lbuloq. Dastlabki ikkitasi bitta taraqqiyot bosqichida bo'lib, ko'rinishdan ularni birlashtirish mumkin.

Geomorfologik va stratigrafik tadqiqotlar shuni kursatadiki Pliotsena va neopleystotsenning ilk bosqichida yer sharida iqlim sovushi va aridizatsiya jarayoni kuzatiladi. Dunyo okeanlari sathi 150 metrga pasayib ketadi. Chuqurligi 100 metr va kenligi 28 metr bo'lgan Bab-el-Mandeb ko'rfazi quriydi va Afrika qi'asini sharqiy Arabiston xududi bilan bog'lab turuvchi quruqlik yo'li vujudga keladi. Yaqin Sharq xududidan ajdodlarimizning Kavkazorti va Yevropa xududiga kirib

borishini kuzatishimiz mumkin. Bunga misol sifatida biz gruziya xududida joylashgan Dmanisi topilmasini keltirib o'tishimiz mumkin.

XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmida insoniyat beshigi sifatida Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo xududi keltiradi. Bunga dalil sifatida esa 1981 yilda gollandiyalik olim E. Dyubua tomondan Indoneziyaning Yava orolida pitekantropa (*Noto erectus*) tana suyaklarining topilishi sabab bo'ladi. O'rta Sharq atamasi (ingliz tilida Middle East) Britaniyaning Hindiston ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 1850 yilda qo'llanilgan. Biroq 1902 yilda amerikalik xarbiy dengiz nazariyotchisi Alfred Tayer Mexen tomonidan Arabiston yarim oroli va Hindiston oralig'idagi xududlarni ifodalashi natijasida bu atama tarix fanida keng qo'llanila boshlandi. Ikkinchi jaxon urushiga qadar Turkiya va O'rta yer dengizining sharqiy qirg'oqlari oralig'idagi hududlar Yaqin Sharq deb atalgan bo'lsa, Mesopotamiyadan toki Birmagacha bo'lgan hududlar O'rta Sharq deb nomlangan⁵.

Rus mualliflari adabiyotlarida esa Yaqin Sharq atamasi qo'llanilgan bo'lib, bu atama asosida Eron, Pokiston va Afg'oniston davlatlari hududlari ham qo'shib ifodalanadi. Yaqin va O'rta Sharq davlatlariga Afg'oniston, Baxrayn, Misr, Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Gruzija, Iroq, Turkiya, Ummon, Quvayt, Qatar, Isroil, Iordaniya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yaqin va O'rta Sharq hududining paleolit davri yodgorliklarining o'rganilish asosan XX asrda amalga oshirilgan. 1929-1936 yillarda ingliz tadqiqotchisi D. Garrod Falastinning Karmel tog' tizmasida paleolit davri yodgorliklarini o'rganishni boshlab beradi. Sharqiy O'rta yer dengizi xavzasida A.Rust, R.Nevill, G. Vatanabelar tomonidan o'kazilgan tadqiqotlar natijasida ochiq turdagi va g'orsimon hamda paleolit davri qabrlari topilgan bo'lib. Bu o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tosh davri madaniyatlarining tabiat bilan uyg'unlikda taraqqiy etish dinamikasini kuzatishimiz mumkin.

Tadqiqotchilar I. Korobkov, J. Skinner, J.Perro, L.Koplendlar tomonidan Sharqiy O'rta yer dengizi xavzasi tosh davri qurollari tiologiyasi va klassifikatsiyasi hamda madaniyatlarning o'zaro aloqalari ishlab chiqilgan. Paleolit davrida Yaqin va O'rta Sharq hududi keng miqyosda muzlash davrini o'z boshidan kechirmagan. Muzlash jarayoni Yaqin va O'rta Sharq hududining shimoliy rayonlarida kechgan bo'lsa, janubiy rayonlarda esa plyuvial ya'ni yog'ingarchilikdan iborat iqlim hukm surgan. 2 million yil burun Yaqin va O'rta Sharq hududida issiq iqlimni xush ko'ruvchi villafrank fauna va florasini mavjud bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharq hududi relyefi esa unchlik katta bo'lgan tog'lar va tekstliklardan iborat bo'lgan. Qirg'oq bo'yi landshafti esa savannaga o'xshagan. Yaqin va O'rta Sharq hududida bundan 1.5 million yil burun tektonik xarakterli sodir bo'ladi va tog'lar ko'tariladi. Tektonik xarakterli butun muzlik davrida davom etadi. Erroziyalar natijasida tabiiy g'orlar paydo bo'ladi. Bu esa ibtidoiy ajdodlarimizning jon saqlashi uchun tabiiy panoxgoh vazifasini bajargan. Umuman olganda plyuvial davri namgarchilik yuqori darajada bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Xarorat esa hozirgiga nisbatan 4-5 gradus darajada

⁵ Suzanne Richard. *Near Eastern Archaeology: A Reader*. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003

farq qilgan. Buning natijasida esa bundan 700-600 ming yil avval Falastinda iliq iqlimni xush ko'ruvchi villafrank flora va faunasi jon saqlab qolgan. Aynan bunday iqlimni xush ko'ruvchi xayvonot dunyosining mavjudligi ibtidoiy ajdodlarimizning yashab qolishi uchun zamin yaratgan. Yaqin va O'rta Sharq hududida hukmronlik qilgan villafrank faunasi bu hududda dastlabki ibtidoiy ajdadlarimizning paydo bo'lishiga olib kelgan⁶.

Ibtidoiy ajdodlarimizga oid daastlabki topilmalar Suriya va Livan hududlaridan topilgan bo'lib ulaning davriy sanasi Olduvev davri bilan belgilanadi. Yaqin va O'rta Sharq hududiinng eng muhim yodgorliklaridan biri Oronta va Iordan daryosi oralig'idagi xududlarda joylashgan Ubeydiya yodgorligi xisoblandi. Uning davri sanasi Ashel davri bilan belgilanadi. 1983-2000 yillar davomida Al-Guza, Sharxabil, Al-Amir, Djidfir, Algabr VI g'or makonlarida qayd etilgan. Geomorfologik va stratigrafik tadqiqotlar shuni kursatadiki Pliotsena va neopleystotsenning ilk bosqichida yer sharida iqlim sovushi va aridizatsiya jarayoni kuzatiladi. Dunyo okeanlari sathi 150 metrga pasayib ketadi. Chuqurligi 100 metr va kenligi 28 metr bo'lgan Bab-el-Mandeb ko'rfazi quriydi va Afrika qi'asini sharqiy Arabiston xududi bilan bog'lab turuvchi quruqlik yo'li vujudga keladi. Yaqin Sharq xududidan ajdodlarimizning Kavkazorti va Yevropa xududiga kirib borishini kuzatishimiz mumkin. Bugunki kunda Yaqin va O'rta Sharq xududida qadimgi tosh davriga oid bir qancha yodgorliklar o'rganilgan. El-Masluk yodgorligi 1969 yilda Kolumbiya universiteti arxeologlari tomonidan Livanning shimoliy qismida topib o'rganilgan⁷.

Isroil xududida joylashgan dastlabki ibtidoiy odamlar neandertal hisoblanadi. Isroil xududida Homo Sapienslarning paydo bo'lishi bundan 75 ming avval sodir bo'lgan. Isroil xududida Homo Sapienslar neandertallar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganlar. Ubaydiya yodgorligi bundan 1,4 mln yil avval ibtidoiy ajdodlarimizning Afrikadan Yevroosiyoga migratsiyasi jarayoni izlarini kuzatishimiz mumkin⁸.

Bundan 20 ming avval ushbu xududda mavsumiy turar joylar va g'ormakonlar bo'lgan. Ubeydiya yodgorligidan ilk ashel tipidagi tosh qurollar topilgan. Bundan tashqari davriy sanasi 1 400000—250000 ming yilliklarin tashkil etuvchi paleolit davri yodgorliklari ham mavjud bo'lib, ulardan so'nggi ashel tipidagi tosh qurollar qayd etilgan. Iakov qizlari mosti va Tabun g'or makonlari so'nggi ashel tipidagi tosh qurollar qayd etilgan yodgorliklar hisoblanadi. Ubaydiya, xududidan ibtidoiy ajdodlarimizga oid tish namunalari, Iakov qizlari mosti suyak namunalari va Zuttiye g'or makonidan esa ibtidoiy ajdodimizning bosh chanog'i (Galiley odami) namunalari topilgan.

Falastin xududidagi mustye davri aniqrog'i neandartellarga oid yodgorliklarga biz Kebara, Amud va Tabun yodgorliklarini keltirib o'tishimiz mumkin. Homo Sapienslarga oid yodgorliklar esa Djebel-Kafze va Sxul g'or

⁶ Miriam T. Stark. *Archaeology of Asia*. Blackwell Publishing Ltd. 2006

⁷ Robert J. Muckle. *Introducing Archaeology: Second Edition*. University of Toronto Press. 2014

⁸ Miriam T. Stark. *Archaeology of Asia*. Blackwell Publishing Ltd. 2006

makonlari hisoblanadi. Falastin xududida yuqori paleolit davri 48000-20000 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Tabun g'ori paleolit davri arxeologik yodgorligi hisoblanib Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan. Tabun g'or makoni bundan 500-40 ming yil avval itidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Tabun g'orining yuqori qatlamlari mustye davriga oid bo'lib, yuqori qatlamlardan levallua texnikasi asosida tayyorlangan tosh qurollar topilgan⁹.

1962-1972 yillarda Artur Yelenek tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida so'nggi ashel va yabrud madaniyatlariga oid bo'lgan 1900 ta butun va siniq bo'laklardan iborat bo'lgan tosh qurollar namunalari topilgan. Bundan tashqari Tabun g'or makonidan davriy sanasi 120 ming yilni tashkil etuvchi ayol jinsiga mansub neandertal odamining tana suyaklari topilgan. Bu topilma Isroil xududidagi eng qadimgi ibtidoiy odamlar tana suyaklari hisoblanadi.

Kebara g'or makoni arxeologik yodgorlik xisoblanadigan Kechariya yodgorligidan 10 km masofa uzoqlikda Karmel tog'ining g'arbiy yon bag'rida Vadi Kebara nomli makon xududida dengiz sathidan 60-65 metr balandlikda joylashgan. G'or makon bundan 60-48 ming yil avval ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Ushbu yodgorlik Bar Yosef tomonidan gominidlar oilasiga mansub bo'lgan eng qadimgi ibtidoiy ajdodlarmizning tana suyaklari topilganligi bilan mashxurdir¹⁰. Ushbu yodgorlik dastlab 1930 yilda Doroti Garrod va Fransis Tyurvil Petr tomonidan o'rganilganligiga qaramasdan eng muhim kashfiyotlar 1982 yilda amalga oshirilgan. 1982 yilda Kebara g'or makonidan neandertal odamining butunligicha saklangan tana suyaklari topilgan. Bu topilmalar arxeologlar orasida "Moshe" deb nomlangan bo'lib, uning yoshi 60 ming yilni tashkil etadi.

Sxul yodgorligi Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan bo'lib, dastlab 1982 yilda Doroti Garrod tomonidan o'rganilgan. Ushbu yodgorlik bir vaqtning o'zida ham neandertal ham zamonaviy tipidagi odam Homo Sapienslar tomonidan o'zlashtirilgan. Sxul yodgorligining davriy sanasi 200 ming -45 ming yilni tashkil etadi. Bu davriy sana arxeologik davrlardan xisoblangan mustye ya'ni o'rta tosh davriga to'g'ri keladi. Sxul yodgorligidan 14 ta ibtidoiy ajdodlarimizning tana suyaklari topilgan. Ushbu topilmalarinng aksariyat qismi 1932 yilda Teodor Mak Koun tomonidan aniqlangan.

Kafzex g'or makoni ham Isroilda joylashgan bo'lib, ilk bora 1934 yilda R. Nevil va M. Stekelis tomonidan o'rganilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida levallua tipidagi tosh qurollar bilan birga 5 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari qayd etilgan. Yodgorlikda tadqiqot ishlari 1965, 1967 va 1971 yillarda ham davom ettirilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 25 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan qadimgi odamdaorning tana suyaklari taxlili ularning rivojlangan yaqin sharq gominidlari guruhiga oidligini ko'rsatmoqda. Ba'zi topimalar esa gibrid ya'ni neandertal va Homo Sapienslar chatishmasidan vujudga kelgan eng qadimgi odamlar ekanligini ko'rsatmoqda.

⁹ Suzanne Richard. *Near Eastern Archaeology: A Reader*. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003

¹⁰ Miriam T. Stark. *Archaeology of Asia*. Blackwell Publishing Ltd. 2006

Mustye qatlamlariga oid bo'lgan tosh qurollarning termolyuminessent taxlili 92-97 ming yilliklarni ko'rsatsa, elektron paramagnit rasonans taxlil natijalari ushbu yodgorlikning davriy sanasini 130-90 ming yil deb ko'rsatmoqda. Bundan tashqari Isroil xududida mikroindustriyali bir nechta qadimgi joy makonlari ham aniqlangan. Bularga biz Yevron, Bizat Ruxama joy makonlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yevron joy makonining davriy sanasi 1.5-2.4 million yilni tashkil etsa, Bizat Ruxama joymakonining davriy sanasi 1 million yilni tashkil etadi. Homo Sapiens tana suyaklari qayd etilgan yodgorliklardan biri bu Kesem yodgorligi hisoblanadi. Tel-Aviv universiteti arxeolog olimlarining fikriga ko'ra Kesem yodgorligining davriy sanasi 382-207 ming yillarni tashkil etadi.

Yer yuzi ob-xavosi ilik bulganda odamlar manzillarda yangi anxor buyidagi tepaliklarda joylashgan ob-xavoning keskin uzgarishi ilk paleolitning sunggi davrlarida yer yuzi buyuk muzlik bilan koplenganda odamlar yangi sharoitga moslashishga majbur buladigan.

Urta paleolit davrida millotdan avval 100-40 ming yilliklar davrida yashagan odamlarni ptekantroplar deb atalgan. Ularni suyak koldiklari dastlab Germaniyadan Neandertal vodiysidan topilgani uchun shu joy nomi bilan atalgan.

Neandertallar yashash uchun gorlarni uzlashtiradilar. Nayza uchlarini yasaydilar, o'zlariga xayvon terisidan kiyim kiladilar, olovdan foydlanadilar. Mamont va boshka yirik muzlik davri xayvonlarini ovlaydilar.

Neandertallar xozirgi kiyofadagi odamlarga utish boskichidir. Kromonon Fransiya goridan topilgan odam suyaklari uning sunggi paleolit millioddan avvalgi 40-12 ming yilliklar davrida yashagani va jismonan xozirgi kiyofadagi odamlardan fark kilganligi ma'lum.

Insoniyatni rivojlanishida neandertal odamning o'zi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ta'kidlab o'tganimizdek, 1956 yilda Germaniyaning Dyussel Dorf shaxri yakinidagi neandertal goridagi yer kazish ishlari vaktida tasodifan bosh suyak kopkogi va odam skeletining bir necha suyaklari topilib, shu yer nomi bilan ataladi. Bu skelet barcha kazilma odamlarining eng avvalgisi bulib, o'z vaqtida olimlar orasida kuchli baxslarga sabab bo'ldi.

O'sha vaqtdagi mashhur nemis olimi, Orientologi Verxov skeletning topilgan bo'laklari iptidoiy odamga tegishli bo'lmay balki hozirgi zamon odamiga tegishli deb e'lon kildi va suyaklarning tuzilish xususiyatlarini esa alkogolizm va zaxm kasalligi okibatida deb tushuntirdi. Lekin bu topilmalardan keyin odamning fakat aloxida kismigina emas, balki butun skeletlari, shuningdek kup marta tosh kurollari, kul koldiklari va shular bilan bir katorda kishilik faoliyati bilan boglik bir kancha topilmalar birin-ketin topilaverdi¹¹.

Hozir neandertal deb atalgan bu kazilma odam yuqorida aytib o'tilgan o'tmishdagi odamlar singari yagona topilma emas: hozirgi vaqtda Yevropaning kup yerlarida, Janubiy Afrikada "Rodeziya odami" va "Afrikantrop" Falastinda Yava Orolida ptekantroplar topilgan joyda: Yavantrop va boshka yerlarda xam ularning

¹¹ Alice Roberts *Evolution the human story*. London and New York. 2011.

yashaganligi aniklandi. Krimda Sinferopol shaxridan 25 km sharkrokda Kiyikkoba goridan 1924 yilda G.A.Bonch – Osmolovskiy tomonidan topilgan¹².

O‘zbekistonda topilgan teshik tosh goridan 1938 yilda O.P. Okladnikov tomonidan Muste tipi deb ataladigan juda sodda tosh kurollar bilan 8-10 yashar bolaning suyagi topilgan. (keyinchalik uning shogirdi Alekseyev tomonidan bu suyak ayol kishiga tegishli ekanligi aniklangan).

Shuni kursatib utish mumkinki, g‘ordagi neandertallarning alohida topilgan indevidlari yuqorida ko‘rganimizdek, juda keng maydonga tarkalgan bo‘lib, ular o‘zaro bir-biridan fraq qilsa ham bularning hammasi bir odamning turidir.

Qadimgi kishilarning yuqorida kursatib utilgan vakillari odamsimon maymunlarga xos bo‘lgan belgilardan asta-sekin uzoqlashib, xozirgi zamon odami tipiga yakinlashgan: tik yurish takomillashgan, ko‘z kosasi usti kavarik, iyak rivojlangan, peshona tekislangan va boshkalar, lekin yeng ko‘zga tashlanadigan narsa miyaning rivojlanishi natijasida bosh suyak hajmining kattalashishi bo‘ldi. Xozirgi zamon yirik adashsimonlarning, kazilma odamlar va hozirgi zamon odamlari kalla suyaklarining katta kichikligini bilish uchun mavjud ma’lumotlarni solishtirilsa, kuyidagilar ma’lum bo‘ldi¹³.

Gorilla 600 dan to 685 sm³ gacha. Pitekantrop 800 dan to 900 sm³

Sinantrop 1000 dan to 110 sm³

Neandertal 110 dan to 1600 sm³ Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm³.

Sinatrop va Neandertal odamlarning qoldiqlari bilan birga ularning mehnat faoliyatlarining izlari, xususan, juda sodda tosh kurollar topilgan. Arxeologik kazilmalar ichidan topilgan iptidoiy jamiyat davriga mansub bo‘lgan moddiy madaniyat yodgorliklarining o‘zi anchagina oldin bu taxminan kazilma odam topilgan davrlar ya’ni, 20 asr o‘rtalaridan boshlangan va tinmay o‘zgarib borayotgan arxeologik moddiy madaniyatning eng kadimgi tarakkiyoti xakida yetarli darajada anik ma’lumotlar beradi¹³.

Yer yuzining kattagina kismiga tarkala boshlagan paleantropplar –yangi neandertallar shu xilma-xil tabiiy sharoit va ishtimoiy mexnat jarayoni natijasida asta-sekinlik bilan rivojlanishda davom etdilar.

Okibatda xozirgi jismoniy tipdagi “Yangi odam” neantrop darajasigacha yetib kelguncha katta tarixiy davrni bosib o‘tdilar. Neandertallar o‘zlarining jismoniy va akliy kobilyatlari bilan eng kadimgi va kadimgi odamlardan sifat jixatdan tubdan fark kilar edilar.

Shuning uchun xam uni “akl idrokli” odam – xomo sapiens, deb ataganlar. Ular o‘zlarining tashki kiyofasi jixatidan xozirgi zamon odamlariga juda o‘xshab

¹² Suzanne Richard. *Near Eastern Archaeology: A Reader*. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003

¹³ Alice Roberts *Evolution the human story*. London and New York. 2011.

¹³ Martin Hall and Stephen W. Silliman. *Historical archaeology*. Oxford. 2006

ketadilar. Mutaxassislarning fikricha neandertallar bundan 40-35 ming yil mukaddam sungi tosh asrining boshlarida paydo bo'lgan va dastlabki eski dunyo buylab keng tarkala boshlaganlar.

Ularning skeletlari, suyak parchalari, moddiy-madaniy koldiklari Afrika, Yevropa va Osiyoning kurgina joylaridan topilgan.

“Aql-idrokli” deb atalgan odamlar, dastlab O'rta yer, Kora, Kasbiy dengiz va unga tutash bo'lgan joylarda yashagan bo'lib, shu yerdan Markaziy Sharkiy, Janubiy-Sharkiy Osiyoga, Sharkiy-Janubiy Afrikaga, Garbiy va Janubiy Yevropaga tarkalganlar.

Neontroplar tarkalgan joylar shartli ravishda quyidagi geografik o'lkalarga bo'linadi.

1. Yevropa muzlik o'lkasi.
2. O'rta yer dengiz o'lkasi.
3. Janubiy Afrika o'lkasi.
4. Sibir-mugul o'lkasi.
5. Xind-ximolay o'lkasi.

Mazkur joylardan neandertallar yashagan juda ko'plab manzilgoxlar. Bu manzilgoxlardan esa ular koldirilgan moddiy madaniy koldiklar va usha madaniyatni yaratgan kishilarning yuksak koldiklari, butun-butun skeletlari kuplab topildi va topilmokda.

Fransiyada kromanonda, Komb-kapelg, Orinyak-Shanselyat, Italiyadagi “Dolalar gori”, Grimalgdi, Kavilgon, Barmagrans, Bausso, Dextoro gorlaridan Angliyadagi paveliant goridan neontroplarning skeletlari va ularning moddiy-madaniyatiga oid buyumlar kuplab topilgan.

Paleontologik materiallar kadimiy /Afrikada xam neandertallar xam yashaganidan darak beradi. Neandertallarning manzilgoxlari, mexnat kurollari va skeletlari Afrikaning Afalubu-Rumel, Maktax-Al-Arbiy, Nauru Assilyayear, Elentet, Boskon, Siyaikoma, Elizabet, Skledergat, Fishxuk, Keniya va Tanchaninaning kup joylaridan topilgan odam suyagi xam neandertallarga mansubdir.

Ishlab chikarish kuchlari o'sa bordi. Kuchlarning rivojlana borishi natijasida ijtimoiy xayotda xam katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar ibtidoiy jamoa tizimining rivojlanishida xususan mexnat kurollari takomillashuvida kuzga tashlandi.

Kadimgi paleolit davrida kurollarning xili juda oz bulib, ular juda xam sodda ishlagan edi.

Lekin kadimgi paleolitning oxiri va sungi tosh asrining boshlariga kelganda manzara butunlay uzgarib, toshdan tarashlagich, kirgich teshgich va nayza uchlari, yer kavlagich kurollari vujudga keldi. Undan tashkari suyakdan va yogochdan bigiz, igna, suyil, nayza uchlari va boshka murakkabrok asboblari uchun moslamalar yasashga erishildi. Balik ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tipli garrup kashf kilishi xam ana shu davrga mansubdir.

Mexnat va ov kurollarining mukammalashuvi okibatida ovchilik xo‘jaligi va termachilik xam rivojlana bordi¹⁴.

1891-1894 yillarda Gollandiyalik olim, vrats E. Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orollaridan ibtidoiy ajdodlarimizning suyak qoldiqlari topib o‘rganiladi va bu topilma fanga pitekanthrop nomi ostida kiritiladi. 1936 yilda xuddi shu Yava orolidan pitekanthrop bolasining tana suyaklari qoldiqlari topib o‘rganiladi. Pitekanthrop tana suyaklariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, u ikki oyoqlab yurgan va miya suyagining xajmi 850950 kub smni tashkil etgan. Pitekanthrop yashagan tabiiy muhitga e‘tibor qaratsak, u o‘rmonlardan iborat bo‘lgan dengiz sathidan 600-1200 metr balandlikda joylashgan hududda yashagan. Yava orolida o‘tkazilgan qazishmalar natijasida Pitekanthrop bilan birga qadimgi hayvonlarning suyaklari ham topib o‘rganilgan va olib borilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, pitekanthrop hamda bu qadimgi hayvonlar Yava orolida sodir bo‘lgan vulqon otilishi natijasida qirilib ketishgan. Ibtidoiy ajdodlarimiz insoniyatning eng qadimgi davri paleolit davridan boshlab toshlardan ov va mehnat qurollarini yasashni o‘rganishgan. Ilk tosh qurollardan biri turi G‘arbiy Panjob (zamonaviy Pokiston hududi) Soan daryosidan o‘zlaridan topilgan bo‘lib, ular fanga ilk soan tosh qurollari nomi bilan kiritilgan. Shuningdek toshdan ishlangan qurollar Pekin (Xitoy), Keniya, Marokash, Uganda, Tangantika hudularidan ham topilgan¹⁵¹⁶.

Ilk paleolitda madaniy muhitning mavjudligi alohida joylar bilangina chegaralansa so‘nggi paleolitda esa madaniyat tizim sifatida shakllanadi. So‘nggi paleolitning boshlari gominid evolyusiyasi yakunlanib zamonaviy “aqli odam” turi paydo paydo bo‘ladi. So‘nggi paleolitda turlituman tosh va boshqa qurollar notekis tarzda ko‘payishi natijasida tarkibiy qurollar-tasma, uchlik, shuningdek, to‘qimachilik paydo bo‘ladi. Nixoyat, dastlabki tartibli ijtimoiy tashkilot - urug‘ tashkil topadi. Bu inqilobning mahsuli misollarining asosiy antropologik, ruhiy fiziologik, ruhiy ijtimoiy va ma‘naviy birligi bo‘lib, insonlar uyushmasining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, til, maishiy rivojlanishining tafovutlarga qaramasdan tarixda saqlanib qoldi¹⁷.

Ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo‘lsada, biroq yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to‘plaganlar. Natijada yangi tushuncha va tasavurlar paydo bo‘lib, tafakkur va nutq rivojlana bordi. Bu esa jamiyat ma‘naviy rivojlanishini tezlashtirdi. O‘zlashtiruvchi xo‘jalikda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tilishi va tajribaning to‘planishi natijasida yuzaga keldi.

Dastlab ibtidoiy odamlar oziq-ovqat qidirib o‘zi yashayotgan muhitni yahshiroq o‘rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimini oshirgan. Tabitdagi mavjud iste‘mol qilishga yaroqli o‘simlik va mevalarni qidirib topishi,

¹⁴ A. Robers. Evolution: The Human story. New York. 2011.

¹⁵ Suzanne Richard. Near Eastern Archaeology: A Reader. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003

¹⁶ Robert J. Muckle. Introducing Archaeology: Second Edition. University of Toronto Press. 2014

kuzatishi natijasida botanika bilimlari to'plagan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe'li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologiya bilimi shakllana boshladi. Bu jarayonlarni o'rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Kasallikni davolash uchun o'sha zamonning o'ziga xos sodda tabobati bo'lib, davolashda o'simliklar, mevalar, hayvonlar, mineral jismlardan foydalanganlar. Shuningdek, silash, uqalash usuli bilan ba'zi kasalliklarni davolaganlar va folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullaridan ham foydalanganlar¹⁷.

Antropoidlarning keyingi taraqqiy etishi shu narsaga olib kelganki, ular orqa oyoqlaridan harakat qila boshlaydi. Keyinchalik tosh va daraxt shoxlaridan o'ziga qurollar yasay boshlaydi. Uchinchi gurux olimlar esa insoniyat eng yaqin ajdod sifatida avstrolopitekarni keltirib o'tishadi. Avstrolopiteklarga tegishli dastlabki topilma 1924 yilda JAR xududida R. Dart tomonidan topilgan. Bundan tashqari avstralopiteklarga oid topilmalar sharqiy Afrika; Tanzaniya, Keniya, Efiopiya xududlaridan ham qayd etilgan. 1935-1961 yillar oralig'ida avstralopiteklarga oid 30 dan ortiq topilmalar qayd etilgan. Ularning miya suyagining hajmi 600-700 kub smni tashkil etgan, ular orqa oyoqlarida harakat qilgan, go'sht istemol qilganlar. Aynan ularning go'sht istemol qilishi ularda boshqa odamsimon maymunlarga nisbatan miyani kerakli ozuqalar bilan ta'minlash va keyinchalik miya hajmining o'sishiga olib kelgan. Hozirgi kunda ko'plab avstrolopiteklarga oid topilmalar qayd etilgan bo'lib, ularning aniq davri ham o'rnatilgan. Bundan 1.5 mln yil avval Zinjantrop yashgan. (Zinj bu Sharqiy Afrikaning qadimgi arabcha nomi). Unga tegishli dastlabki topilma Tanzaniyaning Olduvay darasidagi ilk to'rtlamchi davr qatlamlarida qayd etilgan. 1960 yilda esa ingliz paleontologi L. Liki aynan shu yerdan Xomo Xabilisga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan. Uning miya suyagining hajmi 630-680 kub smni tashkil etgan. Umurtqasi va tishlarining tuzilishiga ko'ra, u odamzodga yaqin bo'lgan. U zinjantropga nisbatan avvalroq ya'ni bundan 1 mln 750 ming yil burun yashagan. Aynan Xomo Xabilis dastlab tosh qurollar yasashni ixtiro etgan. Albatta, bu xolat odamzod uchun xos hisoblanadi. XX asrning 60-yillarida shunday bir ixtiro amalga oshirildiki, bu esa o'z navbatida evolyusion nazariyaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Aniqlandiki yerdagi barcha tirik jonlar, ya'ni bakteriyadan tortib toki insongacha bitta umumiy genetik kodga ega. Yerdagi hayotning paydo bo'lishi va taraqqiy etishini biz Darvin ta'limoti asosida talqin etadigan bo'lsak, u holda bir organizmning genakodi ikkinchisidan farq qilardi. Shunda ybo'lib chiqayaptiki, inson bitta yagona onadan kelib chiqqan. Shunday bir savol tug'iladi, yerdagi hayot o'ziga sayyora probirkasida vujudga kelganmi?.

XIX asr oxirida olimlar tomonidan avstrolopiteklarga nisbatan rivojlangan ibtidoiy odamlar qoldiqlarini topishgan muvaffaq bo'lishdi. 1891-1894 yillarda Gollandiyalik olim, vrats E. Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orollaridan ibtidoiy ajdodlarimizning suyak qoldiqlari topib o'rganiladi va bu topilma fanga

¹⁷ Robert J. Muckle. *Introducing Archaeology: Second Edition*. University of Toronto Press. 2014

pitekantrop nomi ostida kiritiladi. 1936 yilda xuddi shu Yava orolidan pitekantrop bolasining tana suyaklari qoldiqlari topib o'rganiladi. Pitekantrop tana suyaklariga e'tibor beradigan bo'lsak, u ikki oyoqlab yurgan va miya suyagining xajmi 850950 kub smni tashkil etgan. Pitekantrop yashagan tabiiy muhitga e'tibor qaratsak, u o'rmonlardan iborat bo'lgan dengiz sathidan 600-1200 metr balandlikda joylashgan hududda yashagan. Yava orolida o'tkazilgan qazishmalar natijasida Pitekantrop bilan birga qadimgi hayvonlarning suyaklari ham topib o'rganilgan va olib borilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, pitekantrop hamda bu qadimgi hayvonlar Yava orolida sodir bo'lgan vulqon otilishi natijasida qirilib ketishgan. Ibtidoiy ajdodlarimiz insoniyatning eng qadimgi davri paleolit davridan boshlab toshlardan ov va mehnat qurollarini yasashni o'rganishgan. Ilk tosh qurollardan biri turi G'arbiy Panjob (zamonaviy Pokiston hududi) Soan daryosidan o'znlari bilan topilgan bo'lib, ular fanga ilk soan tosh qurollari nomi bilan kiritilgan. Shuningdek toshdan ishlangan qurollar Pekin (Xitoy), Keniya, Marokash, Uganda, Tangantika hudularidan ham topilgan.

Ibtidoiy odamlar tabiatni, iqlimni sharoitdan kelib chiqib kuzatishi asosida ob-havoni oldindan aytib berish qobiliyati paydo bo'ladi. Tarbiya ham mehnat va turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odat va udumlar asosiy ahamiyat kasb etgan.

Ibtidoiy san'at ham odamning mehnat faoliyati bilan uyg'un holda vujudga kelgan.

Ibtidoiy sanoat xilma xil bo'lib, bir necha turlarga bo'linadi:

1) Suyak, tosh parchasi, shoh, qulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va har xil narsalarning tasvirlari.

2) g'or devorlarga har xil ranglar bilan ishlangan hayvon, odam va buyumlar tasviri. Ularda ov, mehnat, jang va boshqa manzaralar tasvirlangan. Bunday tasvirlar Turon, Sahroi Kabr, Markaziy Osiyo, g'arbiy Yevropada ko'plab uchraydi.

3) Qoya toshlarga o'yib, chizib, ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlarda hayvon, buyum, qurollar va ibtidoiy kishilarning kun dalik mehnati bilan bog'liq manzaralar o'rin olgan. Qoya tosh tasvirlari Osiyo, Afrika va Yevropada ko'p uchraydi.

Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar:

1. Zamonaviy odam evolyusiyasi muammosi nimadan iborat?
2. Olduvay madaniyati paleolitning qaysi bosqichiga oid?
3. Inson ajdodlari vatani xaqida qaysi ilmiy nazariyalarni bilasiz?
4. Gominiylar evolyusiyasi xaqida qanday nazariyalar mavjud?
5. Paleolit davri migratsiyalari xaqida nimalarni bilasiz?
6. Afrikada gominiylar qaysi davrda paydo bo'lgan?
7. Afrika qita'sidagi paleolit va mezolit davri arxeologik topilmalarni ta'riflab bering?

8. Afrika va Yevrosiyodan topilgan antropologik topilmalarni tahlil qiling?
9. Markaziy va Janubiy Afrikadan topilgan paleantropologik topilmalar haqida nimalarni bilasiz?
10. Yevropa paleolit va mezolit davri arxeologik topilmalar xususiyatlarni ochib bering?

Adabiyotlar ruyxati

1. Robers. Evolution: The Human story. New York. 2011.
2. Denbow J. The Archaeology and Ethnography of Central Africa Published: Cambridge University Press. 2013
3. Alice Roberts Evolution the human story. London and New York. 2011.
4. Suzanne Richard. Near Eastern Archaeology: A Reader. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003

2-мавзу Палеолит

- 2.1. Палеолит даврининг умумий таснифи. Хронология масалалари.
- 2.2. Палеолит даври археологиясининг долзарб муаммолари.

Tayanch iboralar: Misr, Xindistonning shimoli, Sharqiy Afrika, Antropoidlar, Udabnopitek, R. Dart, Sharqiy Gruzuya, Yevroosiyo qit'asi, Tanzaniya, Olduvay, Al-Amir, Djidfir, Al-Gabr VI g'or makonlari, Indoneziyaning Yava oroli. O'rta Sharq, Alfred Tayer Mexen, Yaqin Sharq, Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Ummon, Quvayt, Qatar, Isroil, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Paleolit, Ubeydiya, Gesher Benet Yaakov, Xomo Ergaster, Xomo Erektus, I. Korobkov, J. Skinner, J. Perro, L. Koplend.

Dastlabki ajdodlarimizning Afrika xududidan chiqib Yevroosiyo xududiga migratsiya qilish jarayoni juda sekin kechgan. Biroq hozirda Arabiston yarim oroli va Yaqin Sharq xududida ibtidoiy ajdodlarimizning dastlabki migratsiyasi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar aniqlanmagan. Yaqin Sharq xududida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli bo'lgan dastlabki paleolit davri yodgorliklari Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning davriy sanasi 1,4 va 0,9 million yillar bilan belgilangan. Paleolit davrida Yaqin va O'rta Sharq hududi keng miqyosda muzlash davrini o'z boshidan kechirmagan. Yaqin Sharq xududida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli bo'lgan dastlabki paleolit davri yodgorliklari Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning davriy sanasi 1,4 va 0,9 million yillar bilan belgilangan. Yaqin Sharq xududidagi Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari ibtidoiy ajdodlarimizning Afrika xududidan Yevroosiyoga ikkinchi migratsiyasi davriga tegishli yodgorliklar hisoblanadi. Bu davrda Yevroosiyoda ashel tosh industriyasi tarqala boshlagan jarayonni kuzatishimiz mumkin. Ubeydiya yodgorligining quyi

qatlamlaridan ikki tomonlama ishlov berilgan tosh qurollar namunalari kuzatishimiz mumkin. Ashel davriga qadar mavjud bo'lgan qatlamlar

Isroil xududida joylashgan dastlabki ibtidoiy odamlar neandertal hisoblanadi. Isroil xududida Homo Sapienslarning paydo bo'lishi bundan 75 ming avval sodir bo'lgan. Isroil xududida Homo Sapienslar neandertallar

bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganlar. Ubaydiya yodgorligi bundan 1,4 mln yil avval ibtidoiy ajdodlarimizning Afrikadan Yevroosiyoga migratsiyasi jarayoni izlarini kuzatishimiz mumkin. Bundan 20 ming avval ushbu xududda mavsumiy turar joylar va g'or-makonlar bo'lgan. Ubeydiya yodgorligidan ilk ashel tipidagi tosh qurollar topilgan. Bundan tashqari davriy sanasi 1400000—250000 ming yilliklarin tashkil etuvchi paleolit davri yodgorliklari ham mavjud bo'lib, ulardan so'nggi ashel tipidagi tosh

qurollar qayd etilgan. Iakov qizlari mosti va Tabun g'or makonlari so'nggi ashel tipidagi tosh qurollar qayd etilgan yodgorliklar hisoblanadi.

Ubaydiya, xududidan ibtidoiy ajdodlarimizga oid tish namunalari, Iakov qizlari mosti suyak namunalari va Zuttiye g'or makonidan esa ibtidoiy ajdodimizning bosh chanog'i (Galiley odami) namunalari topilgan. Falastin xududidagi mustye davri aniqrog'i neandartellarga oid yodgorliklarga biz Kebara, Amud va Tabun yodgorliklarini keltirib o'tishimiz mumkin. Homo

Sapienslarga oid yodgorliklar esa Djebel-Kafze va Sxul g'or makonlari hisoblanadi. Falastin xududida yuqori paleolit davri 48000-20000 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Tabun g'ori paleolit davri arxeologik yodgorligi hisoblanib Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan. Tabun g'or makoni bundan 500-40 ming yil avval itidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Tabun g'orining yuqori qatlamlari mustye davriga oid bo'lib, yuqori qatlamlardan levallua texnikasi asosida tayyorlangan tosh qurollar topilgan. 1962-1972 yillarda Artur Yelenek tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida so'nggi ashel va yabrud madaniyatlariga oid bo'lgan 1900 ta butun va siniq bo'laklardan iborat bo'lgan tosh qurollar namunalari topilgan. Bundan tashqari Tabun g'or makonidan davriy sanasi 120 ming yilni tashkil etuvchi ayol jinsiga mansub neandertal odamining tana suyaklari topilgan. Bu topilma Isroil xududidagi eng qadimgi ibtidoiy odamlar tana suyaklari hisoblanadi. Kebara g'or makoni arxeologik yodgorlik xisoblanadigan Kechariya yodgorligidan 10 km masofa uzoqlikda Karmel tog'ining g'arbiy yon bag'rida Vadi Kebara nomli makon xududida dengiz sathidan 60-65 metr balandlikda joylashgan. G'or makon bundan 60-48 ming yil avval ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Ushbu yodgorlik Bar Yosef tomonidan gominidlar oilasiga mansub bo'lgan eng qadimgi ibtidoiy ajdodlarmizning tana suyaklari topilganligi bilan

mashxurdir. Ushbu yodgorlik dastlab 1930 yilda Doroti Garrod va Fransis Tyurvil Petr tomonidan o'rganilganligiga qaramasdan eng muhim kashfiyotlar 1982 yilda amalga oshirilgan. 1982 yilda Kebara g'or makonidan neandertal odaminging butunligicha saklangan tana suyaklari topilgan. Bu topilmalar arxeologlar orasida "Moshe" deb nomlangan bo'lib, uning yoshi 60 ming yilni tashkil etadi. Sxul yodgorligi Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan bo'lib, dastlab 1982 yilda Doroti Garrod tomonidan o'rganilgan. Ushbu yodgorlik bir vaqtning o'zida ham neandertal ham zamonaviy tipidagi odam Homo Sapienslar tomonidan o'zlashtirilgan. Sxul yodgorligining davriy sanasi 200 ming -45 ming yilni tashkil etadi. Bu davriy sana arxeologik davrlardan xisoblangan mustye ya'ni o'rta tosh davriga to'g'ri keladi. Sxul yodgorligidan 14 ta ibtidoiy ajdodlarimizning tana suyaklari topilgan. Ushbu topilmalarinng aksariyat qismi 1932 yilda Teodor Mak Koun tomonidan aniqlangan. Kafzex g'or makoni ham Isroilda joylashgan bo'lib, ilk bora 1934 yilda R. Nevil va M. Stekelis tomonidan o'rganilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida levallua tipidagi tosh qurollar bilan birga 5 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari qayd etilgan. Yodgorlikda tadqiqot ishlari 1965, 1967 va 1971 yillarda ham davom ettirilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 25 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan qadimgi odamdaorning tana suyaklari taxlili ularning rivojlangan yaqin sharq gominidlari guruhiga oidligini ko'rsatmoqda. Ba'zi topimalar esa gibrud ya'ni neandertal va Homo Sapienslar chatishmasidan vujudga kelgan eng qadimgi odamlar ekanligini ko'rsatmoqda. Mustye qatlamlariga oid bo'lgan tosh qurollarning termolyuminessent taxlili 92-97 ming yilliklarni ko'rsatsa, elektron paramagnit rasonans taxlil natijalari ushbu yodgorlikning davriy sanasini 130-90 ming yil deb ko'rsatmoqda. Bundan tashqari Isroil xududida mikroindustriyali bir nechta qadimgi joy makonlari ham aniqlangan. Bularga biz Yevron, Bizat Ruxama joy makonlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yevron joy makonining davriy sanasi 1.5-2.4 million yilni tashkil etsa, Bizat Ruxama joymakonining davriy sanasi 1 million yilni tashkil etadi. Homo Sapiens tana suyaklari qayd etilgan yodgorliklardan biri bu Kesem yodgorligi hisoblanadi. Tel-Aviv universiteti arxeolog olimlarining fikriga ko'ra Kesem yodgorligining davriy sanasi 382-207 ming yillarni tashkil etadi. quyi paleolit davrining

Yevropa xududida joylashgan Klekton-

qadimgi yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bundan 550 – 475 ming yillar avval G'arbiy Yevropa hududida tarqalgan madaniyat hisoblanadi. Ushbu madaniyatga tegishli asosiy topilmalar Temza daryosi havzasidan topib o'rganilgan. Klekton kelib chiqishi Buyuk Britaniyadagi Klekton siti shahri yaqinidagi manzilgoh nomidan kelib chiqqan.

Madlen madaniyati – quyi paleolit davri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyat Fransiya, Ispaniya, Shvetsariya, Belgiya, Germaniya hududlarida keng tarqaladi. Davriy sanasi 15 – 8 ming yilliklarni tashkil etadi. Ushbu madaniyat jamoalarida suyakka ishlov berish san’ati yuqori darajada rivojlangan edi. Madlen madaniyati yodgorliklarida mikrolit tosh qurollariga o’tish bosqichi kuzatiladi. Madlen ovchilari asosan g’orlarda va teri hamda suyaklardan qurilgan turar joylarda yashashgan. XX asrlarning oxirlarida G’arbiy Yevropa olimlari tomonidan Madlen madaniyatining dabltabki bosqichi sifatida badegulsk miniajratib ko’rsatadi.

Orinyak madaniyati – quyi paleolitning ilk bosqichiga oid arxeologik m hisoblanadi. Fransiyaning yuqori Garonna deportamentidagi Orinyak g’orida o’tkazilgan tadqiqotlar orqali, ushbu madaniyatga Orinyak madaniyati nomi berilgan. XX asrning boshlarida ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Yevropa hududidan aniqlangan. Orinyak madaniyatiga oid yodgorliklar asosan Fransiya hududida keng tarqalgan. Sanasi 33000 – 19000 yillar bilan belgilanadi. Orinyak madaniyati G’arbiy va Markaziy Yevropada keng tarqalgan.

Solyutre madaniyati – quyi paleolit davrining o’rta bosqichiga oid m hisoblanadi. Ushbu madaniyatga tegishli bo’lgan yodgorliklar asosan Fransiya va shimoliy Ispaniya hududlarida keng tarqalgan. Orinyak va Perigorsk madaniyatlari o’rniga kelgan madaniyat bo’lib, o’z navbvtida u o’z o’rnini Madlen madaniyatiga bo’shatib beradi. Orinyan madaniyatining davriy sanasi miloddan avvalgi 18 – 5 ming yilliklarni o’z ichiga oladi. Ushbu madaniyat dastlab G.Mortilye tomonidan XIX asrning 60 yillarda aniqlangan va Fransiyadagi Sona va Luara departamenti hududida joylashgan Solyutre manzilgohi nomi bilan bog’liq. Markaziy Yevropa va Rossiyaning Yevropa qismida joylashgan bir qator so’ngi paleolit davri manzilgoxlari bilan Solyutre madaniyati o’rtasida bog’liqliklar aniqlangan. Shuning Salyutre madaniyati jamoalari Shimoliy Amerikaga qadar kirib borganligi va u krda Klovis madaniyatiga asos solganliklari haqida ham nuqtai nazar mavjud. Shuningdek Amerikaga dastlabki kirib kelgan ajdodlarimiz Yevropa hududidan kelishgan. Solyutre madaniyatining mahalliy madaniyati sifatida Grimaldi madaniyati hisoblanadi. Altamira yodgorligi yuqori paleolit davri yodgorligi hisoblanib, u ichidan ko’plab ibtidoiy rang tasvir namunalari aniqlangan. Ushbu yodgorlik Ispaniyada, Santanderdan 30 yillar g’arbiy tomonda joylashgan.

Lasko-g’ori o’zining kattaligi va suratlarining yaxshi saqlanib qolganligi jixatidan Fransiya hududida joylashgan paleolit davri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Dastlab ushbu yodgorlik qadimgi madlen madaniyatiga tegishli deb hisoblangan, keyinchalik esa ushbu yodgorlikning ilk solyutre madaniyatiga oid ekanligi aniqlandi. Yodgorlik Fransiyaning Dordon departamenti hududida joylashgan, ya’ni Perigyo shahridan 40 kmlar chamasi janubiy-sharqiy tarafda. Lasko yodgorligi 1940 yil 12 sentabrida to’rtta o’spirinlar tomonidan tasodifan topilgan. Ular o’zlarining topilmalari haqida o’qituvchilari Anri Breylga aytishadi. Anri Breyl tomonidan 1940 yilda yodgorlikning o’rganilishi amalga oshiriladi. Anri Breyl bir necha yil davomida Ispaniya, Portugaliya va Janubiy Afrikada o’tkazadi va 1949 yilda yana Fransiya qaytib keladi. Keyinchalik Severin Blan va Moris

Burgon bilan birgalikda Lasko yodgorligida amalaga oshirgan tadqiqot ishlarini davom ettiradi.

Mezolit davrida shimoliy Yevropa xududida ovchilik bilan shug'ullanuvchilar jamoalar madaniyati shakllanadi. YA'ni bu xo'jalik turi Angliyaning sharqiy viloyatlaridan tortib toki Estoniya, ayniqsa Bolqonbo'yi hududlarida ravnaq topdi. Miloddan avvalgi 8 ming yillikning o'rtalariga kelib, mezolit davri ovchilari toshlardan boltalar yasab o'rmonlarda daraxtlarni kesishda ulardan foydalanishgan. Ov qurollari asosan toshdan ishlangan. Bunday tosh qurollar farxeologiya fanida mikrolit tosh qurollar nomini olgan. Mezolit davri ovchilari tosh qurollardan nafaqat ov jarayonida, balki harbiy maqsadlarda ham foydalanishgan. 1869 yilda G. De mortilye paleolit davridan so'ng neolit davri deb hisoblagan. Keyinchalik esa YE. Kartilye G.De Mortilye fikrlarini taxlil etgan xolda shunday xulosaga keldiki paleolit va neolit o'rtasida xiatus mavjud bo'lsa, u holda Yevropa mintaqasi uzoq davriy vaqt davomida insoniyat tomonidan o'zlashtirilmagan. Biroq bu davrga kelib, bu bo'shliqni to'ldirish imkoniyatin i beruvchi bir qancha dalillar qo'lga kiritiladi. 70 yillarning oxirlariga kelib esa shved olimi Torell paleolit davridan neolit davriga o'tish bosqichini "mezolit" ya'ni "o'rta tosh" davri deb nomlaydi. Yevropaning mezolit davri miloddan avvalgi 9-6 ming yilliklar bilan davrlanadi. Yevropada ham mezolit davri buyuk muzliklarining chekinishi va hozirgi zamon iqlimiga o'zgarishi davriga to'g'ri keladi. Muzliklarning chekinishi natijasida iqlim va o'simliklar dunyosi o'zgarib ketadi. Muzlik davrining so'ngi bosqichida Yevropa shimolining katta qismida to'g'risimon o'simliklar hukmronlik qilar edi. Asta – sekinlik bilan muzliklar shimolga tamon chekinadi va hozirgi kunda mavjud bo'lgpn boltiq dengizi poydo bo'ladi. muzlik davrining tugashi bilan Janubiy va Markaziy Yevropada shimol kiyigi yo'qoladi ovchilarning asosiy ov manbai bo'lib bug'ular va boshqa hayvonlar qoladi. Muzlik davri ovchilarining turar joylari yengil tipdagi manzilgoh edi. Yevropada qo'lga o'rgatilgan hayvon bu it hisoblanadi. Yevropaning turli hududlarida mezolit davrida madaniyatlarining kechishi har xil bo'lgan. Shimoliy Yevropa mezoliti Yevropa mintaqasining o'rta yer dengizi va atlantika havzalari qismlaridan ancha farq qiladi. Muzlik erishi bilan yevropa hududidagi yashagan iptidoiy ajdodlarimiz bug'ular izidan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yangi yerlarni o'zlashtira boshlaganlar. Ibtidoiy ajdodlprimiz shimoliy tomonga siljishi natijasida bu yerlar Gamburg, Feder messer, Orenburg kabi madaniyatlarga asos soladi.

Mustye davri manzilgohlar O'rta Osiyoning barcha hududlarida aniqlangan, lekin ularning ko'pchiligi O'zbekiston va Tojikiston hududlaridan topib o'rganilgan bo'lib, ular nafaqat yer ustida balki yerning ostki qismida ham ko'pchilikni tashkil etadi. Boysun tog'ining janubiy yonbag'ridan topilgan Teshiktosh g'ori muhim ahamiyatga ega. Bu yerda beshta madaniy qatlam aniqlangan. Teshiktosh g'oridan siniq uchrindi, tosh parchalari, plastinka-parrakcha, nukleuslar, tosh bo'lakchalaridan iborat uch mingga yaqin tosh qurollari topilgan.

Teshiktosh g'ori tosh qurollari Samarqand janubidagi Omonqo'ton qurollariga o'xshash. Bu turdagi mustyega Vaxsh tog' tizmalarining janubig'arbiy qismida joylashgan Og'zikichik g'ori ham taaluqlidir. G'or makonlardan Toshkentdan

shimoli-sharqda Tangritog'ning g'arbida Chotqol tog' tizmalarida joylashgan Obirahmat g'orini ko'rsatish mumkin. Poltov (Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani) g'ori tosh qurollari Obirahmat va Xo'jakent tosh qurollaridan farq qilmaydi.

Oloy tog' tizmasining shimoliy tarmog'ida Farg'onadan Sharqda joylashgan Selung'ur g'oridan mil. av. 1 mln. 100ming - 1 mln. yilliklarga oid ashel qatlami qazib o'rganilgan. Selung'ur g'ori topilmalari eng Qadimgi mehnat qurollari ko'rinishida bo'lib, o'ziga xos shakllariga ega bo'lsada, Janubiy va janubi-sharqiy Osiyoning eng qadimgi manzilgohlari mehnat qurollari bilan yaqin o'xshashlikga ega. Selung'urdan ashel davri mehnat qurollaridan tashqari arxantrop qoldiqlari ham topilib, uni jahonning mashhur manzilgohlar qatoriga qo'yish mumkin.

Ochiq turdagi mazilgohlarga Vaxsh vohasida joylashgan bir-biriga o'xshash Qora-Bura va Oqjarlar oiddir. Qora-Bura joy-makonidan juda ko'p tosh parchalari va mehnat qurollari topilgan bo'lib, ularning yarmi qurol qilish uchun tayyorlangan mayda toshlardan iborat. Ular nukleuslar, uchrindi, uchli paykonlar. Ayniqsa chopper va choppinglar ko'pchilikni tashkil qiladi. Mustye davrining shunga o'xshash shakldagi materiallari Sirdaryo havzasidagi Qayroqum va Farg'onadagi makonlaridan ham topib o'rganilgan.

Ochiq turdagi makonlarga Angren daryosining o'ng sohilida joylashgan Ko'lbuloq va Samarqandning janubi-g'arbidagi Qo'tirbuloqlar oiddir. Ko'lbuloq topilmalari xilma-xil va unga xos makonlari bilan ajralib turadi. Mehnat qurollari - nukleuslar, tishli tosh qurollar, qirg'ichlar, tosh paykonlar, sixchalar, plastinkalar, tosh pichoqlar va boshqa tosh bo'laklaridan iborat. Bu makon mehnat qurollari O'rta Osiyoning boshqa makonlaridagi bilan o'xshash.

Qo'tirbuloq makonidagi tosh qurollarini chaqmoqtosh diorit, kvarsit va daryo toshlaridan yasalgan o'tkir uchli paykonlar, qirg'ichlar, teshgichlar, parmalar, bargsimon qurollar hamda daryoning shag'al va chaqmoq toshlaridan yasalgan chopping va chopper, yassi va gardishsimon nukleuslar, uchrindilar va boshqalardan iborat. Qo'tirbuloq makonidagi toshdan yasalgan mehnat qurollarining yasalish usullariga Zirabuloq makoni (Zarafshon vohasi) topilmalarini ham kiritish mumkin.

Qirg'izistonning mustye davriga oid makonlari yaxshi o'rganilmagan Tossor va Georgiy do'ngligi bu yerdagi mashhur makonlaridir. Tossor tosh qurollari mustye davrining so'nggi bosqichi va so'nggi paleolitning ilk bosqichlariga oid. Georgiy do'ngligi mehnat qurollari yuqori pleystotsenning boshlanish davriga oid. Janubiy Qirg'izistondagi Isfara daryosi vodiysidagi Xo'jag'ayir degan joydan ham mustye davriga oid manzilgoh topilgan. U yerdan toshdan yasalgan-parrakchalar, qirg'ichlar, pichoqsimon qurollar, nukleuslar, sixchalar topilgan.

Teshiktosh g'or-makonidan topilgan yosh bolaning bosh chanog'i o'sha davr kishilarining qiyofasini tiklashga asos bo'lib, u O'rta Osiyo hududidagi yagona paleoantropologik topilma hisoblanadi. Bosh chanog'i yuqori madaniy qatlamdan topilgan. Ko'rinishdan bola dafn etilgach, yovvoyi hayvonlarga yem bo'lgan, shuning uchun bola skeleti to'liq saqlanmagan. Antropolog olim M.

M. Gerasimov bo'lakchalarga bo'linib ketgan bosh chanoqni tiklab, bolaning qiyofasini tiklashga erishgan. Natijada suyaklar 9 yashar bolaga tegishli bo'lib,

morfologik jihatdan neandertal shaklida ekanligi aniqlangan. Shu bilan birgalikda Teshiktosh topilmasi yevropoid irqiga mansub ekanligi ham aniqlangan. Keyingi qilingan tahlillarning xulosasiga ko'ra, O'rta Osiyoning janubiy hududlari irq shakllangan uchoqlardan biri hisoblanadi.

Og'zichikdan topilgan hayvon suyaklarining 14 tasi Omonqo'ton va 6 tasi Teshiktoshlardagi hayvon suyaklari bilan bir xil. Umumiy suyaklarning ko'pchiligini cho'l toshbaqasi suyaklari tashkil etadi. Bundan tashqari yovvoyi qo'chqor va echkilar, ot, eshak, bug'i xatto jundor nosorog suyaklari ham topilgan.

Obirahmat g'oridan topilgan suyaklarning yarmidan ko'prog'ini yovvoyi echki tashkil etadi. Bug'u, qo'y, yovvoyi cho'chqa suyaklari ham mavjud. Obirahmat, Omonqo'ton va Teshiktosh makonlari topilmalarida unchalik farq katta emas. Bular mustye davrining O'rta tog' variantiga mansub bo'lib, asosan tog' echkisiga ov qilishgan. G'or-makonlar ichida Qo'tirbuloq topilmalari boshqalardan ancha farq qiladi. Undagi topilgan suyaklarning deyarli yarmi otniki, keyingi o'rinda filniki. Tur (yovvoyi buqa), buxoro bug'usi suyaklari esa kamchilikni tashkil etadi. Umuman, O'rta Osiyoning mustye davri makonlari ma'lum hudud tabiiy sharoitlariga mos ixtisoslashgan ovchilikning mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda.

So'nggi paleolit davri bir necha million yil davom etgan Qadimgi tosh asrining so'nggi bosqichi bo'lib, o'zidan oldingi mustye davriga nisbatan yaxshi o'rganilmagan, ochilgan joy-makonlar soni ham kamchilikni tashkil etadi. O'rta Osiyoda yuqori pleystotsenning ikkinchi yarmida noqulay ob-havo sharoitiga moslashgan turar joylar bo'lganligidan dalolat beruvchi moddiy topilmalar uchramaydi. Bu davr kishilari faqat g'orlardagina yashamasdan, vodiylar va daryo bo'ylariga ham tushib kelganlar va shu yerlarda istiqomat qilganlar. Shuning uchun ularning makonlari tabiat injiqliklari natijasida nobud bo'lgan va keyinchalik yerlarning o'zlashtirilishi tufayli madaniy qatlamlar yo'q bo'lib, hozirgi paytda saqlanib qolmagan. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davri mil. av. 34ming yillikdan 10 ming yillik (mil. av. 8300 yil atrofi)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. So'nggi paleolit davriga oid kam sonli makonlar davrlarga bo'lish imkoniyatini qiyinlashtirsada, ularning topilmalarini u yoki bu darajada aniqlash mumkin.

V. A. Ranov tomonidan so'nggi paleolit davrining quyidagi to'rtta varianti ajratib ko'rsatiladi: Qorakamar, Xo'jag'or, Samarqand, Ko'lbuloq. Dastlabki ikkitasi bitta taraqqiyot bosqichida bo'lib, ko'rinishdan ularni birlashtirish mumkin.

Hindistonning qadimgi davr yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar dastlab Yevropada XVI-XVII asrlarda missionerlar va sayoxatchilar tufayli ma'lum bo'la boshlaydi. Biroq bu qadimgi davr yodgorliklarni o'rganish ishlari XVIII asrning ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Bu yodgorliklarni o'rganish tarixiy geografiya malumotlari asosida amalga oshiriladi. Mashxur tarixchi olimlardan Anketil Dyuperron Ellor, so'ngra Kanxer va Elefant orollaridagi yodgorliklarni o'rganish va yodgorliklarning chizmalarini yaratish ishlarini amalga oshiradi. Hindiston hududi tosh davridan boshlab ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirila boshlangan. Hindiston hududidagi dastlabki tosh davri yodgorligi 1863 yilda R.B. Fut tomonidan Madras yaqinidan topilgan. Bu makondan topilgan tosh qurolar tashqi ko'rinishiga

ko'ra bodomsimon shaklda bo'lib, fanga madras tosh qurollari nomi ostida kiritilgan. Madras tosh qurollari yordamida ibtidoiy ajdodlarimiz o'zni himoya qilgan, daraxt ildizlarini kovlab olgan, xayvonlarni ov qilgan.

Bu tosh qurollarini tayyorlashda aossiy xom ashyo kvarsit hisoblangan. Madras texnikasini bosqichma-bosqich rivojlanishi Yevropaning shell, ashel va quyi ashel bosqichlariga to'g'ri keladi. Xindistonning shimoliy qismida esa Soan daryosi xavzasida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli makon topilgan bo'lib, unning xududidan ko'plab tosh qurollar namunalari topilgan. Bu makon va tosh qurollar olimlar tomonidan fanga Soan madaniyati nomi ostida kiritilgan. Tosh qurollari tayyorlanish texnikasiga ko'ra ilk, o'rta va rivojlangan soan davrlariga tegishli hisoblanadi. bundan tashqari Hindistonning janubida ya'ni Tungaxadr xududidan aralash xoldagi quyi paleolit davri makonlari va tosh qurollari qayd etilgan. Qadimgi Hindiston xududida Homo sapienslarningizlari xaqida ma'lumot beruvchi yodgorlik Batadombalen va Shri Lanka orolida Belilen yodgorliklari hisoblanadi. Narmada vodiysida Yavan Xomo Erektusiga yaiqin bo'lgan odamsimon maymunlarning bosh chanog'i qoldiqlari aniqlangan. Fanga ushbu topilma 1985 yilda Homo erectus narmadiensis nomi bilan kiritilgan. Davriy sanasi 236 ming yilni tashkil etadi. Odai joy makonidan esa Homo erectus yeki ilk Homo sapienslarga oid bo'lishi mumkin bo'lgan 5 yoshli bolaning tana suyaklari topilgan. Tik yuruvchi ibtidoiy odamlar pleystotsen davrida Yuqori Pandjobning Potxar platosi va Ravalpindi yaqinidagi Soan daryosi bo'ylarida yashagan bo'lishi mumkin. Shuningdek Hindistonning paleolit davri Soan madaniyati topilmalari Xindiston, Nepal va Pokiston chegaralarida joylashgan Sivalik xududidan xam aniqlangan.

Janubiy-Sharqiy Osiyoning paleolit davri yodgorliklari Birmadagi ilk Anyat, Indoneziyaning Yava orolida joylashgan Pachitan, Vyetnamdagi Shonvi, Malayziyadagi Kota-Tampan va boshqa bir qator yodgorliklarni keltirib o'tishimiz mumkin. O'rta va yuqori paleolit davrida JanubiySharqiy Osiyoning paleolit davri moddiy madaniyati Ko'xna dunyoning boshqa xududlariga nisbatan o'ziga xos taraqqiyot yo'llarini bosib o'tgan. Tosh qurollar indusriyasida makrolitlik saqlanib qolingan. Pachitan yodgorligi Yava orolining markaziy qismida joylashgan bo'lib, paleolit davri yodgorligi hisoblanadi. Sangiran yodgorligi esa bu Janubiy-Sharqiy Osiyoda mikrolit tosh qurollar ishlab chiqarish texnikasining tarqalganligidan dalolat beradi. Malayziyada joylashgan mashxur Nia g'ori T. Garrison tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu yodgorlikda arxeologik davrlarinng ketma-ketligini kuzatishimiz mumkin. Unda topilgan eng qadimgi tosh qurollarining davriy sanasi 39500 yilni tashkil etmoqda. Nia g'or-makonidan topigan Homo sapienslar tegishli tana suyaklari taxlili ularning avstraloid irqiga oid ekanligini ko'rsatmoqda. Janubiy-Sharqiy Osiyoda yer sharining boshqa xududlariga farqli ravishda mezolit davri alohida arxeologik davr sifatida ko'rsatilmaydi. Biz Janubiy-Sharqiy Osiyoda mezoneolit davri madaniyatlarini kuzatishimiz mumkin. YA'ni Janubiy-Sharqiy Osiyoda mezolit va neolit davriga oid madaniyatlarning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. JanubiySharqiy Osiyoning mezoneolit davri yodgorliklaridan biri Xoabin madaniyatidir. Xoabin madaniyati uchta davriy bosqichga ajratiladi. Ilk, o'rta va quyi Xoabin bosqichlari. Ilk Xoabin davriy sanasi

miloddan avvalgi 48-23 ming yilliklar, o'рта Xoabin miloddan avvalgi 23-13 ming yilliklar va quyi Xoban miloddan avvalgi 13-8 ming yilliklar. Ushbu madaniyatning uchta davriy bosqichga bo'linishi arxeolog olim V. Solxeym tomonidan amalga oshirilgan. Mezoneolit madaniyatiga oid navbatdagi yodgorlik Ruxlar g'ori hisoblanadi. Ruxlar g'orining davriy sanasi miloddan avvalgi 12 ming yillikni tashkil etadi.

Xitoyda paleolit davri bundan 1.55 mln yil avval boshlangan. Paleolit davriga eng qadimgi topilmalar sanasi 2 mn yilni tashkil etadi. Xiytoning paleolit davri madaniyati tashuvchilari tik yuruvchi ajdodimizning qiyofadoshi bo'lmish-sinantroplar tashkil etgan. Xitoy xududidan topilgan tosh davriga oid eng qadimgi topilmalar Anxa provinsiyasi xududidagi Jenzidun yodgorligidan qayd etilgan. Uning davriy sanasi taxminan 2 mln yil bilan belgilanmoqda. Sichua provinsiyasi xududidagi Lungpo yodgorligidan esa tik yuruvchi ajdodimizning tish suyaklari qoldiqlari topilgan bo'lib, uning davri sanasi 1.8 mln yil bilan belgilanmoqda. Matszyuanagoda davriy sanasi 1.661.55 mln yil bilan belgilangan eng qadimgi tosh qurollar namunalari topilgan. Xebey provinsiyasi Yanyuan uezdi xududida qayd etilgan tosh davri Syaochanlyan madaniyati esa 1.36 mln yil bilan davriy sanasi belgilanmoqda. Xitoy xududidan aniqlangan ibtidoiy ajdodimizning eng qadimgi vakili Lantyan odami deb nomlanadi. Bu topilma Shensi provinsiyasi Lantyan uezdi xududidan topilgan. Tosh davrining yana bir madaniyati Senszyavan deb nomlangan bo'lib, uning davriy sanasi 1.1 mln yil bilan belgilanmoqda. Ajdodlarimizdan iri bo'lmish Sinantroplar qoldiqlari Xebeye provinsiyasi xududidagi Gaopin g'oridan topib o'rganilgan. Xitoyda ibtidoiy ajdodlaimizning eng yaxshi o'rganilgan vakili sinantroplar hisoblanib, ularga tegishli topilma Pekin xududida joylashgan Chjoukoudyan qishlog'ida qayd etilgan.

Janubiy Xitoyning mezolit davriga oid yodgorligiga Guansi-Chjuan avtonom rayoni hududidagi g'orlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. 1935 yilda Pey Venchjun tomonidan bu g'orlar xududidan qo'pol shakldagi makrolit tosh qurollari namunalari topib o'rganilgan. Vyetnam xududida esa biz paleolit davridan neolit davriga o'tish jarayonini kuzatamiz. Bu madaniyatlar fanda Bakshon va Xoabin madaniyatlari nomi ostida kiritilgan. Xitoyning shimoli va Mo'g'ilistondan mezolit davri yodgorliklari juda kam o'rganilgan. Biz faqatgina Sinszyan, Markaziy Mo'g'iliston va Manchjuriya xududlaridan unchalik ko'p bo'lmagan makrolit tosh qurollari namunalarini ng topilishini misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Faqatgina Mo'g'ilistonning Ulan-Bator, Moyltin-Ash, Sangino karyeri hududida aniqlangan bir nechta mezolit davri yodgorliklarini keltirib o'tishimiz mumkin. Koreya shu nomli yarim orolning janubiy qismini egallaydi, bu yarim orol Osiyo qit'asining asosiy qismidan 1100 km masofaga chiqib turadi. G'arbdan yarim orol Sariq dengiz bilan, janubdan esa Koreys bo'g'oz va Sharqiy-Xitoy dengizi bilan o'ralgan. Janubiy Koreya maqomi provinsiyalarga tengtashtirilgan 6 ta shaharga, 9 ta provinsiyaga va alohida vazifaga ega 1 ta shaharga bo'lingan. Koreyaning iqlimi aralash turdagi iqlimdir. Bu yerda asosan kontinental va dengiz iqlimi ustuvorlik qiladi. Koreyada bahor va kuz qisqa va iliq, yoz nam va issiq bo'lib, temperatura

+35S gacha ko'tarilishi mumkin. Yomg'ir mavsumi iyun oyining oxiridan iyul oyi o'rtalarigacha to'g'ri keladi. Kuzi quruq, qishi esa sovuq bo'lib, davriy ravishda yog'in yog'ib turadi. Qishda temperatura -10S gacha pasayadi. Koreya xududida ilk ibtidoiy odam vakillaridan biri Homo erectus bundan 500 ming avval paydo bo'lgan. Chxunchxon-namdo provinsiyasida joylashgan Sokchanni g'or makonida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Yevropaning quyi paleolit davriga oid tosh qurollar va bifassimon uchrindilar namunalari topilgan. Koreya xududida o'rta paleolit davrida gominidlarning istiqomat etganligi haqida ma'lumot beruvchi yodgorliklar Chommal va Turubon g'or makonlari hisoblanadi. Bundan tashqari bu g'or makonlarda hozirda kunda Koreya mavjud bo'lmagan va o'z vaqtida noqulay iqlim sharoiti tufayli qirilib ketgan ba'zi bir xayvon suyak namunalari ham topilgan. Sokchanni yodgorligida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida esa Yevropaning ashel, mustye va levallua texnikasi asosida tayyorlangan tosh qurolarga o'xshash tosh qurollar namunalari qayd etilgan. Bu topilmalar o'z navbatida Koreya xududining qadimgi davrlardan bolab ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilganligini ko'rsatadi. Koreya xududida Homo Sapience larning paydo bo'lishi radiouglerodli taxlillarga ko'ra 40-30 ming yillar bilan belgilanadi. Bunday xulosalarga Sokchanni yodgorligida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida kelingan. Koreya xududida ham paleolit davriga oid qoyatosh suratlari ham aniqlangan. Pangedu yodgorligi ana shunday turdagi yodgorliklar jumlasiga kiradi. Paleolit davrida Koreya xududida istiqomat etgan ajdodlarimiz xayvon suyaklaridan uylar qurib uni xayvon terilari bilan ximoyalashgan, ya'ni uy-joy qurishni bilishgan. Yaponiya orol davlatidir va u Tinch okeanining g'arb qismida joylashgan. Uning tarkibiga 4000 ta orol kiradi. Ularning eng yiriklari Xonsyu, Kyusyu, Sikoku va Xokkaydo. Yaponiya hududini shimol tomondan Oxota dengizi, sharq va janubiy-sharqdan - Tinch okeani, g'arbdan – Yapon va Sharqiy-Xitoy dengizlari; Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari arxipelagi janubida ichki Yapon dengizi o'rab turadi. Qirg'oq chizig'ining umumiy uzunligi taxminan 30 ming kilometr. Yaponiya tog'li mamlakatdir. Uning hududining deyarli to'rtdan uch qismini tog'lar egallaydi. Davlat asosan prefekturalarga bo'lingan. Yaponiyada bunday prefekturalar 47 ta. Har bir prefektura to'rtta toifaga bo'linadi: Tokio, Xokkaydo, Kioto va Osaka hamda qolgan 43 tasi. Tokio o'z navbatida 23 ta mustaqil maxsus tumanlarga ajraladi. Yirik shaharlari: Tokio, Osaka, Kioto, Nagoya, Kobe, Xirosima, Fukuo va Iokogama hisoblanadi. Yaponiya hududidagi iqlimi har xil. Mamlakatning shimolidagi iqlim mo'tadil, janubda esa subtropik va tropik mussonli. Xokkaydoda yanvar oyida o'rtacha temperatura -30S gacha pasaysa, iyul oyida esa 220S gacha ko'tarilsa, Okinava prefekturasida u deyarli bir xil 220S bo'lib qoladi. Yaponiya tarixida eng qadimgi ibtidoiy ajdodimiz vakillarining paydo bo'lishi bundan 40 ming avval sodir bo'lgan. Geologik nuqtai-nazarga ko'ra Yaponiya paleoliti pleystotsen va muzlik davrlariga to'g'ri keladi. Yaponiya xududida istiqomat etgan eng qadimgi ajdodlarimiz ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan. Bu davrga oid Yaponiya istiqomat etgan eng qadimgi ajdodlarimizning antropologik tuzilishi xanuzgacha noma'lum. Yaponiyada paleolit davrining o'rganilishi 1949 yilda Ivadzyuku shahrida paleolit davri tosh qurollarining topilishi bilan bog'liq. Shuning uchun xam Yaponiya

tarixida paleolit davri "Ivazyuku davri" deb nomlanadi. Yaponiyalik olim K. Matsufudzi Kanedori IV g'or makonidagi eng qadimgi tosh qurollarning davriy sanasini 80 ming yil bilan davrlashtiradi. Yaponiyalik arxeolog-olimlarning fikriga ko'ra bundan 127-71 ming avval Homo sapiens arxipelagga Xitoyning Shimoliashrqi xudularidan kirib kelgan bo'lishi mumkin. Rus arxeologi S.P. laptevning fikriga ko'ra Badzedan, Nakamine, Sodzyuday va Niyu yodgorliklari Yaponiyaning eng qadimgi tosh davri yodgorliklari bo'lib, ularning davriy sanasi 200 ming tashkil etishi mumkin. 1931 yilda arxeolog olim Naora Nobuyu tomonidan Yaponiya xududidan ibtidoiy odamlarning eng qadimgi vakili tana suyaklarini topishga muvaffaq bo'lgan. Bu topilma o'z navbatida Yaponiya xududida ham qadimda ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilganligi xaqida dalolat beradi.

Hozirgi paytda O'rta Osiyo hududida mezolit davriga oid ikki yuzdan ortiq yodgorlik aniqlangan. Ular madaniy qatlamli va terma moddiy ashyolariga ega bo'lgan g'or-makon, ochiq joy-makon va mavsumiy makondan iborat. Mezolit davri yodgorliklari ma'lum madaniyat, madaniy majmuailari ajralib turadi. Mezolit davri madaniyatlari orasida Sharqiy Kaspiybo'yi hududi yodgorliklari muhim o'rin egallaydi. Bu yerda mil.avv. XI-VIII ming yilliklarga oid Jabel, Kaylu va Dandamchashma I, II g'ormakonlari va 30 dan ortiq ochiq joy makonlar o'rganilgan. Bu yodgorliklardan topib o'rganilgan tosh buyumlari mikrolit alomatlariga ega bo'lgan plastinkasimon shaklidagi qurollardir.

Sharqiy Kaspiy bo'yi hududida yashagan aholi ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan kun kechirgan. Mezolit davrining oxirida ibtidoiy ovchilar hayvonlarni qo'lga o'rgatib, xonaki chorvachilikka asos soladilar. Terilarga ishlov berish va ulardan kiyim bosh tikish, suyak va yog'ochdan zaruriy anjomlar yasash, chig'anoq va toshdan taqinchoq yasash kabi ishlar odamlarning yordamchi mashg'uloti hisoblangan.

Ustyurt mezoliti (mil. avv. VIII-VI ming yilliklar). Ustyurtda mezolit davriga oid 20 dan ortiq yodgorlik o'rganilgan. Ular asosan Aydabolquduq va Jayronquduqlarining atrofida guruh-guruh holda joylashgan ochiq turdagi doimiy, muddatli va mavsumiy makonlardan iborat. Ustyurtning madaniy qatlamga ega bo'lmagan makonlar xo'jaligini tiklashni cheklaydi. Hududning tabiiy sharoiti va mazkur davr xususiyatlariga asoslanib, ustyurtlik ibtidoiy aholi xo'jaligida ovchilikning mavqei yuqori bo'lgan, keyin o'rinlarni termachilik va baliqchilik egallagan. O'zbekiston Respublikasi hududida mezolit davriga oid bir nechta madaniyatlar faoliyat yuritgan. Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Zarafshon vohasi, Surxon vohasi, Ustyurt va boshqa joylardan yuzdan ortiq mezolit davri yodgorliklar o'rganilgan. Mazkur hudulardagi yodgorliklar alohida lokal madaniyatlarni tashkil etadi.

Qo'shilish makon Toshkent vohasidagi mezolit davri yodgorliklarining eng qadimgisi (mil. avv. X-IX ming yilliklar) hisoblanadi. Makon yomg'ir suvida yuvilib, uning saqlanib qolgan qismdan 200 dan ortiq turli xildagi chaqmoqtoshdan yasalgan tosh qurollari va qo'y, echki, qora mol suyaklari topilgan. Bu yerda yashagan aholi ovchilik va termachilik bilan kun kechirgan.

Farg‘ona vodiysida 40 dan ortiq mezolit davri g‘or-makon va ochiq joymakonlari aniqlangan. So‘x daryosining yuqori oqimida joylashgan Obishir I, V va Toshko‘mir g‘or-makonlari yaxshi o‘rganilgan. Ulardan plastinkasimon va mikrolit tosh qurollari va yovvoyi hayvon suyaklari topilgan.

Farg‘ona vodiysi tekisligida esa mezolit-neolit davrlariga oid sal kam yuzga yaqin joy-makonlar majud. Vodiyning markaziy tekisligida qadimgi ko‘llar bo‘yida joylashgan Ashiko‘l 2, 3, 16, Yangiqadam 1, Taypoqko‘l (Toypoq 3,5,7) va boshqa makonlarning ustki qismidan tosh qurollari terib olingan. Ular asosan kichik plastinkadan yasalgan qurollardir.

Surxondaryo viloyati Boysuntog‘ hududida mezolit davrining so‘nggi bosqichiga oid Mochay g‘or-makoni joylashgan. G‘or-makon ikkita madaniy qatlamga ega. Ulardan ko‘p sonli tosh qurollari, hayvon va odam suyaklari topib o‘rganilgan. Suyaklarining ko‘pchiligi tog‘ echkisi, muflon va kichik tuyoqli hayvonlarga tegishli. Qisman cho‘chqa, it va qora mol suyaklari ham mavjud. G‘or-makonning yuqoridagi ikkinchi madaniy qatlamidan topilgan suyaklarining ko‘pchiligi xonaki (qo‘y va echki) hayvonlarga tegishli. Makondan topilgan odam suyaklari *yevropeoid* irqining Sharqiy O‘rta yer dengizi guruhiga mansub *dolixokran*-qisqa yuzli, uzun bosh qiyofali odamlar bo‘lgan. Mochaylik ibtidoiy jamoa a‘zolari dastlabki bosqichda yovvoyi hayvonlarni ov qilib, tog‘ o‘simliklar va ularning mevalarini terib kun kechirgan bo‘lsalar, mezolit davrining oxirida yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatib, xonaki chorvachilikga asos solgan. Makonida neolit davrida hayot davom etmagan.

Janubiy Tojikistonning mezolit davri madaniyatlari. Bu yerdagi Kofirnahr, Vaxsh, Panj vodiylari, hatto Pomir tog‘ining baland qismidagi hududlarda mezolit davri jamoalariga oid 30 ga yaqin yodgorliklar aniqlangan. Bu yodgorliklarning ko‘pchiligining madaniy qatlami buzilib ketgan. Mezolit davriga oid Tutqovul III, Chilchorchashma, Darai SHo‘r, Quyibulyon, Obikiyik, Oshxona, Alichur va boshqalar yodgorliklar yaxshi o‘rganilgan. Bu yerning mezolit davri madaniyatlari tekislik va tog‘oldi hududidan iborat ikki yo‘nalishda faoliyat yuritib, mil. avv. XI-VII ming yilliklar bilan sanalanadi. Janubiy Tojikiston hududidagi barcha yodgorliklarini tadqiqotchi arxeolog olimlar turli davr va madaniyatdan iborat to‘rta arxeologik majmuaga ajratgan. Ular Tutqovul, Vaxsh, Obikiyik va Shugnov. Janubiy Tojikistonning mezolit davriga oid ushbu madaniyatlari (majmualari) xo‘jaligi va moddiy madaniyati, xususan, tosh qurollarining ishlanish usuliga ko‘ra umumiy va o‘ziga xos jihatiga egaligi bilan ajralib turadi. Bu madaniyat egalari ovchilik, baliqchilik va termachilik kabi o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakl orqali kun kechirishgan. Asosiy ov quroli nayza va o‘q-yoy hisoblangan. Baliqchilikda ishlatilgan qurol namunalari topib o‘rganilmagan bo‘lsada, asosiy ov qurolini garpun tashkil etgan taxmin qilish mumkin. Tojikistonning mezolit davri makonlarida bir vaqtda faoliyat yuritgan Shimoliy Afg‘oniston, Falastin, Suriya va Old Osiyoning boshqa hududdagi manzilgoh tosh qurollari bilan o‘xshash belgilarini kuzatgan tadqiqotchilar ular o‘rtasida genetik aloqadorlik bo‘lishi mumkinligini taxmin qilgan.

Mezolit davri tasviriy san'at namunalari Yevrosiyoning barcha hududlari, xususan, Priney yarim oroli, Shimoliy Afrika (Saxara), Rossiya, O'rta Osiyo, Hindiston va boshqa yerlardan topib o'rganilgan. Tasvirlar asosan qoyalarning shifti va yon devorlariga mineral bo'yoqlarda chizilgan. Ular so'nggi paleolit tasvirlaridan mazmun-mohiyati jihatdan farq qiladi. Bu davrdagi tasvirlarida qurollangan ovchilarning yovvoyi hayvonlariga uyutirayotgan ov manzaralari aks etgan. Paleolit davrida qisman uchraydigan ovchilarning tasviri ancha ko'payadi. Ular ko'proq nayza va kamon bilan qurollangan tasvirlardan iborat bo'lgan.

O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston hududlarida ham mezolit davriga oid kam sonli qoya tosh tasvirlari saqlangan. Zarautkamar (Surxondaryo), Siypantosh (Qashqadaryo) va Shaxta (Sharqiy Pomir) yodgorliklarida mezolit davri tasviriy san'atining ajoyib namunalari saqlanib qolgan. Zarautkamar yodgorligi Surxondaryo viloyati Sherobod shahridan 30 km. shimoliy-sharqda Ko'hitang tog'ining janubi-sharqiy yonbag'rida Zarautsoy bo'yida joylashgan. Kamarda madaniy qatlam uchramaydi. Tasviriy san'at namunalari qoyaning shifti va yon devorlariga qizil bo'yoqda chizilgan.

Umuman mezolit davri qoyatosh tasvirlarida hayvonot dunyosi va xo'jalik xususiyati aks etib, ularda o'z davrining sodda dunyoqarash tushunchalari va diniy-dunyoviy mafkurasi yashiringan. Mezolit davrida sodir bo'lgan iqlim o'zgarishlari kishilik jamiyati xo'jalik va moddiy madaniyatiga jiddiy ta'sir qilib, muhim ijobiy yutuqlarga erishisha sabab bo'ladi. Natijada kishilik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida burilish davrini boshlab beradi.

3-mavzu. Ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilarini namoyon bo'lishi.

Reja

3.1. Ilk shahar markazlarining paydo bo'lish omillari.

3.2. Ilk shahar markazlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi mavqeining ortib borishi.

Kalit so'zlar: Neolit, Sivilizatsiya, Jarmo, Iyerxon, Xojilar, Chatalguyuk, neolit inqilobi, natufiy, Cheyyunyudepe, Joytun, Xassun, Samar, Xalaf, madaniyat, ibodatxona, ixtisoslashgan, muhr, yozuv, aloqalar, Elam, Suza Uruk, madaniyat,

Yaqin Sharq hududida mil. av. VIII-VII ming yilliklarda (hatto Janubi-g'arbiy Osiyoda ayrim olimlarning fikriga ko'ra bundan ham ilgariroq) boshlanib, neolitning keyingi bosqichlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik – dehqonchilik va chorvachilik shakllarining to'liq qaror topishi bilan yakunlanadi. Shimoliy mintaqalar hududlarida esa iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, xo'jalikning o'zlashtiruvchi shakli uzoq davr mobaynida saqlanib qoladi. Shu nuqtai nazardan neolit yer yuzining turli joylarida tuli davrlarda kechganligi kuzatiladi. Tabiiy sharoiti qulay bo'lgan o'lkalarning neolit davri xususiyatlari mil. av. VIII-VII ming yilliklarda namoyon bo'lsa, boshqa hududlarda bu jarayon mil.av. III/II ming yilliklarda ham davom etadi¹⁸.

Dehqonchilik birinchi navbatda kishilik jamiyatining keyingi taraqqiyotini belgilab beragan. Xo'jalikning ilg'or shakliga o'tilgandan so'ng ibtidoiy odamlar muntazam oziq-ovqat zahirasiga ega bo'lib, bir joyda muqim o'troqlashishni ta'minlagan. Dehqonchilik tabiiy-geografik sharoit qulay va madaniylashtirish uchun o'simliklarga boy bo'lgan hududlarda paydo bo'lgan. Mazkur jarayonni ingliz arxeologi Gordon Chayld "neolit inqilobi", deb ataydi. R.Breyvud esa "oziq-ovqat yetishtirish inqilobi" nomi bilan atashni ma'qul ko'rgan.

Neolit davri yer yuzining barcha hududlarida ma'lum bir davrda kechmamagan. Osiyoning issiq iqlimga ega bo'lgan o'lkalarida neolit davrida iqlim sharoiti hozirgiga nisbatan ancha yaqin bo'lib, kishilar yer yuzi bo'ylab keng tarqala boshlagan. Tabiiy geografik jihatdan qulay va issiq iqlimli o'lkalarda kishilar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakliga o'tib o'troqlasha boshlagan bo'lsalar, shimol aholisi esa tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli orqada qolib ketgan¹⁹.

Xo'jalikning dehqonchilik shakliga o'tish mil.av. VIII ming yillikning boshlarida Yaqin Sharq hududida sodir bo'ladi. Bu yerdagi ilk dehqonchilik mezolit davri Natufiy madaniyati asosida shakllangan Qadimgi ilk dehqon jamoasiga tegishli qishloqning o'rni Suriya-Falastin hududida O'lik dengizdan Shimolda Jordan daryosi vodiysida joylashgan Tellassulton yodgorligida o'rganilgan. Bu

¹⁸ Miriam T. Stark. *Archaeology of Asia*. Blackwell Publishing Ltd. 2006

¹⁹ Robert J. Muckle. *Introducing Archaeology: Second Edition*. University of Toronto Press. 2014

yodgorlik Bibliyada keltirib o‘tilgan qadimgi Iyerixon shahrining o‘rni hisoblanadi. Arxeologik jihatdan mil. VIII-VII ming yilliklarga oid ilk dehqonchilik madaniyati Iyerixon A, B komplekslarni tashkil etadi. Ilk bosqichida (Iyerixon A- mil.av. VIII ming yillik) tosh devor bilan o‘rab olingan qishloq aholisining oval shaklidagi g‘ishtlardan barpo qilingan aylana yoki oval shaklidagi uylari joylashgan. Manzilgohda yarim yerto‘la uylar ham mavjud²⁰.

Yaqin Sharqda neolit davriga oid ilk o‘troq dehqonchilik qishlog‘ining o‘rni O‘lik dengizdan Shimolda Iordan daryosi vodiysida joylashgan Tell as Sulton yodgorligida o‘z aksini topgan. Bu yodgorlik Bibliyada keltirib o‘tilgan qadimgi Iyerixon shahrining o‘rni xisoblangan. Arxeologik qazish ishlari natijasida mil. av. VIII-VII ming yilga oid xayot uzliksiz ikki kompleks Iyerixon A, B komplekslari aniqlangan. Manzilgoh 4 ga iborat bo‘lib, toshdan terilgan aylana devor bilan o‘rab olingan. Devorlar (eni 1,6 m) atrofida toshdan aylana minoralar (diametri 7-8 m) qurilgan. Ularning tepasiga aylana zinalar orqali ko‘tarilgan. Ular mudofaa devorlari minorasi vaziqasini emas, kuzatuv minorasi bo‘lgan. Ichkarida devor bo‘ylab, ma’lum shaklga keltirilmagan g‘ishtlardan qurilgan uylar joylashgan. Uylar aylana yoki oval shaklda, ayrim xollarda yarim yerto‘la shaklida. G‘ishtlarga somon qo‘shilgan. Murdalar uylarning bir tomoniga qurilgan. Bu davrda toshga qurollarga ishlov berishda mezolit davri an‘analari davom etadi. Tosh qurollari mikrolitlardan iborat bo‘lib, kamon o‘qlarini tashkil etadi. Qurol motiga va o‘roqlarning dastalari dehqonchilikning paydo bo‘lganligidan dalolat beradi. Shuningdek Iyerixon A dan bir qatorli arpa va bug‘doylarning izlari qurilish materiallarida saqlangan.

Neolit V bosqichida (mil. av. 7 ming yil) Shimoldan kelgan qabilalarning kelib joylashishi kuzatiladi. Uy qurilishida ma’lum yutuqlarga erishiladi. Uylar aniq ulchamdagi (5,5x 4 yoki 7x3m) qurila boshlanadi. Uylarning satxi oxak suvoq qilinadi. Uylarning devorlari 1 metr balandlikgacha qizil bo‘yoqlarda bo‘yalgan. Qolgan qismi krem (qora) rangda bo‘yalgan. Uylarning ichida mayitlar ko‘milgan. Toshdan kamon, o‘qlarining uchlari, keli, don yanchgich, turli idishlar, silliqlangan kichik tosh boltalari tayorlashda foydalangan. Suyaklardan kesuvchi qurol sifatida foydalanilgan. Loydan faqat odamlar va xayvonlarning shakllari yasalgan. Loydan kattaroq xaykallar xam yasalgan qamish karkazga yasilib, ular qizil rangda bo‘yalgan. Ovchilik o‘z axamiyatini yo‘qotmagan. Yovvoyi xayvonlardan gazel suyaklari ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuningdek qo‘y, echki, cho‘chqa va eshak suyaklari xam topib o‘rganilgan. Ulardan faqat echki xonakilashtirilgan. It esa mezolit davridagi Iyerixonliklarning ovdagi yo‘ldoshi bo‘lgan. Ko‘rinishidan xonakilashtirilgan xayvonlardan mushuk xonakilashtirilib, u don maxsulotlari zaxirasining to‘planishi bilan bog‘liq.

Iyerixondan Janubda joylashgan Beyda yodgorligi xam neolit davri yodgorligi xisoblanadi. Uylari to‘g‘ri to‘rt burchak shaklda. O‘rtada poldan baland joylashgan o‘choq bo‘lgan. Uy devorlari oxak suvoq qilingan. Devor bo‘ylab o‘tirish uchun toshdan terib qo‘yilgan. Suyakdan yasalgan uy-ro‘zg‘or qurollari, tosh va dengiz

²⁰ Miriam T. Stark. *Archaeology of Asia*. Blackwell Publishing Ltd. 2006

jonivorlaridan munchoqlar. Beydada loydan xaykalchalar bilan birgalikda sopol idishlar yasash malakasi mavjud bo'lganligining ularning siniq parchalari orqali ko'rish mumkin. Sopolalar pishirilmagan.

Kichik Osiyo (mil av. 8 ming yil oxiri -7 ming yil boshlari) Xojilar manzilgoxining quyi qatlamidan xom g'ishtdan qurilgan uylarning o'rni aniqlangan. Uylarning poli loysuvoq qilingan va devorlari bilan birgalikda qizil rangda bo'yalgan. Geometrik shaklda sopol idishlar uchramaydi. Idishlar toshdan yasalgan. Suyakdan bigiz, kremen va obsidiandan o'roq uchi qadamalari, silliqlangan tosh boltalar yasalgan. Ikki qatorli arpa ekilgan. Shuningdek bir qatorli yovvoyi bug'doylarni temachlash xam yordamchi xo'jalik hisoblangan. Bu yerda xam Iyerixonliklar kabi murdalardan uyda ko'mishgan.

Kichik Osiyo ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining to'liq nomoyon bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotni Cheyyunyu depesa yodgorligida amalga oshirilgan arxeologik qazish ishlari natijasida aniqlangan. U mil.av 7250-6750 yillar bu yodgorlikning uylari asosan toshdan terilib satxi oxak bilan suvalib, bo'yalgan. Sopol idishlar uchramaydi. Hayvon xaykalchalari mavjudkremendan yasalgan mikrolitsimon tosh qurollar ustunlik qiladi. Kam sonli urib ishlangan mis buyumlar uchraydi. Yodgorlikning dastlabki ikki bosqichida xo'jalikning ovchilik-dexqonchilik shakli ustunlik qilgan. Ovchilikla zubr birinchi urinda, ikkinchi urishda bo'rilarini ovlashgan. Uchinchi bosqichga kelib chorvachilik ovchilikni siqib chiqaradi. Qo'y, echki asosiy chorva xisoblangan. Dexqonchilikda bir va ikki qator bug'doy ekilgan.

Kichik Osiyodagi ilk dehqonchilik madaniyatining taraqqiy etgan shakli Markaziy Turkiyaning janubidagi Konya vodiysidagi Chatalxyuyuk yodgorligida (mil. av. VII ming yillik ikkinchi yarmi- VI ming yillik birinchi yarmi) aksini topgan. Bu yerda mazkur davrda 20 dan ortiq ilk dehqon jamoalarining kichik qishloqlari mavjud bo'lib, ulardan yirigi Chatal Xyuyukning maydoni 13 ga ni tashkil etgan. Yodgorlikda aniqlangan uylar yirik o'lchamdagi xom g'ishtlardan barpo qilingan. Ularning ayrimlari devorlari sirtiga mazmunli rang-tasvirlar va bo'rtma naqshlar, xususan, buqa yoki qo'y boshi tasviri solingan. Bunday uylar dehqon jamoasi sig'inish odatlari uchun xizmat ibtidoiy ibodatxona bo'lganligi shubhasiz. Murdalar uylarning ichida kuzatuv buyumlari bilan birga qo'shib ko'milgan.

Asosiy mehnat qurollarini tosh va suyaklardan yasalgan buyumlar tashkil etadi. Obsidian tosh qurollarini yasashda asosiy xom ashyo hisoblangan. Mis buyumlar bolg'alash usulida ishlangan. Yodgorlikning yuqori madaniy qatlamlaridan sirtiga qizil rangdagi chiziqlar bilan bezatilgan sapol buyumlari uchraydi.

Xo'jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etadi. Bu yerda 14 xildagi o'simliklar madaniylashtirilib, bir va ikki qator bug'doy va arpa yetishtirilgan. Mayda va qoramol uy chorvachiligini tashkil etgan. Shuningdek, ovchilik yordamchi xo'jalik an'anasi sifatida saqlanib qoladi.

Chatal Xyuyukliklarning boy madaniyati va g'oyaviy qarashlari ibodatxonada aniqlangan qo'y, buqalar boshining bo'rtma tasviri, ayol ma'buda,

qisman erkak haykalchalari yoki devorida chizilgan ov manzaralarida o'z aksini topgan. Chatalxyuyuk ayrim tadqiqotchi olimlar ilk shahar, degan fikrni ilgari surishadi. Lekin, bu manzilgoh shahar talablariga javob beruvchi alomatlardan ancha yiroq bo'lib, dehqonchilik vohasining markazi vazifasini o'taganligi, tabiiy.

Old Osiyodagi ilk dehqonchilikning uchinchi bir markazi Shimoliy Mesopotamiya va unga tutash bo'lgan Shimoliy Eronning tog'li xudlari hisoblanadi. Bu yerda neolit davrida Jarmo madaniyati (VII-VI ming yilliklar) yoki ayrim tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra zagros madaniy birligi turidagi madaniyati rivojlangan. Jarmo madaniyatiga tegishli Jarmo yodgorligidan tashqari Zagros tog'larining Iroq qismida Telshimshara, uning Eron qismida esa Tepaisarob va Tapaiguranlar mavjud.

Jarmo yodgorligi eman o'rmonlar tarqalgan hududda joylashgan bo'lib, madaniy qatlamlarining qalinligi 7 metrni tashkil etadi. Bu manzilgohda aniqlangan uylar loydan qurilgan, ayrim hollarda ularning tag devorlari toshdan terilgan.

Jarmo madaniyati uchun plastinkasimon kremendan geometrik shaklidagi tosh qurollarini yasash xos belgilaridan biri sanaladi. Jarmoliklar dastlab sapol yasashni bilishmagan, keyinchalik sapol buyumlari paydo bo'lib, ularning sirtiga naqshlar berilgan. Loydan turli o'yinchoqlar, hayvon va ayol haykalchalarini yasashgan. Topilmalar orasida toshdan yasalgan o'roq, bolta, motiga, keli va qo'l tegirmoni va suyaklarda yasalgan buyumlar xo'jalik xususiyatlarini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Jarmo aholisi xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shallari bilan shug'ullanganliklari shubhasiz. Dukkakli o'simliklardan kuyib ketgan bug'doyning asosiy ikki turi va bir turdagi arpa, no'xat va tariq donlari aniqlangan. Ulardan bug'doy va arpa shubhasiz madaniylashtirilgan. Hayvonlardan dastlab echki xonakilashtirilgan. Cho'chqaning ham xonakilashtirilgani ehtimoldan holi emas. Go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning bir qismi yovvoyi hayvonlar hisobidan qondirilib, xo'jalikning ovchilik shakli ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik shakllariga o'tish Old Osiyoning tog' va tog' oldi hududlarida sodir bo'ladi. Ammo mazkur hududlar keyingi davr taraqqiyotida asosiy markazlariga aylanmay qoladi. Bu hududlarda hosildorlik yuqori va barqaror bo'lmagan. Qadimgi dehqonlar Osiyo va Afrikaning serhosil va subtropik daryo vohalariga o'tish bilan ularning ishlab chiqaruvchi kuchlarning tezlik bilan va jamiyatning sivilizatsiya ostonasida bo'lgan keyingi taraqqiyot bosqichiga o'sib o'tishiga olib keldi. Yog'angarchilik mig'dori yetarli bo'lmagan yangi iqlim sharoiti kishilarning agrar ishlab chiqarishining yangi shakli-sug'orma dehqonchilikga o'tishlariga turtki bo'ldi. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik nafaqat barqaror hosil olish imkoniyatini yaratdi, balki, boshoqli ekinlarning hosildor navlarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Mil.av.VII ming yilliklarda Zagrosning dehqon-chorvador qabilalari yangi ekin maydonlari va chorva yaylovlarini izlab yangi hududlarni ishg'ol qila boshladi. Bu birinchi navbatda Mesopotamiya pasttekisliklari bo'lib, ilk qishloqlari paydo bo'la boshladi.

Qadimgi dehqonlarning ilk qishloqlaridan biri Aliqush yodgorligi hisoblanib, u Mesopotamiya pasttekisligining sharqida hozirgi Eron hududida joylashgan.

Yodgorlik madaniy qatlami 7,5 metrni tashkil etib, tadqiqotchi olimlar tomonidan ikki bosqichi: Bas Mordex (mil. av. 75006750 yillar) va Aliqo'sh (mil. av. 6750-6000 yillar). Ilk bosqichidagi uyjoylar qo'pol xom g'ishtlardan barpo qilingan. Ularda xo'jalikning asosini chorvachilik shakli tashkil etgan. Asosan shoxsiz echki va qisman qo'y boqishgan. Ovchilik ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, termachilik ham asosiy oziq-ovqat yetkazib beruvchi tarmoq sifatida saqlanib qolgan. Topib o'rganilgan boshhoqli o'simliklardan bir qatorli arpa va bug'doylarning atigi undan to'qqiz qismini yovvoyi o'simliklar tashkil etadi. Tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra mazkur bosqichga oid manzilgohlar Zagrosdan qish mavsumida yashagan chorvador-ovchi qabilalarga tegishli bo'lib, ular dehqonchilik bilan tanish bo'lishgan. Aynan mana shu qabilalarning vohaga siljishi o'troq dehqonchilik madaniyatining qaror topishiga sabab bo'lgan.

Xassun madaniyati. Dastlab o'rganilgan arxeologik yodgorlik nomi bilan yuritiladigan madaniyat. Bu madaniyatni yaratgan qadimgi aholi loydan qurilgan uylarda istiqomat qilishgan. Bu madaniyatning so'nggi bosqichlariga kelib, tosh qurollar inqirozi boshlanib, misdan ishlangan buyumlar paydo boshlaydi. Sopol idishlarga geometrik bezak va o'yma naqshlar yoki ularning ikki turi ishlatilgan. Bu madaniyat egalari qish mavsumida dehqonchilik yuritish uchun yetarli miqdorda yog'ingarchilik bo'ladigan kam saqlanadigan tog' etagi hududlarida tarqalishgan. Xassuliklar madaniyati asosan ikki joyda: Xassun yodgorligi saqlangan Mosul va Yarimtepa I yodgorligi joylashgan Sinisor hududlarida to'plangan. Xassun o'troq dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan madaniyat. Dehqonchilikda yumshoq, qattiq bug'doy va arpa ekishgan. Topib o'rganilgan hayvon suyaklarining 5/4 qismini xonaki hayvonlarniki tashkil etib, ular qo'y, echki, cho'chqa va qoramolga tegishli. Aholisi maydalangan xas- hashak qo'shilgan bloklardan tug'ri to'rtburchak tarxidagi uylarda istiqomat qilishgan. Shuningdek, oval shaklidagi uylarning o'rni Xassun I yodgorligida aniqlangan.

Sopol idishlarga maydalangan somon qo'shib, qalin qilib ishlangan. Asta-sekin sopollarni pishirish takomillashgan. Yarimtepa yodgorligidan ikki yarusli xumdon topib o'rganilgan. Idishlarning naqshlari qora va qizil ranglarda bo'yalgan. Xassun madaniyatiga oid idishlar kosa va ko'zalardan tashkil topgan. Misdan yasalgan buyumlar Xassun madaniyatining barcha bosqichlariga oid madaniy qatlamlarida uchraydi. Serdolik, xalsedon va feruza toshlardan yasalgan turli munchoqlar topilgan. Shuningdek, toshdan yasalgan muhrlar ham uchraydi. Loydan yasalgan terrokota-ayol haykalchalari mavjud.

Samrr madaniyati. Bu madaniyat Xassun madaniyatining so'nggi bosqichidan boshlab rivojlanib, Dajla daryosining o'rta oqimida (Samarr, Savvon yodgorliklari), undan sharqda Zagros tog' oldi hududlarida (Matarra, Chogi Mami) va Furadan g'arbdagi (Boguz) hududlarda tarqalgan. Bu davrga oid imoratlar ko'p xonali uy-joylardan tashkil topgan. Sopol idishlari geometrik va zoomoror, xususan bir yoki bir guruh yirtqich hayvonlar va sudraluvchi jonivorlar tasviri bilan bezatilgan. Ayol haykalchalari tosh va terrokotadan yasalgan. Samarr davriga kelib xo'jalik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Suniy

sugʻorish joriy qilinadi badiiy madaniyat taraqqiyoti ommaviylashadi. Mazkur hududda yogʻingarchilik miqdorining kamligi dehqonchilikda suniy sugʻorishdan foydalanishga sabab boʻlgan. Ular olti qator bugʻdoy ekishgan. Boshqa bir yodgorlik Chogi Mamidan qadimgi ariqning oʻrni aniqlangan. Dehqonchilikdan tashqari chorvachilik va qisman ovchilik bilan ham shugʻullanishgan. Savvan yodgorligining ilk bosqichiga oid koʻpxonali uylar madaniy qatlamlaridan toʻgʻri toʻrtburchak xom gʻishtdan qilingan. Atrofi xandak bilan oʻralgan. Uylardan birining tokchasidan alebastrdan ishlangan haykalcha topilgan. Uylar sathida bukchaytirib yon tomonga koʻmilgan yosh bolalarga tegishli suyalar topilgan. Murda kamishga oʻralib, ustiga oxra sepilgan. Kuzatuv buyumlari toshdan ishlangan idishlar, alebastrdan oʻyib (vitogenniy) ishlangan haykalchalar va zeb-ziynat buyumlaridan iborat.

Savvana III yodgorligi koʻp xonali uy-joylarlar va xoʻjalik imoratlaridan tashkil topgan. Hovlida oʻchoq va xoʻjalik maqsadlarida foydalanilgan oʻralar joylashgan. Uylarning devorlari tashqi tomondan muntazam barpo qilingan “plyastr” bilan boyitilgan. Shuningdek, yirik hajmdagi alohida joylashgan imoratlar majmuasi, koʻrinishdan umumjamoaning ibodanxonasi vazifasini bajargan. Bu manzilgoh aylana devor bilan oʻralib, uning atrofi xandak bilan kuchaytirilgan.

Savvana II davriga kelib, sopol idishlarning sirtiga geometrik naqshlar berish anʼanasi paydo boʻladi. Uchinchi bosqichga kelib yupqa sapol idishlar yasala boshlanadi. Naqshlar jigar yoki toʻq sariq ranglarda berilgan. Idishlar sirti naqshlardan tashqari ayol, suvda yashovchi parrandalar, baliqlar, oʻrmon ohulari, echkilar, “krabi”, chayonlar tasviri keltirilgan. Samarr madaniyati qadimgi dehqonchilik aholisi amaliy sanʼatining bezak, abstraksiya va simvolizm alomatlarini oʻzida namoyon qiladi.

Mesopotamiyaning chekka janubida (mil. av. VI ming yillikning oxiri–V ming yillikning boshlari) shumerliklarning eng qadimgi shahar markazi hisoblangan Erudu (hozirda tell Abu Shaxrayn) ning quyi qatlamidan Samarr madaniyatiga oʻxshan kompleks aniqlangan. Xom gʻishtdan barpo qilingan aholi uy-joy imoratlari bilan toʻq jigar yoki qizil boʻyoqlarda geometrik naqshlar berilgan sapollari aniqlangan. Xom gʻishtlar va sapollari naqshlarining dalolat berishicha bu madaniyat sohiblari Samarr madaniyati bilan maʼlum aloqada boʻlganligidan dalolat beradi. Bu manzilgohning quyi madaniy qatlamidan ibodatxonaning oʻrni aniqlangan.

Xalaf madaniyati (mil. av. V ming yillikning boshlaridan oxirigacha). Bu madaniyat Mesopotamiya shimolida Dajla daryosining ikkala sohilida Mosul hududida tarqalgan boʻlib, sharqiy guruhini tashkil etadi. Bu guruh madaniyati Xassun madaniyatiga oid (Xassunna, Nineviya Yarimtepa II) yodgorliklarning yuqori qatlami oʻzida aks etadi. Gʻarbiy guruhi Furot daryosining soʻl irmogʻi Xabur daryosi oqimi hududlarida tarqalgan Chogarbozor, Telbrak, Telxalaf va boshqa yodgorliklarda mazkur guruh moddiy madaniyati aksini topgan. Xalafliklarning uylari qurilishi ilk davri anʼanasida barpo qilingan. Uylarning devorlari bloklardan barpo qilinib, ayrim hollarda ularning poydevorlarga tosh terilgan. Uylarning asosiy qismini aylana (Yarimtepa II), qolganlarini toʻgʻri toʻrtburchak shakldagilari (asosan Arpachiya) tashkil etadi. Xoʻjalik imoratlari ham

aylana shaklda barpo qilingan. Ayrim imoratlar kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishiga mo'ljallangan. Ikki yarusli xumdonlar (Yarimtepa II) ham aniqlangan. Manzilgohlarning ichkarisida ko'pincha yosh bolalarga tegishla qabrlar joylashgan. Murdalar yon tomonga yotqizib, boy kuzatuv buyumlari bilan birga ko'milgan. Sharqiy guruhdagi yodgorliklardan kremen va obsidianlardan yasalgan mehnat qurollari qisman topib o'rganilgan. Ular o'roq, bolta, teshalardan iborat. Misdan ishlangan tesha va xanjarlar topilgan. Shuningdek, misdan ishlangan munchoqlar va muhrlar Yarimtepa II yodgorligida topilgan. Sapol idishlari qo'lda yupqa qilib ishlangan. Naqshlari sarg'ish-to'q sariq tagga qizg'ish- jigar va jigar rangdagi bo'yoqlar bilan o'simlik bezaklarini eslatuvchi razetkalar, qisman hayvonlar ohu, bars, qush, baliq, ilonlarning tasvirlaridan iborat. Ayrim hollarda, idishlar antropomorf yoki zoomorf shaklida yasilib, sirtiga naqshlar berilgan. Xalaf madaniyatining so'nggi bosqichlariga kelib, idishlar naqshi asosiy o'rin tutmay qo'yadi. Bu kulolchilik ishlab chiqarishining maxsus hunarmandchilik turi sifatida paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Ixtisoslashgan hunarmandchilikning boshqa bir turi toshlarga ishlov berish (sangtaroshlik) bo'lib, ulardan uyro'zg'or buyumlar, taqinchoqlar, tumorlar, muhrlar tayyorlashgan. Shuningdek, buqa, cho'chqalarning boshi va qush tasvirlaridan iborat taqinchoqlar yasalgan. Terakkotik haykalchalarda asosan ayollarning o'tirgan holatdagi tasviri tashqi bezaklari bilan birgalikda berilgan.

Xalaf madaniyatiga oid moddiy topilmalari namunalarida Old Osiyoning qadimgi dehqonchilik aholisi madaniy xususiyatlari davomi sifatida namoyon bo'lsada, Mesopotamiyaning shimoliy hududiga xos an'ana tarkibida bo'lganligini ko'rish mumkin.

Ubeyda madaniyati (mil. av. 4500-3500). Bu madaniyatga oid muhim yodgorlik sanalgan Eruda manzilgohidan mil av. 4500 yillarda bino qilingan eng qadimgi ibodatxonaning o'rni arxeologik qazish ishlarida aniqlangan. Ibodatxonaning devor xiyla qalin, tashqi tomondan zinasimon plyastr bilan boyitilgan. Uning atrofida aholining nufuzli qatlamlariga tegishli va ularga yaqin bo'lgan joyda hunarmandlar uy-joy imoratlari va undan keyin dehqon jamoasi uy-joy imoratlari joylashgan.

Yirik hajmdagi qalin devorli imorat-ibotxona yoki "jamoasardoriga" tegishli ushbu madaniyatning Telulkeyr manzilgohida aniqlangan. Diniy me'morchilik uchun xos bo'lgan zinasimon minorazikkurat Shumerda Ubeyda davridayoq qurila boshlagan bo'lishi mumkin. So'nggi Ubeyda davrida diniy imoratlar qurilishi taraqqiyoti jamiyat ijtimoiy hayotida ibodatxonaning o'rni ortib borayotganidan va janubiy Mesopotamiya jamoasi ishlab chiqarish imkoniyatlarining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Erudu manzilgohidan nikropol ochib o'rganilgan. Qabrlar xom g'ishtlardan aylantirib terib chiqilgan. Murdalar turli kuzatuv buyumlari: sapol idishlar, terrakotik haykalchalar qayiqning loydan yasalgan nusxasi kabilar bin qo'shib ko'milgan. Qayiq nusxasi mesopotamiyaliklar suv yo'llarini o'zlashtirganliklaridan dalolat beradi. Bu davrda kremendan yasalgan tosh qurollari ahamiyatini butunlay yo'qotadi. Metallardan yasalgan buyumlar kam topilsada, ularning loydan ishlangan

nusxasi topilgan. Demak, bu davrda metall xom ashyosining kamligi sababli yaroqsiz holga kelgan buyumlarni qayta ishlatib yangi qurollar yasashgan. So‘nggi Ubeyda davrida kulolchilikda sekin aylantiradigan charxlar paydo bo‘ladi. Shuningdek, sapol idishlaridagi naqshlarning sifati pasayib ketadi.

Terrakotik haykalchalarida asosan tik turgan ayol, qisman erkak tasvirlari berilgan. Ayrim haykalchalarda ayol ko‘kragida bolasi bilan tasvirlangan bo‘lib, bu hosildorlik ramzi ekanini bayon qilgan.

Uruk madaniyati (mil.av. IV ming yillikning ikkinchi yarmi). Bu davrda manzilgohlarning tabaqalashish jarayoni kechadi. O‘troq dehqon jamoasining kichik hajmdagi qishloqlaridan tortib, bir necha o‘n gektardan ortiq maydonni egallagan yirik shahar toifasi qaror topadi. Masalan Uruk shahrining bu davrdagi maydoni 45 gektarni tashkil etgan. Shahar markazlari me‘morchiligida ibodatxonalar markaziy o‘rinni egallagan. Uruk shahrida shumerlar tilida E-anna nomi bilan yuritilgan ibodatxonaning o‘rni aniqlangan. Ibodatxona 16 metr balandlikdagi tagkursi ustiga qurilib, atrofida mudofaza devorlari bilan o‘rab olingan. Ibodatxona o‘rtasida bosh xudo sharafiga yasalgan haykal joylashgan. Ibodatxona bir necha marotaba qayta qurilgan. Boshqa turdagi ibodatxona Inan xudosi sharafiga barpo qilinib, tomonlari 75x25 metrni tashkil etadi. “Oq ibodatxona” (tomonlari 83x53 metr) devorining sirti tashqi tomondan ohaktoshlar bilan qoplangan.

Yirik ibodatxona devorlari tagdevorlari ohaktoshlar bilan qoplangan bo‘lib, ular pastekistliklarga bir necha yuzlab kilometr uzoqlikdagi Zagros tog‘laridan keltirilgan. Og‘ir va mashaqatli ishlarni amalga oshirishda ma‘lum texnik vositalardan foydalanishgan. Ma‘lumki, mil.av. 4 ming yillikning ikkinchi yarmida to‘rt g‘ildirakli arava va turli shakllardagi aravalardan tashqari chanalar mavjud bo‘lgan.

Mahobatli ibodatxona majmualari Mespotamiyaning barcha shahardavlatlarida mavjud bo‘lib, ular ibodatxona tashkiloti va xo‘jaligining ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Unda shahar davlatning asosiy moddiy boyliklari jamlangan. Arxeologik tadqiqot ishlari natijasida qimmatbaho va rangli metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zebziyat, san‘at va boshqa turdagi buyumlar majmuasi topib o‘rganilgan. Bu davrda shaharlar hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo markazlariga aylanadi. Hunarmandchilik ixtisoslashuvi kengayib boradi. Kulolchilikda tez aylantiradigan charxlarda keng foydalanila boshlaydi. Irrigatsiya tizimining takomillashuvi sug‘orma dehqonchilikning taraqqiyotiga asos bo‘ldi. Mesopotamiya yodgorliklarining janubdan shimolga tomon ma‘lum bir chiziqda joylashishiga ko‘ra ular yagona sug‘orish inshooti asosida suv bilan ta‘minlanganligini ko‘rsatadi.

Jamdet Nasr (mil av. 3100-2900 yillar) davrida sapol idishlarning sirtini naqshlar bilan bezash an‘anasi qayta paydo bo‘ladi. Ular murakkab bo‘lmagan qora va qizil rangdagi bo‘yoqlarda berilgan geometrik naqshlar va hayvon tasvirlaridan iborat.

Ijtimoiy martabalar tabaqalanishining chuqurlashuvi va mehnat faoliyati ixtisoslashuvi. Siyosiy va diniy hokimiyat asta-sekin jamiyatni boshqaruvchi kuchga

aylanib boradi. Ilgari hokimiyat boshqaruvi va qabila ichki birligini belgilovchi qon-qarindoshlik hukmronligi asta-sekin yo'qola boradi. Har qanday qon-qarindoshlik qoidalar tizimi, huquq va imtiyozlar oxir oqibat ma'muriy davlat tizimi tomonidan o'rnatilgan qonunlar bilan siqib chiqarildi.

Janubiy Mesopotamiya tarixida shu davr ichida ko'pgina o'zgarishlar sodir bo'ladi. Qishloqlarning shahar darajasiga o'sib chiqishi, yangi shaklga ega bo'lgan sifatli sopol buyumlarning paydo bo'lishi, muhrlarning xususiy mulkni tasdiqlovchi vosita sifatida paydo bo'lishi, yozuvning kashf etilishi shular jumlasidandir. Ayrim tadqiqotchi olimlar bu o'zgarishlarni ajnabiy kelgindilar ta'siri natijasida deb biladilar. Arxeologik tadqiqot natijalariga ko'ra, eng qadimgi Ubeyd davrida me'moriy va texnologik an'analarda sezilarli uzilish ko'zga tashlanmaydi. Boshqa bir olimlarning ilmiy nazariyalariga ko'ra, shahar inqilobi negizida irrigatsiya tizimining takomillashuvi asosiy o'rin tutishini ta'kidlashadi. Nazariya asoschilaridan biri Karl Vittofogel fikrlariga ko'ra, irrigatsiya tizimining joriy qismida kanallar barpo qilish, tozalash kabi ishlarni bajaradigan ishchi kuchini ta'minlash va ularni nazorat qilish uchun kuchli jamiyat zarur.

Umuman, Jamdat Nasr davri (mil av. 3100-2900 yillar) shahar markazlarida mahobatli ibodatxona imoratlarini qurish davom etadi. Uruk shahrida odatiy ibodatxonalardan tashqari Zikkuratlar barpo qilina boshlaydi. Masalan erkak ilohi Anu ilohi sharafiga barpo etilgan zikkurat bo'lgan. Xafaj shahrida esa boshqa bir iloh Sin sharafiga barpo etilgan ibodatxonaning o'rnini aniqlangan. Jamdat Nasr xarobalaridan aniqlangan boshqa bir mahobatli imoratning o'rnini tadqiqotchi olimlar saroy bo'lgan, deb hisoblaydilar. Jamdat Nasr usulida ishlangan silindrlil muhrlar Janubiy Mesopotamidan tashqari Eron, Suriya va hatto Misr hududlaridagi yodgorliklardan ham ham uchraydiki, mazkur hududlarda ham ushbu turdagi madaniyat an'analari bilan jamiyat taraqqiyoti birdek kechganligidan dalolat beradi.

Bu davrga oid madaniy qatlamlaridan misdan ishlangan bolta va kuraklar ko'plab topilgan. Mis, kumush va hatto qo'rg'oshindan ham idishlar tayyorlangan. Shuningdek, fayans (ganch aralash sapol) buyumlar ham paydo bo'ladi. Shaharlarda sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik turlari taraqqiyoti yuksalib boradi.

Yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarda turli mansabdor shaxslar o'rtasida chek yerlariga egalik qilish to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularda yetakchi o'rinni hukmdor-qohin egallab, unga ajratilgan yer umumiy yerning 2/3 qismini yoki 1000 ga. maydonni tashkil etgan. Qolgan 500 ga maydon yer oliy koinlar, avliyolar, savdo dallollari va sudyalalar o'rtasida taqsimlangan. Boshqa bir yozma manba ma'lumotlarida erkak va ayol qullar to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Mahalliy ilohlar sharafiga barpo etilgan ibodatxona majmuasidan tashkil topgan katta shahar markaziga ega bo'lgan yirik shahar markazlari taraqqiyoti tadqiqotchi olimlar tomonidan shahar-davlatlar sifatida talqin etiladi.

Jamdat Nasrdan keyingi davr ilk sulolalar davri atamasi bilan yuritilib, o'z navbatida uning uch bosqichi ajralib turadi. Birinchi bosqichi (2900-2850), ikkinchi bosqichi (2850-2600), uchinchi (2600-2400). Bu davrda bronzadan ishlangan buyumlar keng tarqaladi. Jamiyatning yuqori tabaqasi vakillari manfaatlariga javob

beradigan zargarlik san'ati takomillashadi. Qurol yarog'lar ishlab chiqarish rivojlanadi. Jangavor bolta, nayzalar va turli xildagi nayzalarning ko'plab topilishi qadimgi Shumerda harbiy ishlarga bo'lgan e'tibor naqadar yuqori bo'lganligidan dalolat berib, harbiy qarama-qarshilik quchayotgani ko'rsatadi. Dunyoviy hokimiyatning mavqei mustahkamlanib, boshqaruvda ibodatxona ma'muriyatini o'ziga bo'ysundira boshlaydi.

Yirik shahar markazlari xarobalarni o'rganish davomida aniqlangan qabrlar bu jarayonlarni to'liq ifodalaydi. Ilmiy taxminlarga ko'ra bu sag'analar ilk sulolalar davri uchinchi bosqichining boshlariga tegishli bo'lgan. Sag'analar ichki tomondan pishgan g'isht bilan qoplanib, tepa qismi gumbaz shaklida yopilgan. Kuzatuv buyumlaridan oltindan yasalgan buqa tasviri diqqaga sazavor. Undagi ayrim alomatlariga feruza toshdan foydalangan. Ubeyda davriga oid Eruda manzilgohi qabrlari kuzatuv buyumlari orasida qayiqchani nusxasi tassviri berilgan bo'lsa, Ur davri qabrlaridan esa kumushdan ishlangan eshkakli qayiqchlarning nusxalari aniqlangan. Bunday qayiqchlarning jamiyat a'zolarining eng yuqori a'zolari, ya'ni mansabdor shaxslarga tegishli bo'lgan. Maskalamdu ismli hukmdorga va hukmdor (yoki kohin) Aborge va Puabi shaxslariga tegishli qabrlar ma'lum. Bunday qabr sohiblari qo'li ostida ulkan boylik to'plangan bo'lib, janubiy Mesopotamiya-Shumerning barcha shahar davlatlarida mavjud bo'lgan. Yirik shahar markazlaridan eng yirigi Ur hisoblangan. Bu shaharda oy xudosi Nana sharafiga barpo etilgan ibodatxona bo'lgan. Shumerdagi yirik savdoiqtisodiy va markaz sanalgan.

Boshqa bir shaharlari Erudu (Abu Shaxrayn), Uruk, Lagash (Shirpurla), Adab, Umma va boshqalar. Uzoq o'lkalar bilan savdo-madaniy aloqalarning kuchayganligidan dalolat beradi. Masalan, bu davrda Hindiston bilan keng savdo aloqalarining olib borilganligi arxeologik jihatdan aniqlangan. Mazkur shahar davlatlar o'rtasida janubiy Mesopotamiya hukronligi uchun doimiy kurash kechgan.

Shimoliy Mesopotamiyada bu jarayon mazkur davrda sekinroq kechadi. Mil. av. 3 ming yillikning birinchi yarmiga oid Xabur daryosi vodiysidagi Tel Brak yoki boshqa bir Tepe Gavra yodgorliklarida namoyon bo'lib, nisbatan chuqur kechmagan. Keyingi bosqich shaharlardan Xafaj, Ashnunak (Tel Axmar), Kish. Mil av. 3 ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab esa Shimoliy Mesopotamiya – Akkad shaharlarining mavqei kuchayadi.

Sharqiy O'rta Yer dengizi-ma'muriy jihatdan Suriya, Livan va Falastin hududlarini tashkil qilib, tabiiy shart-sharoitiga ko'ra keskin farq qiladigan ikki mintaqadan iborat. Birinchisi dengiz bo'ylab uzunasiga joylashgan yumshoq O'rta Yer dengizi iqlimi, hosildor tuproq va qulay dengiz qo'ltig'idan iborat. Ikkinchisi, keskin mo'tadil iqlimga ega bo'lgan keng maydondagi yassitog', cho'l, yarim cho'l va kichik daryo vohalaridan tashkil topgan mintaqadan iborat. Masalan, O'lik dengizga quyiladigan Iordan daryosi va Suriyani shimoliy-g'arbida shimol tomonga kesib o'tgan Oronto daryosi vodiysi.

Ma'lumki, mazkur hududda ishlab chiqarish xo'jalik shakliga o'tish nisbatan ancha erta shakllanadi (Iyerixon, Murabbit). Keyingi bosqichida jamiyat taraqqiyoti sekinlashadi. Mahalliy dehqonchilik asosining chegaralanganligi, geografik jihatdan alohida tarqoq vohalardan tashkil topganligi yirik va yuksak taraqqiyotga ega

bo'lgan jamiyat rivojiga to'sqinlik qildi. Natijada, mazkur hudud keyingi davrda rivojlangan sivilizatsilari Misr va Shumerlar bilan madaniy aloqasi muhim o'rin tuta boshlaydi. Asosan qo'shni markazlar bilan madaniy aloqada bo'lishda Livanning kedri, vinosi va zaytun yog'i asosiy vosita bo'lgan. Bu yerda keyinchalik shahar madaniyati yuksak darajada rivojlangan qo'shnilari ta'siri natijasi hisoblangan.

Sharqiy O'rta Yer dengizi rivojlanish sur'ati teng bo'lmagan alohida hududlardan tashkil topganligi uchun butun mintaqaning tarixiy tarqqiyoti umumiy holda davrlashtirishni imkoniyatini qiyinlashtiradi.

Suriya-Kilikiya neoliti. Mil. av.VI ming yillikda Suriya va Livan hududlarida Suriya-Kilikiya neoliti nomi bilan yuritiladigan o'troq dehqonchilik madaniyati tarqalgan. Bu turdagi madaniyat Kichik Osiyo, ya'ni Turkiyaning janubi-sharqiy hududlarida (Mersin) ham tarqalgan. Bu madaniyatga oid aholi dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik shakllari bilan shug'ullanishgan. Ziroatchilikda—*arpa, bug'doy*, chorvachilikda—*qo'y, echki, qoramol va qisman cho'chqa* boqishgan. O'troq aholi qishloqlarining o'rnini Bibla va Ras-Shamra yodgorliklarining quyi qatlamlarida va Oronta vohasidan Xami hamda Shimoldagi Amuk yodgorliklaridan aniqlangan. Bibladagi uylar tarhiga ko'ra, to'g'ri burchak, ayrim hollarda tagdevori toshdan terilgan. Xonalar sathi oq rangda bo'yoqda bo'yalgan bo'lib, Iyerixon an'analarini davom ettiradi. Sopol idishlari qo'lda qalin qilib yasalgan va sirtiga *ko'kimtir*-qora yoki sarg'ish rangdagi angob berilgan.

Qishloqdagi qabrlardagi murdalar bukchaytirib ko'milgan. Kuzatuv buyumlari neolit davri suyak bigizlar, tosh bolta, chaqmoqtoshdan ishlangan o'roq ishlangan tig'laridan iborat.

Mil.av. V ming yillikka kelib, Shimoliy Mesopotpmiyadan Xalaf madaniyatining ta'siri aniq namoyon bo'la boshlaydi. Amuk S kompleksining madaniy qatlamlaridan chetdan keltirilgan sopol parchalari uchraydi. Ularning tuproq tarkibini mikroskop yordamida o'rganish natijasida Xalaf madaniyatiga oidligi aniqlangan. Mahalliy kulollar mahsulotlarini chetdan keltirilgan sopol idishlarga o'xshash naqshlar bilan bezashadi. Bu turdagi an'ana Shimoldagi hududlar va shuningdek, Oronta vohasining o'rta qismida (Xama L) keng tarqalgan. Xalaf madaniyati ta'siri Ras-Shamra IV da ham kuzatiladi. Biblada esa qora rangda naqshsiz ishlangan sopollar yasash mahalliy an'anasi davom etadi. Mil. av.VI ming yillikda Xalaf madaniyati ta'siri Ubed madaniyati bilan almashadi. Bu davrda misdan yasalgan buyumlar turi keng tarqaladi.

Mil. av. IV ming yillikda Suriyaning shimolida yangi o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar sopol idishlarida naqshlar naqshlash an'anasi, sirtiga qizil va sarg'ish angob berilgan idishlar bilan almashadi. Ularning shaklida o'zgarish bo'ladi, baldoqli idishlar turi ko'payadi.

Biblada (Livanning chap tomonida, Bayrutdan shimolda joylashgan) ham (kompleks B) mil.av. 3600-3200 yillarda ma'lum muddatli tashlandiqdan so'ng hayot qayta jonlanadi. Manzilgoh 3 ga.ni tashkil qiladi. Qishloqdagi imoratlar tartib bilan qurilib, ko'chalariga tosh to'shalgan. IV ming yillik oxirlarida sopol idishlari

charxda yasaliib, xumdonlarda pishirilgan. Mis, oltin va kumushdan turli buyumlar yasaladi. Bu davrda shuningdek, bronza quyish an'anasi vujudga keladi. Metallardan uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari va qurol-yarog'lar bilan birgalikda idishlar va haykallar ham yasaladi. Dehqonchilikda ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Doimiy boshqoqli ekinlardan tashqari uzum va zaytunlar ham ekila boshlaydidi. Mesopotamiya bilan quruqlik orqali, Misr bilan esa dengiz orqali savdo yo'lining ahamiyati ortib, xalqaro savdoda shaharning ahamiyati yuqori bo'lgan. Dehqonchilik, ixtisoslashgan hunarmandchilik va savdo munosabatlarining rivojlanishi Yaqin Sharqda shahar shaklidagi aholi manzillarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bibl atrofi toshdan qad ko'targan mudofaa devoridan iborat shaharni tashkil qilgan. Arava yurishi uchun mo'ljallangan keng ko'chalariga shag'al tosh to'shab chiqilgan. Tagdevori toshdan barpo qilingan ibodatxonalar quriladi. Mil. av. III ming yillikning oxirlarida shaharga homiylik qilgan ma'budi-Baalat Gabal (mahalliy Astart ma'budi) sharafiga barpo qilingan ibodatxonadan Misr yozuvi tushirilgan vaza topib o'rganilgan. Misr bilan savdo aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilganligi arxeologik qazishmalar jarayonida u yerdan topib o'rganilgan metallardan ishlangan uy-ro'zg'or buyumlarining dalildir. Bu yerdan aksincha Misrga vino va zaytun yog'i olib borilganligini Misrdagi arxeologik yodgorliklaridan aniqlangan idishlar orqali anglash mumkin.

Jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar nafaqat dengiz bo'yidagi yirik shahar markazlarida (Ai, Meggido, Aloloh, Laxish va boshqa shaharlarda) sodir bo'ldi. Hozirgi Quddus (Iyerussalim) shahri yaqinida Ai manzilgohi mil. av. III ming yillikning birinchi yarmida (2900-2500) uch qator mudofaa devori bilan muhofaza qilingan shahar bo'lib, u yerdan kichik ibodatxona va nisbatan yirik ibodatxona yoki saroyning o'rni aniqlangan. Falastinning shimolida Ezdrelon vohasida neolit davri manzilgohi o'rnida III ming yillikning boshida (mil. av. 3000 yillik) muhofaza qilingan shaharga aylanadi. Shahar Misrdan Suriya-Mesopotamiya savdo-madaniy aloqalari chorrahasidagi muhim markaz hasoblangan. Shahar antik davrining boshlariga qadar taraqqiy etadi.

Oronto daryo vohasidagi Amuk tekisligida joylashgan eneolit davri Atchana manzilgohi IV ming yillik oxirida qadimgi Aloloh shahri shakllanadi Uning III ming yillikning birinchi choragiga qadar bo'lgan madaniy qatlamlaridan tagkursi ustida barpo qilingan kichik ibodatxonaning o'rni olib o'rganilgan.

Bu davrda jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bilan birga ijtimoiy tuzilmasi ham murakkablashib bordi. Turli tabaqa vakillari imkoniyatlari va manfaatlariga mos uy-joy imoratlari vujudga keldi. Biblda yirik uyning o'rni aniqlangan. Telbarsibda 3 ming yillik o'rtalariga oid sardor yoki kohinga tegishli qabr aniqlangan. Mil. av. II ming yilliklarga oid shaharlar turidagi manzilgohlar ichki tuzilmalari murakkablashib boradi. Bu turdagi manzilgohlar taraqqiyoti kichik shahar-davlatlar shakllanishi bilan tugaydi. Shunday shahar-davlatlardan biri Tel Mardix yodgorligi hisoblanib, qadimgi Ebla bilan qiyoslanadi.

Falastin hududida 6-5 ming yilliklarda neolit davri madaniyati Iyerixon madaniyatidan unchalik farq qilmagan. Budavrda qo'lda yasalgan qo'pol sopol

idishlari yangilik sifatida paydo bo'ldi. 4-ming yillikning birinchi choragidan boshlab Bersheb va Hassul yodgorliklarida yer usti uyjoylardan tashkil topgan qishloqlar paydo bo'lgan. Xo'jaligining asosini arpa, bug'doy yetishtirishga asoslangan dehqonchilik va chorvachilik tashkil qilgan. Metallardan foydalanish boshlangan bo'lsada, tosh qurollari o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Sopol idishlari sekin aylantiriladigan charxda ishlangan. Sug'orma dehqonchilik shakllangan. Murdalar sopol idishlarda hamda qabrlarda ham ko'milgan. Unchalik katta bo'lmagan ibodatxona ko'pgina yodgorliklardan (Enbedi, Meggido) topib o'rganilgan.

Bronza davri. Ilk bronza (3100-2200) ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarishi va mudofaa qilingan aholi manzillarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ilk bronza davrida ikki qavatli xumdonlar va kulolchilik charxi paydo bo'ldi. Misdan ishlangan uy-ro'zg'or buyumlari va qurol-yarog'larning ko'plab nusxalari topib o'rganilgan. Shahar shaklidagi manzilgohlari eski joyida (Iyerixon, Meggido) va ayrimlari yangi joyda rivojlanadi. (Laxish, Ai). Ularning mudofaa devoriga ega bo'lib, aylana yoki to'g'ri burchakli burjlar bilan kuchaytirilgan. Meggidoning mudofaa devorining qalinligi dastlab bosqichlarida 4,5 metrni tashkil etgan, keyinchalik qo'shimcha qurish natijasida 8 metrgacha yetgan. Mudofaani mustahkamlash uchun shahar darvozasi tor qilib ikki tomondan mudofaa burjlari bilan qurilgan. Shaharlarda ibodatxona, nufuzli aholi uy-joylari, hukmdor saroyi joylashgan. Iyerixon III madaniy qatlamida ko'pchilik (50-90 kishi) ko'milgan qabrlar, hatto ulardan birida 300 murda ko'milgan qabrlar aniqlangan.

3 ming yillikning oxiri-2 ming yillikning boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yangi bosqichga ko'tariladi. Iordan vohasidagi Xazor yodgorligining maydoni 50 gektarga yaqin bo'lgan. Saroy va ibodatxonalar yiriklashadi. Shaharning nufuzli kishilari uy-joy imoratlari mahobatli ko'rinish oladi. Bu davrda aholi o'rtasida mulkiy tabaqalanish yoki ijtimoiy tengsizlik to'liq vujudga keldi.

Kichik Osiyoning tabiiy-sharoiti. Kichik Osiyo (Turkiya) hududi tabiiy-geografik tuzilishi va iqlim sharoiti jihatdan o'zaro farq qiladigan bir necha qismlardan tashkil topgan. U ko'pgina tabiiy-geografik hududlardan tashkil topgan. Ular tog'li o'lkali mintaqalardan iborat bo'lib, shimolida Pont, janubida esa Tavr tog'lari bilan o'ralgan tog'oldi Anatoliya vohalari va namchil iqlim sharoitiga ega dengiz sohil hududlaridan tashkil topgan. Mazkur hudud turli tabiiy geografik muhitlardan tashkil topgan tog'li, tog'oldi va dengiz sohili hududlaridan iborat.

Kichik Osiyoning arxeologiyasi Henri Shlimanning Troyada olib borgan tadqiqot ishlaridan boshlangan. Janubi-sharqiy hududlarda, Mersinda J. Garstang, janubi-g'arbda Beyji Sulton yodgorligida Seton Lloyd, bronza davri Alaja huyuk qabrlarini X.Kashay. Chatal Huyuk va Xojilar yodgorliklari Jeyms Mellart tomonidan o'rganilgan.

Kichik Osiyoning qadimgi davrni tadqiqotchi olimlar uch bosqichga ajratgan. Birinchi bosqichi (mil. avv. 6 ming yillikning oxiri-4 ming yillikning 2-choragining oxiri). Bu davrda mahalliy ruda konlari asosida metallurgiya (mis va kumush) va metallarga ishlov berish hunarmandchiligi, ya'ni ishlab chiqarish rivojlanib borgan.

Ikkinchi bosqich (mil. avv. 4 ming yillikning oxirgi choragi-3 ming yillikning birinchi yarmi). Bu bosqichdada ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarishi shakllangan. Bronza quyish texnologiyasi o'zlashtiriladi. Bronzadan yasalgan xazinalar jamlana boshlaydi. Uchinchi bosqich (mil. avv. 3 ming yillikning ikkinchi yarmi). Bu bosqichda madaniy va texnik taraqqiyotning jadallik bilan rivojlanishi. Metallarga ishlov berish hunarmandchiligining ixtisoslashish jarayoni yanada chuqurlashib, zargarlik, mehnat qurollari va qurol yarog'lar yasash va boshqalardan iborat hunarmandchilik turlari rivojlanadi. Harbiy qaramaqarshilik kuchayib, mustahqam mudofaa inshootlar barpo etiladi, harbiy qurollar turi ko'payadi. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish jarayoni yanada kuchayadi. Jamiyatda oddiy aholi vakillaridan ajralib turadigan amaldorlar tabaqasi shakllanadi. Jarayon qabrlardagi kuzatuv buyumlarida o'z aksini topgan. Ular dafn udumlarida yaqqol namoyon bo'ladi (Alaja huyukdagi kohin-sardor sag'anasida aks etgan).

Kichik Osiyoda mil.avv. VI ming yillikning oxiri-V ming yillikda neolit davri ilk dehqonchilik madaniyati oid Chatal Xuyuk an'analari davom etadi. Turkiyaning janubiy-g'arbiy qismida joylashgan ko'p qatlamli Xojilar manzilgohi bu davr uchun xos bo'lgan mashhuri yodgorliklardan hisoblanadi. Yodgorlik ingliz olimi Jeyms Mellart tomonidan 1956 yildan boshlab o'rganilgan. Tepalikning diametri 130-140 metrni tashkil etadi. Yodgorlikning beshta madaniy qatlami mil. av. VI ming yillikning birinchi yarmi-V ming yillikga oid faoliyat ketma-ketligini o'zida aks ettiradi. Bu davrda misdan ishlangan buyumlar mavjud bo'lsada, neolit davriga oid mehnat qurollaridan foydalanish an'analari davom etadi.

Xojilar yodgorligining barcha madaniy qatlamlarida tosh tagdevorli kvadrat g'ishtlardan to'tburchak qilib qurilgan imoratlar qoldiqlari mavjud bo'lgan. Xojilar II (I-V qatlamlar) davrida manzilgoh muhofaza devorlari bilan o'rab olinadi. Yodgorlikning eng quyi qatlamidan qo'lda yasalib, sirti pardoz qilingangan sopol idishlardan iborat moddiy topilmalar xos bo'lib, sapollar dastlabki bosqichda oqish va kul rangda keyingi bosqichda esa qizg'ish rangdagi sapollardan iborat bo'lgan. Eneolit davriga oid madaniy qatlamlarida bug'i yoki odam boshi shakli yopishtirilgan badiiy sapollari, qisman buqa shoxi, buqa, ayiq boshi shakllari yopishtirilgan sapollar tarqaladi. Kiyimsiz tasvirlangan ayol ma'budasi haykalchalari o'rganilgan barcha uylarda uchraydi.

Eneolit davri (5 qatlam) dan boshlab sapollarga och sariq taglik ustiga qizil rangdagi keyinchalik esa oq taglik ustiga qizil rangdagi bo'yoqlarda ishlangan geometrik naqshlar tushirish tarqaladi.

Eneolit davri madaniy qatlamlaridan ayollarning turli holatda turgan haykalchalari tarqalgan. Haykalchalarning ko'larini tasvirlashda obsidian toshlar foydalanilgan. Mil.av. 5 ming yillik oxirlariga boshlab chaqmoqtosh qurollari inqirozi boshlanib, mis buyumlar turi va soni ko'payadi.

Xojilar 2 madaniy qatlamlari yong'in holati kuzatiladi. Bu holat Xojilar 6 yodgorligida ham sodir bo'ladi. Bu esa Kichik Osiyo qadimgi aholisi o'rtasida harbiy qarama-qarshilikning sodir bo'lganligidan dalolat beradi.

Xojilar majmuasi an'analari Beychisulton yodgorligining quyi qatlamida ham aniqlangan. Undagi 11 metrdan iborat 20 ta madaniy qatlami eneolit davriga oid. Bu majmua mil.av. 5-4 ming yillikning birinchi yarmi bilan sanalanadi. Uning quyi qatlamlarida kremenga ishlov berish inqirozi va mis buyumlari sonining ko'payishi kuzatiladi. Beychisulton yodgorligidan misdan yasalgan bigiz, nayza bo'lagi va kumushdan yasalgan uzuk topilgan. Naqshli sapol idishlari mavjud. Yodgorlik aylana mudofaa devoriga ega.

Kichik Osiyoning g'arbiy hududlarida toshdan yasalgan yashiklar (sista)da va yirik sapol idishlar dafn qilish an'anasi tarqaladi. Bunday ko'mish marosimi manzilgohlarning tashqarisida amalga oshirilgan. Faqatgina yosh bolalarni manzilgohlarining ichkarisida uylarning poli tagida dafn etish an'nasi uchraydi.

Koniya vohasida ham qadimgi dehqonchilik madaniyati an'analari davom etadi Chatal Xyuyuk yaqinida yodgorliklarda o'rin olgan. Mazkur davr jarayonlari to'g'risida Jonhasan yodgorligi topilmalari ahamiyatlidir. Unda naqshli sapol idishlar pardoz qilish an'anasi mavjud bo'lgan. Idishlarda buqa boshi yopishtirilgan. Misdan ishlangan aso va bilakuzuk diqqatga sazavor. Manzilgoh mudofaa devoriga ega.

Kichik Osiyoning qadimgi madaniyatida janubi-sharqiy hududlar, ya'ni Qadimgi Kiliya yodgorliklari muhim o'rin egallaydi. Bu hudud shimoliy Suriya orqali Mesopotamiyaning ta'siri ustun bo'lgan. Mersinda (19 qatlam) Xalaf madaniyatiga xos naqshli sapollar o'rin olgan. Keyingi bosqichda esa mahalliy taraqqiyot yo'liga kirgan. Manzilgoh yarim metrli tosh devor bilan o'ralgan. Sapollarda nahshlar yo'qoladi, pardozlash an'anasi kuchayadi. Misdan yasalgan tesha, boltalar topilgan. Mesopotamiya bilan madaniy aloqalar davom etib, Ubeyd madaniyati an'analari bilan almashinadi. Sapollarga naqshlar berish an'anasi qayta jonlanadi.

Umumun, Kichik Osiyoning 6 ming yillikning ikkinchi yarmi – 4 ming yillikning birinchi yarmi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayoni kechishi sodir bo'ladi. Kulolchilik va metalchilik jamoa hunarmandchiligi turida rivojlanib boradi. Manzilgohlar tuzilishida ham ma'lum yutuqlarga erishiladi (mudofaa devori). Bu esa o'z navbatida keyingi bosqichda Kichik Osiyoning rivojlangan sivilizatsiya shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Kichik Osiyoda madaniy taraqqiyoti cho'qqisiga ilk bronza davrida (mil av. 4 ming yillikning ikkinchi yarmi-3 ming yilliklarda) chiqadi. Metallarga ishlov berish yuksak darajada rivojlanadi. Ayniqsa, zargarlik asosan tilladan zeb-zinat buyumlari yasash badiiy san'atning asosiy tarmog'i hisoblangan. Metallarning barcha turi hatto meteorit temirlar ishlangan harbiy qurol yarog'lardan ham foydalangan. Ayniqsa, manzilgohlar madaniy qatlamlaridan harbiy qurol yarog'larning ko'plab topilishi bu soha hunarmandchilikning asosiy turiga aylanganligidan dalolat beradi.

Kichik Osiyoda protoshahar madaniyati rivojlanishi kuzatiladi. Troya I (3600-3100), Polioxni, Termi, Emporio, Qumtepa va boshqalar. Shahar qurilishida asosan toshdan foydalanilgan. Undan nafaqt tagdevor aksincha to'liq devorni ko'tarishda foydalanilgan. Megaron usilidagi uylar qurish an'anasi kuchayadi. Anotoliyaning shimoliy-g'arbidagi Troya I qandaydir talofat tufayli inqiroz uchrab, Troya II

bosqichida yangi madaniyat qaror topadi. Talofat Balqondan kirib kelgan qabilalar tajavvuzi yoki tabiiy (zilzila) sababmi, ilmiy jihatdan aniq tasdig'ini topmagan. Shu narsa ma'lumki, yangi madaniyat (Troya II) birinchi bosqich bilan kam bog'liqlikka ega. Shaharlar odatda qalin mudofaa devorlariga ega bo'lgan. Ulardan Troya II, Polioxni V yodgorliklaridir. O'zaro urushlar natijasida Troya I vayron etilgan. Troya II bosqichidagi manzilgozlari 1-2 ga. bo'lgan. Troya II toshdan terilgan mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Ular to'g'ri shakldagi "plyastr"li burjlar bilan kuchaytirilgan. Shaharda ikkita darvoza bo'lgan.

Shahar markazida uzunligi 35 metrdan iborat katta imorat joylashgan. Qazish ishlari davomida kumush va tilladan yasalgan zeb-ziynat buyumlari topilgan. Ayniqsa, Boltiqbo'yi qahrabosidan yasalgan marjon va Badaxshon lazuritining topilishi Troyaning uzoq o'lkalar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yganligidan dalolat beradi. Murdalar toshdan qurilgan yashiklarga barpo qilingan (erkak va ayol)

Bir davrda rivojlangan Beyjisulton yodgorligining maydoni 24 ga. devorlari qalinligi 5 m. Bronza davrining rivojlangan bosqichida Kichik Osiyoda hunarmandchilik ishlab chiqarishi ayniqsa, zargarlik yuksak darajada rivojlanadi. Jamiyat a'zolari orasida ijtimoiy tabaqalanish jarayoni yuksak cho'qqisiga chiqadi. Markaziy anatoliyadagi Alaja Xyuyuk yodgorligidan aniqlangan sag'anadan harbiy maqsadlarda foydalanilgan qurollarning topilishi harbiy qarama-qarshilikning nihoyat kuchayganligini ko'rsatadi.

Yuqori Misr va Nubiya hududlarida mil.av. XII ming yilliklarda ma'lum hududda yashagan ibtidoiy qabilalar xo'jalikning o'zlashtiruvchi shakli bilan kun kechirgan, degan ilmiy xulosalar mavjud. Bu yerdan topilgan tosh o'roqning tig'lari yovvoyi boshqoqli o'simliklarning doni maydalashda ishlatilgan toshlardan foydalanilganligi to'g'risidagi ashyoviy manbalar buni to'liq tasdiqlaydi. Bu davrda Misr hududida iqlim sharoitlari hozirgiga nisbatan biroz namchil bo'lib, fauna va florasi ancha boy bo'lgan. Bu esa o'z navbatida o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklining o'zoq davr mobaynida asosiy ozuqa manbai bo'lib xizmat qilishiga asos bo'lgan. Nil oqimida yashagan ibtidoiy aholi turli yovvoyi hayvonlarni ovlash va boshqoqli o'simliklarning donini termachlash bilan shug'ullangan. Taxminan mil. av. VI-V ming yilliklarga kelib, ob-havo isib, hozirgi iqlim sharoitidagi qurg'oqchil sharoit qaror topadi. Bu esa ibtidoiy qabilalar xo'jalik shaklini o'zgartirishlariga turtki bo'lgan.

Misrda hududida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakliga o'tish mil. av.V ming yilliklarga qadar vujudga kelganligi to'g'risidagi aniq arxeologik ma'lumotlar mavjud emas. Mil. av. V ming yillikning ikkinchi yarmidan IV ming yillikning oxirlariga qadar Misrning har ikkala hududi o'troq dehqonchilik madaniyatiga shakllanishi va rivojlanish jarayoni kechadi. Misrda mil. av.V-III ming yilliklarda sulolalar davriga qadar ketma-ket rivojlangan bir necha madaniyatlar arxeologik jihatdan o'rganilgan. Ko'chmanchi chorvador aholi Nil bo'yida qo'y, echki va qora mol boqishgan. O'troq jamoa hayotida qisman baliqchilik, qushlarni ovlash qilish qo'shimcha xo'jalik turi hisoblangan.

Misrdagi qadimgi ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklidagi madaniyatlar Nil vodiysi va delta qismlarida tarqalgan bir necha madaniyatlarda aksini topgan. Ular

shimoldagi-Fayum, Merimdo va janubdagi-Tasiy, Badari, Nagada va Abidos yodgorliklarida o'z aksini topgan. Misr dunyodagi ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllangan markazlardan biri hisoblansada, ayrim tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra xonaki hayvonlardan-qo'y, echkini xonakilashtirish va boshqali o'simliklardan – bug'doy (emmer) va arpa madaniylashtirish bevosita Misrda sodir bo'lmagan, aksincha G'arbiy Osiyoning madaniy ta'siri natijasi hisoblanadi.

Bu davrga oid dastlabki madaniyat Nil vohasining quyi oqimidagi Fayum ko'li atrofida shakllanib, hozirgi paytda shu nom bilan yuritiladi. Fayum madaniyatiga asos solgan aholi dehqonchilikda bug'doy (emmer) va arpa yetishtirish va kanop ekishgan, chorvachilikda esa kichik va yirik tuyoqli mol hamda cho'chqa boqishgan. Qo'lda yasalgan sapol buyumlari pishirilgan. Mehnat qurollarining asosini kremendan ishlangan buyumlar tashkil etadi. Toshidan o'roq qadamlari, tesha, yorg'uchoq va kamon o'qlarining uchlari, urchubosh, suyakdan qadama, garpunlar yasalgan. Aholi hayotida ovchilik va baliqchilikning ahamiyati yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Radiokarbon usuliga ko'ra bu madaniyatga oid yodgorliklar mil.av 4440 yillar bilan sanalangan. Deltaning g'arbiy qismidagi Merimda aholisi chaylalarda istiqomat qilganlar. davrda, ya'ni mil. avv. 5 ming yillikning ikkinchi yarmida O'rta Misr va qisman Yuqori Misrda chorvador-dehqon qabilalari yashagan. Ularga oid Tasiy madaniyatiga oid ashyoviy manbalar asosan qabrlarda o'rganilgan. madaniyati egalari yengil qurilgan uyjoylarda yashagan. Uylar qum tepaliklarning qiyalangan joyidagi yerlar biroz qazilib, chaylasifat kulbalar barpo etilgan. Uy- joylar yaqinida g'alla saqlanadigan o'ralar joylashgan. Marhumlar uy-joylar va g'alla o'ralari oralig'ida qazilgan qablarga ko'milgan. Marhumlar g'ujanak holda yon tomoni bilan yotqizib ko'milgan.

Ular dehqonchilik (arpa, bug'doy) va chorvachilik (kichik tuyoqli mollar) bilan shug'ullanishgan. Qora va kul rang bo'yoqlar bilan naqshlar berib ishlangan sapol idishlarining ayrimlariga o'yma naqshlar berilgan. Tasiyliklarda sodda sug'orma dehqonchilik xo'jalik shakllana boshlagan. Ularda chorvachilik ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakli mavjud bo'lsada, go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj asosan ovchilik va baliqchilik orqali qondirilgan.

Tasiy madaniyati merosi sifatida Badariy (El-Badariy manzilgohi nomidan olingan) (mil. avv. V ming yillik oxiri IV ming yillik boshlarilar) madaniyati nisbatan yuqori taraqqiy bosqichiga ega bo'lgan.

Badariy madaniyati egalari ilgargidagi kabi yengil uylarda yashagan. Shamoldan saqlanish uchun qamishdan to'silgan kulbalar boshpana bo'lgan. G'alla zahiralari atrofi loy suvoq qilingan o'ra omborlarda saqlangan. Marhumlar qamish yoki teriga o'ralib ko'milgan.

Bu madaniyat aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan kun kechirishgan. Dehqonchilikda arpa va bug'doy ekilgan. Yerlar uchi kremindan yasalgan motigada chopilgan. Dalalar Nil daryosidan ariqlar orqali keladigan suvlar bilan sug'orilgan. Chorvachilikda qora mol va kichik tuyoli mollarni boqishgan. Hatto ushbu hayvonlarni dafn etish odatlari ham kuzatilgan. Ovchilik va baliqchilik xo'jaligi ahamiyatini yo'qotmagan. Sapol idishlari qo'lda yupqa qilib ishlangan sopol idishlari jigar rang, keyinchalik qizil rangdagi bo'yoqlardagi naqshlar bilan

bezatilgan. Qabrlardan fil suyagidan yoʻnib va loydan yasalgan ayol haykalchalari topib oʻrganilgan. Ular ayol maʼbudini oʻzida aks ettirgan.

Bu davrda misdan foydalanila boshlagan. Mis rudasining asosiy zahira manbai Sinay yarim oroli hisoblangan. Qoʻshni hududlar bilan savdo aloqalari rivojlangan.

Misrda jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichi El-Amra yodgorligi yodgorligidan nom olgan Amrat madaniyatida (mil. avv. 3800-3600) namoyon boʻladi. Bu madaniyat ikki bosqichda (Negada I,II) rivojlanadi.

Bu davrda Nil vodiysining aholi sonining oʻsib borishi manzilgohlar sonining koʻpayishiga olib kelgan. Ularning koʻpchilik qismi katta qishloqlarga oʻsib oʻtgan. Manzilgohlarning maydonining qanchalik kataligini qabrlar orqali tasavvur qilish mumkin. Birgina Negada qabristonidan ikki yoki uch davrga oid 2000 dan ortiq qabrlarilar aniqlangan.

Dehqonchilik qishloqlari rivojlanib, ularning ayrimlari mudofaa devorlari bilan mustahkamlangan. Mudofaa devorlarining qoldiqlari Negadaning janubiy manzilgohida saqlanib qolgan.

Misdan yasalgan mahsulotlar turi koʻpayadi. Misdan asosan zeb-ziynat buyumlari yasalgan. Sopal idishlar qoʻlda yasalib, oʻyma va rang tasvir naqshlari bilan bezatiladi. Shuningdek, naqshlar orasida ramziy belgilar ham uchraydi.

Gerzey madaniyati Fayumdagi oʻrganilgan El-Gerze yodgorligi nomi bilan yuritiladigan (mil.av. 3600-3100 yillar). Mazkur madaniyat Yuqori Misrdagi Negada II mozorida yaxshi nomoyon boʻladi. Kremen ahamiyatini yoʻqotmaydi. Sunʼiy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik yuqori taraqqiyot bosqichiga yetadi. I/ch dan holi boʻlgan aholining bir qismi ixtisoslashgan hunarmandchilik turlariga tortiladi. Toshtoroshlik (diorit, balzat) yuqori darajada rivojlanadi. Kulolchilikda charxdan foydalanila boshlaydi. Ovchilikning ahamiyati keskin pasayadi. Misdan bolta, pichoq, xanjar, kamon oʻqi va idishlar yasashgan. Kumushdan ham qurollar, xususan xanjar yasalgan. Shuningdek, meteorit temiridan ishlangan munchoq ham topilgan. Bu davrda xalqaro savdo munosabatlari rivojlandi. Osiyo mamlakatlaridan qalayi, kumush, Badaxshondan lazurit, Mesopatamiyadan silindr shaklidagi muhrlar keltiriladi.

Metaldan foydalanish chuqurlashib borishi va sugʻorma dehqonchilik xoʻjaligi ahamiyatining ortib borishi natajasida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tub burilish davri boshlanadi. Sugʻorma dehqonchilik ishlab chiqarish samaradorligining bir necha barobari oʻsishini taʼminlaydi. Bu oʻz navbatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelgan. Ortiqcha isteʼmol mahsulotlarining toʻplanib borishi aholi oʻrtasida mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanishni keltirib chiqargan edi.

Bu davrga kelib jamiyat tuzilishida tub oʻzgarishlar sodir boʻladi. Jamiyat aʼzolari orasida mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish jarayoni chuqur kechadi. Qabila sardorlari yoki davlatmanga tegishli qabrlar yirik hajmda boʻlib, devorlari sirti ham gʻisht bilan qoplanib, rang-tasvir bezaklari chizilgan. Aholining davlatmand aʼzolari

qabrlaridan fil suyagidan yasalgan pichoq dastasi, ayrimlariga tilla suvi yuritilgan va guldor nafis matolarning qoldiqlari topib o'rganilgan.

Misrning qadimgi davr aholisi dunyoqarashida ibtidoiy diniy qarashlar (nargi dunyoga ishonish, totemizm, magiya, ayrim kosmogonik qarashlar) ustun bo'lgan. Ma'lumki, qadimgi Sharq dehqon jamoasida hosildorlik ma'budalari bilan birgalikda totemistik qarashlarning ahamiyati yuqori bo'lgan. Keyinchalik esa kishilar ibtidoiy diniy qarashi kosmogonik tasavvurlar bilan almashadi. Misrning har bir jamoasida o'zlarining xudolari mavjud bo'lgan. Bu davrda sigir ma'budi-*Xatxor va Sokolaxora* kultlari keng tarqalgan. Bular ibtidoiy davr totemistik qarashlarda o'sib chiqadi. Sulolalargacha davrning oxirlarida xudolar odam qiyofasida tasvirlash odati tus oladi. Gerzey davri manzilgohlari markazida markaziy xudo sharafiga barpo qilingan ibodatxonalar paydo bo'lib, keyinchalik ular muhofaza devorlari bilan o'rab olinadi. Ibodatxonalar dastlab jamiyatni tartibga solib turuvchi mexanizm sifatida namayon bo'ladi

Jamiyatda mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalarning vujudga kelishi ilk davlatchilik shakllarining paydo bo'lishi bilan yakunlanadi. Qadimgi Misrda davlatlar sug'orish inshootlarini tashkil etish va ular ustidan nazorat qilish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Dastlabki nomlar (nom-davlatlar) hukmdor va bosh xudo sharafiga qurilgan ibodatxona joylashgan asosiy qism-sitadel, uning atrofidagi aholi va i/ch imoratlari o'rin olgan shahar hamda tevarakdagi qishloqlardan tashkil topgan kichik hudud doirasida bo'lgan. Mil. av. 4 ming yillikning oxirida Misrdadagi ayrim nom davlatlar kuchayib, dunyoviy hokimiyat tashkilotining mavqei kuchayib boradi va jamiyat boshqaruvini sardorlarda chiqqan podsholar boshqara boshlaydi. Ayrim nom davlatlarning kuchayishi natijasida boshqa nomlarni o'ziga qo'shib olib, xududiy podsholiklarga asos soladi. Natijada mil. avv. 4 ming yillikning oxirida nomlarning birlashib yuqori va quyi Misrdan iborat ikkita podsholikning vujudga kelishi bilan tugaydi.

Eron hududi iqlim sharoiti va landshafti bir biridan keskin farq qiladigan bir necha hududilprdan tashkil topgan. Eronning eneolit davri ikki bosqichdan: ilk (mil. av. 5500-3800 yillar) va rivojlangan (mil. av. 3800-3000 yillar) bosqichlarda rivojlangan. Eneolit davrining ilk bosqichiga oid dastlabki na'munalari Eronning g'arbidagi tog'oldi xududlarida subtropik tekisliklarda quriq iqlim sharoitida rivojlangan. Sialk tepa va Chashmai Ali yodgorliklari aniqlangan eneolit davriga madaniyati va xo'jalik xususiyatlari to'g'risida muhim ma'lumot beradi. Yodgorlik 3 ga.dan iborat bo'lib, uchta ravojlanish basqichi mavjud. Sialk III (ilk eneolit) Sialk III (rivojlangan eneolit). Sialk I bosqichida misdan yasalgan buyumlar soni kamchilikni tashkil qilsada kremendan ishlangan qurollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Geometrik asosan uchburchak shaklidagi naqshlar bilan bezak berilgan sopol idishlarga ega. Xom g'ishtdan barpo qilingan uylari ichki tomondan loysuvoq qilinib, sirtiga qizil rangdagi bo'yoqlari berilgan. Ikkinchi bosqichiga kelib misdan yasalgan buyumlar keng tarqala boshlaydi. Kremendan foydalanish ahamiyatini yo'qotmaydi. Qimmatbaxo toshlardan yasalgan zeb ziynat buyumlari na'munalari xam ko'pchilikni tashkil etadi. Sopol idishlari geometrik naqshlardan tashqari

zoomorf tasvirlari xam paydo bo'ladi. Shuningdek, konussimon tagli idishlar keng tarqaladi.

Sialk tepa xo'jalik faoliyati bilan bog'liq topilmalar aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi to'g'risidagi umumiy xulosaga kelish imkonini beradi, xalos.

Markaziy Eron xududida ilk eneolit davriga oid Giyan yodgorligi yaxshi o'rganilgan. U ikki bosqichda rivojlangan. Moddiy topilmalar orasida mis buyumlar va qo'lda naqshlar berib ishlangan sopol idishlari alohida o'rin tutadi. Naqshlar bir xil rangdagi bo'yoqlarda berilgan. Chizilgan odam va uchayotgan qush tasvirlari sxematik tarzda keltirilgan. Keyingi bosqichida echki va qush tasvirlari paydo bo'ladi. Giyan turidagi yodgorliklar shimoliyg'arbiy Zagros hududlarida ham aniqlanib, ulardan mashhuri Kuhidaiy vodiysida joylashgan maydoni 13 ga dan iborat Chigapaxon yodgorligidir. Ilk eneolit davrining uchinchi guruh jamoasi hozirgi Xuziston viloyati xududida tarqalgan. Bu yerdagi yodgorliklar 1,5-2 ga teng tepaliklar Suza I madaniyating davomiyligidan iborat Jafarobod Jobi va Bendebal komplekslarida aksini topgan.

Jafarobod bosqichida qo'pol ishlangan va sodda naqshli sopol idishlar kremendan yaslangan plastinka qurollari keng tarqalgan.

Jobi bosqichi moddiy topilmalari nisbatan boy toshdan tesha, moticha, terrakatik uchburchakli, kichik terrakotik xaykalchalar xussusan buqa, qo'y va echki va qisman ayol shakllaridan iborat. Bu bosqichda sopol idishlari xam takomillashadi. Monoxrom geometrik naqshlar bilan birgalikda xayvon tasvirlari shuningdek qator joylashgan egilar tasviri paydo bo'ladi. Qo'lida kamon ushlab tik turgan odam tasviri aloxida axamiyat kasb etadi. Bendebal bosqichi yaxshi o'rganilmagan sopol idishlari Jobi bosqichinikiga o'xshash.

Janubiy Zagros xududi qo'lda qo'pol ishlanib yaxshi pishirilmagan sopol idishlari va kremen va suyakdan yasalgan kunsonli qurollari (Bokun VI) sodda geometrik naqshlardan (Bakun VII) tashkil topgan. Persepol yaqinidagi Talibakun yodgorligi o'rganilgan. Yuqorida keltirilgan Chili, Suza va Tolibakun komplekslari xususiyatlariga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lib yagona lokal madaniyat birligini tashkil etadi va ularning kelib chiqish ildizi bir joyga borib taqaladi.

Rivojlangan eneolit Sialk III davriga kelib eneolit davri qabilalari Eronning kengroq xududlarini egallaydi. O'troq dexqonchilik axoli orasida xunarmandchilik ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi sodir bo'ladi. Sialk Chashmalani va boshqa yodgorliklarda xayot davom etishi bilan Tepai Xissor kabi yangi manzilgoxlar qaror topadi. Yodgorliklarda amalga oshirilgan. Qazishmalar bu davrning maxalliy madaniyati eski an'analar asosida rivojlanadi. Manzilgoxlar xom maydon barpo etilgan ko'pxonali uylardan tashkil topgan kulolchilik ishlab chiqarishda taraqqiy o'zgarishlari sodir bo'ladi. Sopol idishlar maxsus kulolchilik xumdonlarda pishiriladi. Oval shaklidagi xumdon Sialk III dan topib o'rganilgan. Bu davrda kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlar uchraydi. Tagi sharsimon idishlar, vazalar va bokallar keng tarqaladi. Idishlarning sirtidagi geometrik naqshlar o'rnida zoomoror echki, qushlar, ilon, ot, buqa, bars va odam tasvirlar egillaydi. Agar ilk eneolit davrida metal buyumlarning tarqalishi kamsonli va tor doirada

kechgan bo'lsa rivojlangan bosqichga kelib ularning soni va turi keskin ko'payadi. Metal buyumlarni bolg'alash usulida tayyorlashdan tashqari quyish usuli xam joriy qilinadi. Metaldan mexnat qurollari va zeb ziynat buyumlari tayyorlangan. Bu davrda uy xunarmandchiligi ixtisoslashgan xunarmandchilikka o'sib chiqadi. Sodda geometrik tasvirga ega bo'lgan tugmasimon muhrlar paydo bo'ladi.

Markaziy Eronda mazkur jarayonlar kechadi. Hisor tepa yodgorligida amalga oshirilgan qazishmalar natijasida dastlab qo'lda ishlangan (Xisor I A) keyinchalik charxda ishlanib zoomorf shakllar berilgan sopol idishlar qiyosan ko'p sonli mis buyumlar topib o'rganilgan.

Shimoliy G'arbiy Zagros xududida Sialk III bilan bir davrda Giyan VC va VD qatlamlarining qalinligi 6 metrni tashkil etadi. Yirik manzilgohlar ham Chigapaxon (maydoni 13 ga) shakllanadi. Hozirgi Xuziston xududi zamondosh yodgorliklarga nisbatan jadallik bilan rivojlangan.

Bu davrga oid jamiyat taraqqiyoti Xuzistonda joylashgan Suza A yoki Suza I (taxminan mil. av. IV ming yillikning o'rtalari) madaniy qatlamidan topib o'rganilgan moddiy manbalari namunalarida o'z aksini topgan. Bu bosqichda misdan sxematik tarzda antropomorf va zoomorf shakllardagi tasvirlar tushirib ishlangan tugmasimon tumor-muhrlar keng tarqaladi. Sapol idishlarining sirtiga geometrik naqshlar bilan birga zoomorf tasvirlar tushirish an'anasi kuchayadi. Misdan uy-ro'zg'or buyumlari, tikuv asboblari va mehnat qurollari yasalgan.

Suza V bosqichiga kelib kulolchilikda charxlardan foydalanila boshlaydi, natijada idishlarning sirtiga bezaklar berish an'anasining ahamiyati yo'qoladi. Metall buyumlarga ishlov berish texnologiyasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi, ya'ni quyish asosida mahsulotlar tayyorlana boshlanadi. Shuningdek, piktografik yozuvlar paydo bo'ladi. Ular dastlab xo'jalik hisoblarini yuritish maqsadlarida foydalanilgan. Qadimgi Shumer bilan qiyoslaganda xo'jalik hisoblarini yuritish ibodatxona tashkilotining mavjudligi bilan bog'liqligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu yerda loydan barpo qilingan katta hajmdagi imoratni tadqiqotchi arxeolog olimlar qadimgi ibodatxonaning o'rnini bo'lsa kerak, degan taxminga boradilar. Suza S bosqichiga kelib silindr izlarida ibodatxonalarining tasviri keltirilgan topilmalarga ko'ra Qadimgi Elam aholisida g'oyaviy markazning paydo bo'lganligiga amin bo'lish mumkin. Demak, bu davrda Elam sinfiy jamiyat ostonasida bo'lgan.

Bu davrda qadimgi dehqon jamoasi Janubiy Zagros bo'ylab keng tarqala boshlaydi. Hozirga qadar mazkur hududda 30 dan ortiq o'troq jamoa manzilgohlari aniqlanib, ulardan Talibakun va Taligap yodgorliklari nisbatan yaxshi o'rganilgan. Talibakun yodgorligining (maydoni 2 ga.) A bosqichida tor ko'chalar bilan ajralib turgan ko'pxonali uylarning o'rnini aniqlangan. Taligap yodgorligining yuqori qatlamidan ochib o'rganilgan ko'pxonali imorat o'rtasida joylashgan to'g'ri to'rtburcha o'choq arxeolog olimlar tomonidan sajdagoh sifatida e'tirof etilgan. Sapol idishlari qo'lda sifatli qilib ishlangan. Ularning sirtidagi naqshlari zommorf va qisman sxematik tarzda antropomorf shakllardan iborat. Tugmasimon muhrlariga sodda geometrik belgilar tushirilgan. Bu yodgorliklarda mis buyumlar uchramasligi, Sheroz vohasida mis madanlarining mavjud bo'lmaganligi bilan izohlash mumkin. Talibakun taxminan mil. av. IV ming yillikning o'rtalari bilan

sanalanadi. Sheroz vohasida bu davrda Suzinanada sodir bo'lgan madaniy o'zgarishlar, ya'ni silindr va piktografik yozuvlar uchramaydi. Bu Janubiy Zagros jamoasi Elamning ta'siriga tushib ulgurmaganligidan dalolat beradi. Bu hudud jamoasi moddiy madaniyati namunalari Shimoliy Ubeyd madaniyati bilan yaqin o'xshashlikga ega. Bu madaniyat uchun misdan yasalgan kelt (bolta), suyakdan yasalgan bigiz (prokolka) va obsidian plastinkalardan tashkil topgan topilmalar mazkur jamoa moddiy madaniyatini o'zida aks ettiradi. Sapol idishlari geometrik naqlardan iborat.

Suzianada bu davrga Suza D oid bo'lib, Suza II moddiy manbalarini o'zida aks ettiradi. Bu mil av. III ming yillikning birinchi yarmida mavjud bo'lgan. O'zlashtirilgan sezilarli darajada kengayadi. Suza D qatlami davrida Akropol va Apadanlarning tashqarisida podsha shahri deb, nomlangan qismi qayd etilgan. Kulolchilikda uzoq muddatli tanaffusdan so'ng naqshlash an'anasi qayta paydo bo'ladi. Naqshlar ikki xildagi ranglardan tashkil topgan. Sapol idishlar sirtiga solingan buqa, qush, echki baliq va burgutlarning geraldik xolat (poza) tasvirlari qadimiy badiiy hunarmandchilik va g'oyaviy tasavvurlar an'anasining davomiyligidan dalolat beradi. Metallurgiya sohasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bronzadan yasalgan xanjar, bolta, nayzaning uchi *navershiya bulava*, turli idishlar, xususan, ancha murakkab shakldagilar keng tarqaladi. Silindrlar va ularning izlari, protoelam matnlaridan iborat sapol yozuvlari bu davrga oid qatlamlar uchun odatiy topilmalar hisoblanadi. Yozuvlardagi belgilar orasida hayvonlar tasviri xo'jalik hisobini yuritishdagi asosiy vositasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, imoratlarning sxematik tasviri, nayza va omochlarning uchlari, odamlar o'tirgan qayiq nusxalari va turli ramziy belgilar astronomik kuzatishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayrim jamiyat a'zolarida moddiy boyliklarning to'planayotganligini naqsh berib ishlangan yirik hajmdagi sapol idishda saqlanib qolgan mis, bronzadan ishlangan turli buyumlar va zeb-ziynat buyumlarida ko'rish mumkin. Bu davrda boy kuzatuv buyumlariga ega bo'lgan qabrlar ajraladi. Ayrim qabrlar xom g'ishtlardan terib chiqilgan (Suza). Suzada ochib o'rganilgan qablardan topilgan sapol idishning sirtida buqaga qo'shilgan to'rt g'ildirakli arava, tepasida odamsimon shaklning o'tirgan holati berilgan uch tabaqali piramidaning tasviri keltirilgan. Bu tasvir ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lib, bu qabr ancha murakkab bo'lgan qabristonning bir qismini tashkil etgan. Bunda 25 metr uzoqroqda ikkita buqaning va aravakashning skleti topilgan. G.Chayldning xulosalariga ko'ra bu qabr ma'lum hukmdor, balki, Suza hukmdoriga tegishli bo'lishi mumkin. Boshqa bir qabrdan esa aravaning ikkita yirik g'ildiragi va metallardan yasalgan idishlar, qurol yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari va sapol idishlar topib o'rganilgan. Topilmalarning guvohlik berishicha Elamda ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, sinfiy jamiyat shakllanayotganligidan dalolat beradi. Elamdagi alohida shahar hukmdorlari Shumer hukmdorlari bilan Janubiy Ikkidaryo oralig'ida hukmronlik qilish uchun karama-qarshilik boshlaganliklaridan dalolat beradi. Mil. av. 3 ming yillikning ikkinchi yarmi Elamda davlatchilik shakllanishi sodir bo'ladi.

Taxminan mil. av. IV ming yillikning o'rtalarida Xitoy hududi jamoa orasida madaniy jihatdan ajralish kuzatiladi. Madaniyat tarqalgan hududlar doirasi kengayadi²¹.

Mil.av. IV ming ikkinchi yarmida Xitoyning shimoli-g'arbida Xunshan madaniyati rivojlanadi. Bu madaniyat sohiblari Lyaoxe daryosi bo'yida ibodatxonalar barpo etishgan. Ulardan mashhuri Nyuxelanda joylashgan 25 metr uzunlikdagi 8 ta xonadan tashkil topgan imoratdir. Ibodatxona devorlari mazmunan boy rang-tasvirlar bilan bezatilgan. Undagi oyoqlarini chalkashtirib o'tirgan holda yasalgan haykalcha kishining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Mil. av. IV ming yillikning oxirgi choraklarida Yanshao madaniyati ham inqirozga uchraydi. Mil. av. IV-III ming yilliklar atrofida Xitoyda muhim ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni kechadi. Xitoyning bu davr tarixi bevosita **Lunshan** madaniyatining tarqala boshlashi bilan bog'liq. Lunshan madaniyati Xuanxe daryosining quyi oqimida (Shandun yarim oroli) mil. av III ming yillikning boshlarida shakllangan madaniyat. Bu madaniyatga oid manzilgohlarning atrofi zichlangan tuproqlardan iborat qalin va baland mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib (ulardan birining qalinligi-10, balandligi-13 metr), kirish darvozasida soqchilar uchun mo'ljallangan xonalar bilan boyitilgan. Manzilgoh ichkarisida alohida joylashgan uy-joy imoratlari va hunarmandchilik ustaxonalari o'rin olgan. Ayrim imoratlar zichlangan tuproqdan iborat tagkursi ustiga barpo qilingan.

Dehqonchilik madaniyati yuqori taraqqiyot bosqichiga chiqadi. Naqshli sapollar kulolchilik charxida yasalgan kulrang va qora bo'yoqlar bilan bezatilgan idishlar bilan almashadi. Ichimlik uchun mo'ljallangan baland tagli va uch oyoqli idishlar yangi turdagi idishlar keng tarqaladi. Bu idishlardan diniy mazmundagi odatlarni bajarish maqadlarida foydalanilgan. Toshlardan silliqlab mehnat qurollari va suyaklardan kamon o'qlarining uchlarini yasash ommaviylashadi. Shuningdek, suyakdan bashorat qilishda foydalanilgan soqqalar tarqala boshlaydi. Sapollar sirtiga tushirilgan piktogafik belgilar paydo bo'lib, ularning bir necha yuzlab namunalari aniqlangan.

Xitoyning keyingi bosqichga oid shahar shaklidagi manzilgohlardan biri Xenan shimolida Anyan (mil. av. 14 asr-1027) yodgorligi bo'lib, u In sulolasining (273 yil davomida) ikkinchi poytaxti bo'lgan. Xitoy manbalarida keltirishia 1384 yilda ko'chirilgan. Shahar 4 gektardan ortiq maydonga ega bo'lib, mudofaa devoriga ega bo'lmagan. Bu so'nggi In davriga oid markazi hisoblangan. Manzilgohda aniqlangan tomonlari 85x14 metrni tashkil etgan tagkursida yog'och ustunlarning o'rni saqlanib, ko'rinishdan ma'muriy inshootning o'rni bo'lishi, tabiiy. Manzilgohdan hayvonlar va odamlar qurbonlik qilinadigan joy va aravalar aniqlangan. Yirik hajmdagi g'alla saqlanganadigan o'ralar, suyakdan yasalgan bashorat soqqalari aniqlangan. Shuningdek, hukmdorga tegishli 4,2 kv.m. joyni egallagan qabr ochib o'rganilgan. Bu yerdan boy mazmundagi bezaklar tushirib bronzadan ishlangan idishlar ko'p uchraydi.

²¹ Miriam T. Stark. *Archaeology of Asia*. Blackwell Publishing Ltd. 2006

Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar:

1. Hududning tabiiy-geografik sharoiti
2. Neolit davri arxeologiyasi
3. Hududda sivilizatsiya shallanishida Mesopotamiyaning madaniy ta'siri va sivilizatsiya shakllanishi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Arxeologiya Zarubejnoy Azii. M., «Visshaya shkola» 1986.
2. Brey U., Tramp D. Arxeologicheskiy slovar. M., «Progress» 1990.
3. Lamberg-Karlovski K, Sablov Dj. Drevniye sivilizatsii. Blijniy Vostok i Mezoamerika. M., «Nauka» 1992.
4. Mason V.M. Perviye sivilizatsii. M., «Visshaya shkola» 1985.
5. Chayld G. V. Drevneyshiy Vostok v svete novix raskopok. // per. s ang. M.B. Grakovoy-Sviridovoy. M., Izd. "Inostrannoy literaturi", 1956.

4-mavzu. Yevropaning eneolit-bronza davri arxeologiyasi.

- 4.1. Eneolit va bronza davri xronoliyasi muammolari. Yangi tadqiqotlar va xulosalar
- 4.2. Eneolit va bronza davri arxeologiyasining dolzarb muammolari

Kalit so'zlar: *agat, andronovo, bronza, feruza, lazurit, serdolik, protoshahar, stratigrafik.*

Andronovo madaniyati nomi Minisuy (Oltoy) o'lkasidagi A.Y.Tugarinov tomonidan dastlabki qabr topib o'rganilgan shu nomli qishloq nomi bilan bog'liq. Keyinchalik olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida juda ko'plab yodgorliklar o'rganilgan.

Sintashta-Arkaim majyasi manzilgohlari mudofaa devori va xandaklar bilan o'rab olingan. Yagodiy Dol va Arkaim manzilgohlarini o'rab turgan mudofaa devorlari xom g'isht, devg'ish va chimdan qurilgan. Kuysak manzilgohi esa devg'isht, qumoq tuproq va toshdan qurilgan. Adland va Oligino (Tosh ombor) manzilgohlarining loydan qurilgan mudofaa devorlarining sirtiga tosh terib chiqilgan. Xandaklarning eni 2,5x5,0 m., chuqurligi 1,2-1,5 m.ni tashkil etgan. Sintashta jamiyati dafn inshootlari sun'iy tepaliklarda, ayniqsa, daryolar qo'shilgan joydagi tepaliklarda joylashgan. Qabr inshootlari qabr-qo'rg'onlardan iborat. Qisman o'ra qabrlar ham mavjud.

Mozor-qo'rg'onlari pastqam tuproq uyumidan iborat yoki atrofiga aylantirib tosh terib chiqilgan. Pastida bir-ikki yoki bir nechta chuqurdan iborat qabrlar joylashgan. Qabrlarning ichki tomoniga yog'och terib chiqilgan, tomi ham yog'och bilan yopilgan. Marhumlar gujanak holatda yotqizilgan. Erkaklar bir va bir necha ayol bilan birga dafn etilgan. Marhumlarning bosh va oyoq tomoniga sopol buyumlar, mehnat qurollari va hayvonlarning go'shti qo'yilgan. Marhumni dafn etish marosimida, uning xotirasiga bag'ishlab olov yoqilgan va qurbonlik keltirilgan.

Aholi yashaydigan manzilgohlar qisman o'rganilgan. Ulardan yerto'la uyjoylarning o'rni ochilgan. Ayrim uylarining ichki tomoniga yog'och terib chiqilgan.

Rangli metallarga ishlov berish yaxshi rivojlangan, mis qazib olingan konlar ham o'rganilgan. Mehnat qurollari asosan toshdan yasalgan. Misdan yasalgan zebziynat buyumlari, igna, bigiz, kichik pichoq kabi uy-ro'zg'or anjomlarining nusxalari topilgan. Kumush va oltindan yasalgan buyumlar ham mavjud. Mis buyumlari urib ishlash usulida yasalgan. G'arbiy Sibirdagi qabrlarning biridan meteorit temirdan yasalgan bilakuzuk nusxasi topilgan.

Topilmalar sopol buyumlari, tosh qurollari, bronza buyumlari va hayvon suyaklaridan iborat. Sopollar qo'lda tagi tekis qilib yasalgan. Ularning loyiga somon va maydalangan chig'anoq qo'shilgan. Idishlar tuvaksimon shaklida yasalib, bo'g'zi biroz toraygan. Ulardan ayrimlarining sirti silliqlangan. Geometrik shaklli uyib chizilgan naqshlar yuqoridan pastga tomon bir qator bo'lib joylashgan. Bronzadan yasalgan bir tomonida tig'iga ega bo'lgan pichoq va dastasi suyakdan yasalgan to'rt qirrali iskanalar topilgan. Ayollar dafn qilingan qabrda bronzadan yasalgan bilakuzuk uchraydi. Andronovo madaniyati aholisi hayotida metallga ishlov berish hunarmandchiligi yaxshi rivojlangan. Andronovo makonidan bronza quyish va qurollar yasash ustaxonasining izlari saqlangan. Bu metall quyish uchun mo'ljallangan qolip, metall bo'laklari va qurollarning parchalari topib o'rganilgan. Toshdan nayzaning uchi, yorg'uchoq va boshqa anjomlar yasalgan. Andronovo yodgorligi yaqinida qadimgi dehqon jamoalari tomonidan foydalanilgan ekin maydonlarining o'rni saqlanib qolgan. Andronovo madaniyati egalari sun'iy qurilgan yerto'la uylarda istiqomat qilib, xo'jalikning chorvachilik va dehqonchilik shakllarini yuritgan. Bu madaniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichda xo'jalikda chorvachilikning mavqei yuqori bo'lgan. Bu yerda qoramol, qo'y va ot boqilgan. Keyinchalik aholining o'troqlash jarayoni chuqurlashib borishi natijasida dehqonchilik xo'jaligi ahamiyati o'sadi. Bug'doy, arpa, tariq va poliz ekinlar dehqonchilikning asosini tashkil etgan.

Sopol buyumlari mato qolipda tagi tuxumsimon yoki dumoloq shaklida yasalgan, turli xil o'lchamga ega. Bo'yi baland sopol buyumlar ko'pchilikni tashkil etadi. Sopollar sirtiga geometrik va archa bargi shaklli naqshlar o'yib chizilgan.

Andronovo madaniyati egalari xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil etgan. Qo'y, qora mol va yilqi boqilgan. Baland tog' yaylovlariga chorva otarlarini mavsumiy boqa boshlaydi. Bu bevosita chorvachilik xo'jalik bilan hayot kechiradigan chovador (nomad) qabilalar shakllanayotganidan darak beradi. Ovchilik ahamiyatini saqlab qolgan.

Bronza davrida insoniyat tomonidan qoʻlga kiritilgan ulkan texnologik yutuqlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining jadallashib ketishiga olib keladi. Yevrosiyoning ilk shahar markazlari erta qaror topgan janubiy qismidagi podsholiklar oʻrtasida hududiy hukmronlik uchun harbiy qarama-qarshilik kuchaygan davrda shimoliy xalqlar hayotida ishlab chiqaruvchi xoʻjalik shakliga oʻtish jarayoni kechayotgan edi.

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xoʻjaligida buyuk oʻzgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, madaniy, maʼnaviy hayotida ham tub oʻzgarishlar yasadi.

Bronzaning tarkibi mis va qalay qorishmasidan iborat boʻlgan. Eng yaxshi bronza tarkibida 90 % mis va 10 % qalay boʻlgan. U dastlab miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida Mesopotamiyada (ikki daryo oraligʻida) kashf etilgan. Bronza qurollar qattiq va ularga ishlov berish oson boʻlganligi uchun mis qurollarni siqib chiqardi. Shuningdek bronza misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1084 gradus haroratda erisa, bronza 700-900 gradusda erigan. Uning bunday past haroratda erishi, uning har bir xoʻjalikda qurollar yasash imkonini bergan. Bu esa mehnat, jangovor qurollarning turi koʻpayishiga va samaradorligining oshishiga olib kelgan.

Bronza maxsus qalin sopol idish—tigellarda eritilib, sopol qoshiqlar orqali tosh va sopolidan yasalgan qoliplarga solingan. Bronza qoliplarga yopishib qolmasligi uchun qoliplarga mumiy oʻsurtirilgan va bronza qolipdan oson ajralgan.

Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-gʻarbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. Oʻzbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II ming yillikning I choragida boshlanib, miloddan avvalgi VIII asrlargacha davom etadi. Shuningdek jamiyat taraqqiyoti ham oʻziga xos tarzda davom etgan. Oʻrta Osiyoning janubiy hududlarida dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi. Oʻzbekistonning janubiy—sharqiy va markaziy hududlarida, yaʼni Samarqand, Fargʻona, Qarshi vohasi hududlarida ilk shahar madaniyati izlari soʻnggi bronza davriga kelganda vujudga keldi. Ungacha bu hududlarda koʻchmanchi chorvadorlar madaniyati, yaʼni Andronova va Tozabogʻyob madaniyatlari aholisi yashab kelgan. Oʻzbekistonning shimoliy hududlarida choʻl va dasht chorvachilik xoʻjaligi yetakchi oʻrinni egallagan. Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo etaklarida soʻnggi bronza va ilk temir davrida chorvador qabilalar oʻtroqlashib, sugʻorma dehqonchilik bilan shugʻullana boshlaganlar va ular asosida qishloqlar tashkil etiladi.

Bronza davri xoʻjaligining eng katta yutugʻi bu dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishi va uning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Bu jarayon fanda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti deb nomlanib, miloddan avvalgi II ming yillikning 2 chi yarmida sodir boʻlgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti birinchi navbatda tabiiy sharoit muhitidan kelib chiqib ixtisoslashdi. Oʻrta Osiyoning janubiy va janubigʻarbiy rayonlari dehqonchilik madaniyatining

o'choqlariga aylandi. Uning cho'l va dasht zonalarida chorvadorlar va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy, markaziy hududlaridagi daryo etaklarida dehqonchilik madaniyati tarkib topa boshladi. Dehqonchilikdan chorvachilikning alohida soha bo'lib ajralib chiqishi qonuniy zaruriyat bo'lgan.

Andronova madaniyati mil.avv. II- I ming yilliklarda G'arbiy Sibir, O'rta Osiyo va janubiy Ural xududlarida tarqalgan madaniyati biri biriga yaqin bo'lgan qabilalarga nisbatan aytiladi. Andronova nomi Achinsk yaqinidagi Andronova qishlog'i nomidan olingan, chunki shu yerda 1914 yilda dastlabki yodgorlik topilgan. 1948 yilda K.V.Salnikov andronova madaniyati yodgorliklarning 3 bosqichini aniqladi: fyodorov, alakul, zamarev. Bugungi kunda esa, uning 4 tarmog'i aniqlangan:

Sintashta-Petrovka-Arkaim – Janubiy Ural va Shimoliy Qozoqistonda tarqalgan, mil. avv. 2200—1600 yilliklarga oid;

Alakul Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarda va Qizilqum cho'lida tarqalgan, mil.avv. 2100—1400 yilliklarga oid;

Fyodorovo Janubiy Sibir hududida tarqalgan, mil.avv. 1500—1300 yilliklarda oid, bu yerda ilk bor o'likni yoqish (krematsiya) va olovga e'tiqod izlari kuzatilgan;

Beshkentskiy rayon — Tojikistondagi

Andronova madaniyati aholisi yarim yerto'la va chaylalarda yashaganlar. Ular asosan chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ularda metallga ishlov berish rivojlangan. Ular misni Oltoy tog'laridan va Qozog'iston xududlaridan olganlar. Ko'pincha qishloqlari yonida qurbongohlari bo'lgan. U yerda ko'plab o'ralar bo'lib, ichidan andronova sopol idishlari topilgan. Sopol idishlarining tagi yassi bo'lib, murakkab geometrik o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Andronovaliklarning qabrlari daryolar oralarida bo'lib, ular toshlar bilan halqa qilib o'ralgan. O'liklar bukchaytirilib ko'milgan, qo'llari yuz tarafiga qo'yilgan. Ba'zi xollarda marhumlarning kuydirilganlari ham uchraydi. Qabrlardan chaqmoqtoshdan ishlangan o'q uchlari, bronzadan ishlangan mehnat va jangovor qurollari turli taqinchoqlar va sopol idishlar topilgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Toshkent viloyatining tog'oldi hududlari ham Andronova chorvador qabilalari tomonidan o'zlashtirilgan. Hozirgi kunda ularning qisqa muddatli qarorgohlari Toshkent yaqinidagi Achiko'l atrofida, Yangiyer rayonida va Toshkent kanali hududlarida makon va mozor izlari topilgan. Ularning xech birida madaniy qatlam saqlanmagan. Faqat qadimgi qishloq harobalarida

chizma naqshli sopol parchalari, bronzadan ishlangan uy-ro'zg'or buyumlari, tosh yorg'uchoq siniqlari uchraydi. Qabrlarda esa, oyoq-qo'llari buklanib, yoni bilan yotqizilgan skeletlar va bir necha sopol buyumlari topilgan. Ayollar qabrlarida bronza taqinchoqlar uchraydi.

Cho'l zonasi qabilalariga tegishli yodgorliklar Farg'ona vodiysida keng o'rganilgan. Jumladan, Farg'ona viloyatidagi Vodil, Karamko'l qabristonlari, Leninobod hududidagi Qayroqqum va Dahana qabristonlarini ko'rsatish mumkin.

Qayroqqum madaniyati Fargʻona vodiysining gʻarbiy qismi joylashgan boʻlib, 1950 yillarda A.P.Okladnikov va B.A.Litvinskiylar tomonidan topib oʻrganilgan. U joydagi taqir ustidan 60 dan ortiq makon va minglab sopol siniqlari, bronza va tosh qurollar, hayvon suyaklari topildi.

Makon va qabrlardagi sopol idishlar koʻp jihatdan tozabogʻyob sopollariga oʻxshab ketsa–da, lekin Qayroqqum sopollari ichida quloqli, tarnov joʻmrakli xillari boʻlgan. Sopol idishlarning oʻndan bir qismi chizma, taroq shakllar bilan naqshlangan. Bu ularning xronologik jihatdan Andronova madaniyatining eng soʻnggi bosqichiga tegishli ekanligini koʻrsatgan.

Qayroqqum madaniyatida metall hunarmandchiligi rivojlangan. 15 ta joydan metall eritish oʻchoqlari va toshqollar uyumi topilgan. Shuningdek, taqirlarda ikki tigʻli yaproqsimon pichoqlar, xanjar, iskana, qarmoq, igna, bigiz, ikki parrakli bronza paykonlar koʻplab uchraydi.

Qayroqqum madaniyati broza davrining oxiri va ilk temir davriga oid yodgorlik hisoblanadi.

Yuqori Fargʻona hududidan Vodil, Qaramkoʻl, Yapagin, Chakka qabristonlarini B.Z.Gamburg va N.G.Gorbunovlar oʻrganganlar. 50dan ortiq mozor–qoʻrgʻondan tosh yashiklarga solingan oyoq–qoʻli buklangan odam skeletlari topilgan. Lekin mozorlarning 90% oʻgʻirlangan. Ularning baʼzilarida qoʻngʻiroqsimon bronza isirgʻalar, spiral boshli bilakuzuklar, bronza munchoqlar, ikki parrakli paykon va sopol parchalari uchraydi.

Toshkent va Fargʻona vodiysi choʻlli zona qabilalarida chorvachilik rivojlangan. Lekin chorvadorlar hayotida dehqonchilik ham muxim oʻringa ega boʻlgan.

Mavzu boʻyicha takrorlash uchun savollar:

1. Andronovo madaniyati nomiini kelib chiqishi.
2. Sintashta-Arkaim majyasi manzilgohlari.
3. Andronovo madaniyatining chorvachilik va dehqonchilik shakllarini xususiyatlari.

1. Adabiyotlar roʻyxati

1. Alice Roberts Evolution the human story. London and New York. 2011.
2. Ian Hodder. Theory And Practice In Archaeology. London and New York. 2006.
3. Kevin Greene. Archaeology. London. 2003.
4. Martin Hall and Stephen W. Silliman. Historical archaeology. Oxford. 2006

5. Miriam T. Stark. Archaeology of Asia. Blackwell Publishing Ltd. 2006
6. Robert J. Muckle. Introducing Archaeology: Second Edition. University of Toronto Press. 2014
7. Suzanne Richard. Near Eastern Archaeology: A Reader. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003
8. H. Dani. V. M. Masson History of civilizations of Central Asia Volume I. UNESCO Publishing, 1992.

IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot. Afrika paleoliti, Yaqin va O‘rta Sharq paleoliti, Yevropa paleoliti, MDH xududlaridagi paleolit davri yodgorliklari, Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo paleoliti, Uzoq Sharq paleoliti (2 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Suniy sug‘orishning paydo bo‘lishi, ortiqcha iste‘mol mahsulotlarning jamlanishi, mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish vujudga kelishi (2soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo‘lishi, Uruk madaniyati, Xalaf madaniyati (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Ilk sivilizatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo‘lishi, ilk shahar markazlarining paydo bo‘lishi, ibodatxonalarining jamiyat ma‘naviy hayotidagi mavqeining ortib borishi.

5-amaliy mashg‘ulot. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanishining chuqurlashuvi, siyosiy va diniy hokimiyatlarning jamiyatni boshqaruvchi kuchga aylanib borishi, silindr muhrlar, yozuv.

6-amaliy mashg‘ulot. Suza majmuasi va uning ilk sivilizatsiya tizimida tutgan o‘rni. Janubiy, Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyo hududlarida ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va taraqqiyoti xususiyatlari. Xarappa madaniyati.

7-amaliy mashg‘ulot. Tripolye-Kukuteni, Yamniy, Afanasyev, Andronovo va boshqa madaniyatlar (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi: - ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

V. KEYSLAR BANKI

1-keys-stadi.

Keys 1. Arxeologiya atamasiga kim asos solgan. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi sabablarini ko'rsating Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Arxeologiya atamasiga ta'rif. U qanday ma'noni anglatadi. Arxeologiya atamasini kim muomalaga kiritgan.
- Arxeologiyaning fan sitida shakllanishi sabablarini keltiring.

2-keys-stadi.

Keys 2. Yer sharida xayotning paydo bo'lishi va ilk ibtidoiy odamlaring kelib chiqishi shart-sharoitlari

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Yerda xayot kandy paydo bo'lgan. Yer shari tarixi xaqida ma'lumot keltiring
- Odamzodning xayvonot dunyosidan odaamzod dunyosiga qadam qo'yishiga sabab bo'lgan omillarni izoxlang

3-keys-stadi.

Keys 3. Dastlabki gominidlarinng paydo bo'lishi sabablarini ko'rsating Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Gominidlar atamasiga ta'rif bering. U qanday ma'noni anglatadi
- Yer yuzida topilgan dastlabki paleantropologik topilmalar xaqida ma'lumot keltiring va qiyosiy taxlil qiling

4-keys-stadi.

Keys 4. Nima sababdan Afrika insoniyat beshigi sifatida e'tirof etiladi. va sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Afrika xududidagi dastlabki ibtidoiy ajdodlarimizga oid topilmalar va ularinng taxlilini keltiring.
- Nima sababdan Afrika insoniyat beshigi sifatida e'tirof etilishi sabablarini keltiring

5-keys-stadi.

Keys 5. Nima sababdan dastlabki ajdodlarimiz Afrikadan Yaqin va O'rta Sharq xududida orqali yer yuzining boshqa xududlariga migratsiya qilishgan va sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Afrika xududida va Yaqin hamda O'rta Sharq paleolit davri iqlim, shartsharoitlari haqida ma'lumot keltirng va ularinng taxlil qiling.
- Yaqin va O'rta Sharq xududidagi eng qadimgi tosh davri yodgorliklari va topilmalari

6-keys-stadi.

Keys 6. Nima sababdan dastlabki arxeologik tadqiqotlar Yevropa xuuddida o'tkazilgan ko'pgina arxeologik davrlar Yevropa xududid bilan bog'liq sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Yevropada o'tkazilgan dastlabki arxeologik izlanishlar ularning taxlilini keltirng.
- Yevropa xududidan xozirgi zamon tipidagi odamning dastlabki topilmalarining qayd etilishi va Xomo Sapiyens muammosi.

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Arxeologik va tarixiy davrashtirish muammosi
2. Markaziy va Janubiy Afrikadan topilgan paleantropologik topilmalar.
3. Arxeologiya fanida antropogenez muammosiga oid yangi qarashlar.
4. Sharqiy Afrikadagi arxeologik topilmalarning tarixi.
5. Homo sapiens ning paydo bo'lishi masalasi
6. Yaqin va O'rta Sharq xududida paleolit va mezolit davri madaniyatlarining rivojlanishi.
7. Ibtidoiy odamlarning Yevropa qit'asiga tarqalish jarayonida Yaqin Sharq mintaqasining ahamiyati.
8. Yevropaning paleolit va mezolit davri madaniyatlari
9. Yevropaning paleolit davri qoyatosh suratlari
10. Old Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning vujudga kelishi muammolari.
11. "Neolit inqilobi" tushunchasining mazmun mohiyati jaxon tarixida neolit davri madaniyatlarining o'rni va ahamiyati.

12. “Sivilizatsiya” tushunchasi. Jaxon tarixida sivilizatsiyaning dastlabki o‘choqlari.
13. Mesopatamiya – ikki daryo oralig‘ida sivilizatsiyaning vujudga kelishining sabablari.
14. Hind va Xitoy qadimiy sivilizatsiyalari.
15. Yunoniston sivilizatsiyasi
16. Marg‘iyona Baqtriya sivilizatssiyasi
17. Mezoamerika sivilizatsiyasi
18. Jahon antik davri arxeologiyasi
19. Shaharsozlik madaniyati vujudga kelishining arxeologik ma’lumotlari asosida o‘rganish uslublari.
20. Arxeologiya fanida tarixiy rekonstruksiya muammolari.
21. Jahon arxeologik yodigorliklari va qadimiy madaniyatlarni o‘rganish va targ‘ib qilish masalasiga munosabat
22. Jahon arxeologiyasining insoniyat jamiyati tarixi va sivilizatsiya taraqqiyotini o‘rganishda tutgan o‘rni va ahamiyati.
23. Jahon arxeologiyasida qo‘llaniladigan zamonaviy ilmiy metodik usullar.
24. Jahon arxeologiyasida tarixiy rekonstruksiya masalalari.
25. Jaxon arxeologiyasi va paleoekologiya.
26. Arxeologiyada tabiiy fanlar usullaridan foydalansh xususiyatlari.
27. Markaziy Osiyo arxeologiyasida zamonaviy muammolar (ilk davlatchilik va shaharsozlik madaniyati masalalari)
28. Jahon arxeologiyasi rivojlanishning umumiy ta’rifi
29. Zamonaviy arxeologik tadqiqotlar va kashfiyotlar
30. Jahon arxeologiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi

VII.

GLOSSARIY

Atama	Terminology	Termin	O‘zbek tilidagi sharhi
Arxeologiya	Archaeology	Arxeologiya	Arxayos-qadimgi va logos-fan degan ma’noni anglatadi
Antikvariy	Antiquitates	Antikvariy	Rimlik mualliflar yunoncha arxeologiya termini o‘rnida antiquitates-qadimiyot terminini qo‘llashgan.

Qadimiyot	Antiquaries	Drevnost	Rimlik mualliflar yunoncha antiquitates-qadimiyot sohasi vakillarini esa «antiquaries» - antikvariylar, ya'ni qadimiy topilmalar xavaskorlari deya atashgan.
Olduvay, ashel, mustye va so'nggi paleolit	Olduvai, Ashel, Mousterian and Upper Paleolithic	Olduvey, Ashel, mustye i pozdny paleolit	Paleolit bosqichlari. davri
Klekton madaniyati	Clactonian	Klektonskaya kultura	mil avv. 550-475 ming yilliklarda Yevropaning quyi paleolit davri madaniyati
Yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya	Savagery, barbarism and civilization	Dikarstvo, varvarstvo sivilizatsiya	Shotlandiyalik faylasuf A. Fergyson insoniyat tarixini uchta davrga ajratib ko'rsatgan
Neolit, bronza va ilk temir davrlari	Neolithic, Bronze and early Iron Age	Neolit, bronza i RJV	Arxeologik davrlar xisoblanadi.
Pleystotsén	Pleistocene	Pleystotsén	(yunonchada πλεῖστος) bundan 2,588 million yil avval boshlanib 11,7 ming yil avval tugagan geologik davrlardan biri.
To'rtlamchi davr yoki antropogen davri	Quaternary period,	Chervertichniy period	Bundan 2,588 million yil avval boshlanib

antropogen davri	anthropogenic	antropogen	xozirga qadar davom etmoqda.
Petrografiya	Petrography	Petrografiya	Bu geologiya fani bo'lib, u tog' jinslarni har tomonlama o'rganadi.
Geoxronologiya	Geochronology	Geoxronologiya	Yerning yoshini yillar bilan ifodalab berish

Arxey erasi	Archaea	Arxey	Geologik davrlardan biri bo'lib, Bu erada yerda xali xayvon organizmlari kam va o'simlik organizmlari bo'lmagan
Kaynozoy erasi	Cainozoe	Kaynozoy	Uchlamchi va to'rtlamchi davrlardan iborat.
To'rtlamchi davr	Quaternary period	Chervertichniy period	YA'ni insoniyat paydo bo'lgan davr antropogen davri deb xam yuritiladi.
Pleystotsen	Pleistocene	Pleystotsen	Buyuk muzliklar mavjud bo'lgan davr hisoblanadi
Pitekantrop	Pithecanthrope	Pitekantrop	arxeologiya fanida Noto erectus deb yuritiladi va 1981 yilda gollandiyalik olim E.Dyubua tomondan Indoneziyaning Yava orolidan topilgan.
Avstralopitekus afarensis	Australopithecus afarensis	Avstralopitekus afarensis	bundan 4-2,5 million yil avval Sharqiy Afrikada istiqomat etgan.
Olduvey	Olduvai	Olduvey	Afrika xududida aniqlangan dastlabki tosh davri madaniyati.
Xomo sapiyens	Homo sapiens	Xomo sapiyens	Yuqori paleolit davrida yashagan ibtidoiy ajdodimiz.
Nomo va unga tegishli dastlabki toshqurollar	Nomo and his early work tool	Nomo i yego ranniye orudiye truda	2.5 million yil avval Sharqiy Afrika xududida paydo bo'ladi.
Xomo ErgasterXomo Erektus	Noto ergaster— Noto erectus	Xomo ErgasterXomo Erektus	Ibtidoiy ajdodlarimizning Afrikadan Yevroosiyoga dastlabki migratsiyasini
			boshlab bergan

Selung'ur	Selengur	Selungur	O'zbekiston tosh davri yodgorligi
Kulbuloq yodgorligi	Kulbulyak	Kulbulyak	O'zbekiston tosh davri yodgorligi
Kadimgi tosh asri	Paleolith	Paleolit	Qadimgi tosh davri.
Zinjantrop	Zinjanthropus	Zinjantrop	Tanzaniyaning Zinji qishlog'idan topilgan odam..
Pitekantrop	Pithecanthrope	Pitekantrop	(yunoncha "pitekos" – maymun, "antropos" – odam) Indoneziyaning Yava orolidan topilgan eng iadimgi odam.
Xomo sapiyens	Homo sapiens	Xomo sapiyens	Yuqori paleolit davrida yashagan ibtidoiy ajdodimiz.
Xitoy odami	Sinanthropus	Sinantrop	Xitoy odami.
Xomo Xabilis	"Homo habilis"	Xomo Xabilis	"ishbilarmon odam".
Xomo Erektus	Homo erectus	Xomo Erektus	to'g'ri tik yuruvchi odam
Antropologiya	Anthropology	Antropologiya	Odamni o'rganuvchi fan
O'rta Sharq atamasi	Near East	Blijniy Vostok	-(ingliz tilida Middle East) Britaniyaning Hindiston ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 1850 yilda qo'llanilgan.
El-Masluk yodgorligi	Monument El Masluk	Pamyatnik Elmasluk	1969 yilda Kolumbiya universiteti arxeologlari tomonidan Livanning shimoliy qismida topib o'rganilgan.
Ubeydiya	Ubaid	Ubeydiya	(pleystotsen davri arxeologik yodgorligi hisoblanadi
Tabun g'ori	Tabun Cave	Peshera Tabun	Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan arxeologik yodgorlik.

Kebara g'ori	Cave Kebara	Peshera Kebara	o'rta tosh davriga oid bo'lib, Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan. Bundan 6048 ming avval ushbu g'or makoni ajdodlarimiz tomomnidan o'zlashtirilgan
Sxul g'or makoni	Cave Es Skhul	Peshera Sxul	paleolit davri yodgorligi hisoblanib, Isroil xududida joylashgan.
Kafzex	Monument Kafzeh	Pamyatnik Kafzex	paleolit davri yodgorligi hisoblanib, Isroil xududida joylashgan.
Darrai -Kur	Darrai -Kur	Darrai -Kur	Afgoniston xududida joylashgan tosh davri yodgorligi.
Ashel	Ashell	Ashel	paleolit davrining ilk bosqichi
Mustye	Moustier	Mustye	paleolit davrining o'rta bosqichi
Orinyak, Solyutre va Madlen	Aurignacian, Solutrean and Madeleine	Orinyak, Solyutre i Madlen	Fransiya xududida joylashgan paleolit davri yodgorligi
Neandertal odami	Neanderthal	Neandertalskiy chelovek	ilk bora Germaniyaning Feldgofer g'oridan topilgan.
Teyja	Teyzha	Teyja	(Fransiya) yaqinidagi g'ordan topilgan suyakka ishlangan
Ibtidoiy san'at	Prehistoric art	Pervobitnoye iskusstvo	p arxeologik davrlardan biri yuqori paleolit davrida vujudga kelgan
Lasko	Lasko	Lasko	Fransiyada joylashgan paleolit davri tasviriy san'atlarini o'zida mujassamlashtirgan g'or makon yodgorligi

Altamir	Altamir	Altamir	Ispaniyada joylashgan paleolit davri tasviriy san'atlarini o'zida mujassamlashtirgan g'or makon yodgorligi
---------	---------	---------	--

VIII. ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori

bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995sonli Qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ4068-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

1. Archive Principles and Practice. Crown copyright. 2011.
2. Archives terminology – select terms. Prepared by M. Hadly and M. Gourlir for the ASA Archives Institute, 2006.
3. David Spencer "Gateway", Students book, Macmillan 2012.
4. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010Y.204.
5. H.Q. Mitchell "Traveller" B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
6. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni "PIONEER", B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
7. Jhon Ridener. From Polders to postmodernism: an intellectual history of archival theory. USA, 2007.
8. Lindsay Clandfield and Kate Pickering "Global", B2, Macmillan. 2013. 175.
9. Mamarahimova B.I. Buyuk ipak yo`li - sivilizatsiyalararo muloqot yo`li. O'quv qo'llanma. T. 2010. pdf.
10. Millar, Laura. Appraising and Acquiring Archives. In Archives: Principles and Practices, 115-143. New York: Neal-Schuman, 2010.
11. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O'quv qo'llanma. T.: ToshSHI. 2010. pdf.

12. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
13. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4CB5092BE4460.pdf>
14. Belkin V.V. Osnovi geologii. Uchebnoye posobiye. Perm-Berezniki. 2008. pdf.
15. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
16. Bogdanov I.I. PaleoekologiY. Uchebnoye posobiye. M. Izd. «FLINTA». 2011.
17. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
18. Derevyanko A.P. Petrin, V.T. Taymagambetov J.K. Fenomen mikro industrialnix kompleksov Yevrazii Arxeologiya etnografiya i antropologiya Yevrazii. M., 2000.
19. Drevniye pamyatniki Sinszyana/ Mejkontinentalnoye izdatelstvo Kitaya, 2016.
20. Zubov A.A. Stanovleniye i pervonachalnoye rasseleniye roda “Homo”. Sankt-Peterburg. 2011.
21. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
22. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiY. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-00830_2017.pdf
23. Indiya i Sentralnaya Aziya (do Islamskogo perioda). Tashkent, 2000.
24. Isakova M. Stanovleniye i razvitiye arxivnogo dela v Uzbekistane. Tashkent: NUUZ, 2012.
25. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
26. Karapetyans I.V, Ekonomicheskiye arxivi Zapadnoy Yevropi i SSHA do nachala XX veka. M., 2007. 230 s.
27. Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. “YURIST-MEDIA MARKAZI” nashriyoti. Toshkent. 2008. 28. Lunina S.B. Arxeologiya Sredney Azii. Uchebnoye posobiye. Tashkent. 1986. pdf. 29. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

30. Obshaya paleoekologiya s osnovami ekologii. Uchebnoye posobiye. Pod redaksiyey G. N. Kiseleva. Izdaniye tretye, dopolnennoye. Sankt - Peterburg. 2005.
31. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. <https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPTUZ.pdf>
32. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva i kulturi Sentralnoy Azii Tashkent, 2005.
33. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev YE.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi - davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. T.2011. pdf
34. Rindina N.V., Degtyareva A.D. Eneolit i bronzoviy vek. Uchebnoye posobiye po kursu «Osnovi arxeologii». Izd. MGU.2002.
35. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1996. pdf.
36. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. T., 2004. pdf.
37. Sarianidi V.I., Margush. Drevnevostochnoye sarstvo v stroydelte reki Murgab. Ashgabad. 2002.
38. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. T., 2000. doc.
39. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
40. Xorxordina T.I., Prozorova V.B., Mazin K.A. Vseobshaya istoriya arxivov. Chast 1. M.: RGGU, 2019.
41. Semenkova S.I. Istoriya arxivov Rossii s drevneyshix vremen do nachala XX veka. Uchebnoye posobiye. Yekaterinburg: Izd-vo Uralsk. unta, 2015.
42. Chistyakov A.A., Makarova N.V., Makarov V.I. Chetvertichnaya geologiya. Uchebnik. M. Izd. «GEOS».2000. Djvu.
43. Eshov B.J. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008. pdf.
44. H. Dani. V. M. Masson History of civilizations of Central Asia Volume I. UNESCO Publishing, 1992.
45. Alice Roberts Evolution the human story. London and New York. 2011.
46. Ian Hodder. Theory And Practice In Archaeology. London and New York. 2006.
47. Kevin Greene. Archaeology. London. 2003.
48. Martin Hall and Stephen W. Silliman. Historical archaeology. Oxford. 2006
49. Miriam T. Stark. Archaeology of asia Oxford. 2006
50. Denbow J. The Archaeology and Ethnography of Central Africa Published: Cambridge University Press. 2013

51. Miriam T. Stark. Archaeology of Asia. Blackwell Publishing Ltd. 2006
52. Robert J. Muckle. Introducing Archaeology: Second Edition. University of Toronto Press. 2014
53. Suzanne Richard. Near Eastern Archaeology: A Reader. Winona Lake Indiana. Eisenbrauns. 2003
54. Derevyanko A.P. Petrin, V.T. Taymagambetov J.K. Fenomen mikro industrialnix kompleksov Yevrazii Arxeologiya etnografiya i antropologiya Yevrazii. M., 2000.
55. Drevniye pamyatniki Sinszyana/ Mejkontinentalnoye izdatelstvo Kitaya, 2016.
56. Indiya i Sentralnaya Aziya (do Islamskogo perioda). Tashkent, 2000.
57. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva i kulturi Sentralnoy Azii Tashkent, 2005.
58. Sarianidi V.I. Margush. Drevnevostochnoye sarstvo v stroydelte reki Murgab. Ashgabad. 2002.

IV. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyonET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
6. [https:// www.history.ru](https://www.history.ru)
7. [https:// www.natura.com](https://www.natura.com)
8. [https:// www.archaeology.ru](https://www.archaeology.ru)
9. <https://www.archaeology.com>
10. www.history.ru
11. www.natura.com
12. www.archaeology.ru
13. www.archaeology.com